O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

Saidova Rizvon Mustofo qizi

ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHISINING USLUBIY ISHLANMA YARATISH TEXNOLOGIYASI

O‘quv qo‘llanma

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2026

UO‘K: 37.091.3:811.512.133
KBK: 74.268.1
S 73

Saidova Rizvon Mustofo qizi.
Ona tili va adabiyot o‘qituvchisining uslubiy ishlanma yaratish texnologiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / R.M.Saidova. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 164 b.

Tayyorladi:
R.M.Saidova – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Metodik xizmat ko‘rsatish” bo‘limi metodisti, f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:
Z.U.Mamadaliyeva – Jizzax davlat pedagogika universiteti “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori, f.f.d (DSc)
J.A.Mardankulov – Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD) prof.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining uslubiy ishlanma yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy texnologiyasi yoritilgan. Unda uslubiy ishlanma turlari va me’yoriy-huquqiy asoslari, tezis va ilmiy-metodik maqola yozish, uslubiy tavsiya va uslubiy qo‘llanma tayyorlash, ilg‘or ish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish masalalari bosqichma-bosqich bayon qilingan. Har bir paragraf amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, nazorat savollari, topshiriqlar va test topshiriqlari bilan ta’minlangan. Qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodik birlashma rahbarlari, mentor-o‘qituvchilar, pedagogik mahorat markazlari tinglovchilari va filologiya yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik kengashining 2026-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-15-128-6

© Saidova R.M., 2026.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2026.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining bosh maqsadi – ta’lim sifatini xalqaro talablar darajasiga koʻtarish, har bir oʻquvchining salohiyatini toʻla roʻyobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu maqsadga erishishda hal qiluvchi boʻgʻin, shubhasiz, oʻqituvchi hisoblanadi. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida ham ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan[1]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori bilan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning yangi tizimi joriy etildi[2]. Unda oʻqituvchining kasbiy rivojlanishi bir martalik kurs bilan cheklanmasligi, balki muntazam, uzluksiz va natijaga yoʻnaltirilgan jarayon boʻlishi lozimligi ta’kidlangan.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim shakllaridan biri – oʻqituvchining oʻz ish tajribasini tahlil qilib, uni uslubiy ishlanma koʻrinishida umumlashtirishi va hamkasblariga taqdim etishidir. Har bir tajribali oʻqituvchining kundalik faoliyatida samarali usullar, oʻziga xos topshiriqlar, oʻquvchilarni faollashtirishning sinalgan yoʻllari mavjud. Biroq bu boylik koʻpincha bitta sinf xonasi doirasida qolib ketadi. Uni boshqa oʻqituvchilar ham foydalana oladigan shaklga keltirish – maqola, uslubiy tavsiya yoki uslubiy qoʻllanma yozish – alohida bilim va koʻnikma talab qiladi. Amaliyot koʻrsatishicha, koʻplab pedagoglar ilgʻor tajribaga ega boʻlgani holda, uni ilmiy-metodik talablar asosida rasmiylashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi: mavzuning dolzarbligi va yangiligini asoslash, ishlanma tuzilmasini toʻgʻri qurish, manbalardan

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«Oʻzbekiston – 2030» strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. // lex.uz.

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori. // lex.uz.

foydalanish va havola berish, natijalarni dalillash, matnni ilmiy uslubda bayon etish kabi masalalar ularga muammo tug‘diradi[3].

Shu ehtiyojdan kelib chiqib, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari malaka oshirish kursi o‘quv rejasiga “O‘qituvchilarning uslubiy ishlanmalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish” (3.7) moduli kiritilgan[4]. Modul ikki mavzuni o‘z ichiga oladi: “Maqola, uslubiy tavsiya va qo‘llanma tayyorlashga qo‘yiladigan talablar” hamda “Ommalashtirishga tavsiya etilgan ilg‘or ish tajribalar uchun uslubiy ishlanmalar tayyorlash”. Modulga ajratilgan vaqt atigi to‘rt soatni tashkil etadi. Bu vaqt ichida tinglovchi asosiy talablar bilan tanishadi, ammo o‘z ishlanmasini mustaqil yaratishi uchun yanada keng, tizimli va amaliy yo‘naltirilgan qo‘llanma zarur bo‘ladi.

Ikkinchi tomondan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi 32-son buyrug‘i bilan o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirishning yangi tartibi joriy etildi[5]. Endilikda metodik qo‘llanma va metodik tavsiyalar ommalashtirish.uz platformasi orqali maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlarida aniq mezonlar asosida baholanadi[6]. Vazirning 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug‘i bilan joriy etilgan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari esa o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishi, dars kuzatishi va refleksiv amaliyoti uchun muntazam maydon

---

[3] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2026.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrug‘i (10-ilova: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv rejasi). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o‘quv dasturi (2-toifali va mutaxassis o‘qituvchilar uchun) / Tuzuvchilar: D.O‘rinbayeva, L.Mirzoxidova, G.Raximova, G.Niyozova, N.Hamroyeva. – Toshkent: A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2026.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-son buyrug‘i.

[6] https://ommalashtirish.uz – O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish platformasi. Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

yaratdi[7]. Bu ikki hujjat oʻqituvchidan oʻz tajribasini yozma shaklda umumlashtira olishni amaliy zaruratga aylantirdi.

Mazkur oʻquv qoʻllanma ana shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Uning maqsadi – ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilariga tezis, ilmiy-metodik maqola, uslubiy tavsiya va uslubiy qoʻllanma yaratishning nazariy asoslari, talablari va amaliy texnologiyasini bosqichma-bosqich oʻrgatish hamda ularning ilgʻor ish tajribasini ommalashtirishga tayyorlash koʻnikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Qoʻllanmaning vazifalari:

uslubiy ishlanma tushunchasi, turlari va uni yaratishning me’yoriy-huquqiy asoslarini yoritish;

ilmiy matn, tezis va ilmiy-metodik maqola yozish texnologiyasini ona tili va adabiyot oʻqitish misolida koʻrsatib berish;

uslubiy tavsiya va uslubiy qoʻllanmaning tuzilmasi, mazmuni va rasmiylashtirish talablarini amaliy namunalar asosida tushuntirish;

ilgʻor pedagogik tajribani aniqlash, tavsiflash, umumlashtirish va ommalashtirishga tayyorlash yoʻllarini ochib berish;

oʻqituvchilarga uslubiy ishlanma yaratishda qoʻllaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar majmuini taqdim etish.

Qoʻllanma kirish, ikki bob, xulosa, glossariy, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar boʻlimi, test topshiriqlarining kalitlari, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Birinchi bobda (toʻrt paragraf) uslubiy ishlanma yaratishning nazariy va me’yoriy asoslari – ishlanma tushunchasi va turlari, me’yoriy-huquqiy asoslar, oʻqituvchining ilmiy-metodik kompetentligi, ishlanmaga qoʻyiladigan talablar, ilmiy uslub, manbalar bilan ishlash va akademik halollik masalalari yoritilgan. Ikkinchi bobda (besh paragraf) tezis va maqola yozish, uslubiy tavsiya va qoʻllanma tayyorlash, dars ishlanmasi va baholash

[7] Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari oʻqituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish toʻgʻrisida”gi 246-son buyrugʻi.

materiallarini ishlab chiqish, pedagogik tajriba-sinov, ilg‘or tajribani umumlashtirish va ommalashtirish texnologiyasi bayon etilgan.

Har bir paragraf nazariy ma’lumotlardan tashqari, mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, 10 ta nazorat savoli, 10 ta amaliy topshiriq va 10 ta test topshirig‘ini o‘z ichiga oladi. Bu tuzilma qo‘llanmadan malaka oshirish kurslarida, “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarida, maktab metodik birlashmalari mashg‘ulotlarida hamda o‘qituvchining mustaqil ta’limida foydalanish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlar 80 daqiqaga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni mentor-o‘qituvchi yoki metodik birlashma rahbari guruh sharoitiga moslab o‘tkazishi mumkin.

Qo‘llanmani tayyorlashda o‘zbek pedagogikasi va metodikasi namoyandalari – N.N.Azizxo‘jayeva, R.Ishmuhamedov, N.Muslimov, O’.Tolipov, J.Yo‘ldoshev, K.Qosimova, A.G‘ulomov, Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova va boshqalarning ishlari, ilmiy maqola yozish bo‘yicha mahalliy qo‘llanmalar, shuningdek, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) va ta’lim maqsadlari taksonomiyasiga oid manbalar asos qilib olindi. Amaldagi me’yoriy hujjatlar va ommalashtirish mezonlari bilan bog‘liq ma’lumotlar rasmiy manbalardan olingan[8].

Qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodik birlashma rahbarlari, mentor-o‘qituvchilar, pedagogik mahorat markazlari tinglovchilari va filologiya yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

[8] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. // xalqtaliminfo.uz. Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

I BOB. USLUBIY ISHLANMA YARATISHNING NAZARIY VA ME'YORIY ASOSLARI

1.1-§. Uslubiy ishlanma tushunchasi, turlari va me'yoriy-huquqiy asoslari

Uslubiy ishlanma tushunchasi. Pedagogik adabiyotlarda "uslubiy ishlanma", "metodik ishlanma", "o'quv-metodik material" atamalari ko'pincha yonma-yon qo'llaniladi. Ularning umumiy mohiyati shundaki, uslubiy ishlanma – o'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish mazmuni, metod va vositalarini tanlash hamda qo'llash bo'yicha o'qituvchiga yo'l ko'rsatuvchi, muayyan pedagogik muammoni hal etishga qaratilgan, yozma shaklda rasmiylashtirilgan materialdir. U o'qituvchining "nimani o'qitish kerak?" degan savoldan ko'ra ko'proq "qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob beradi. Ommalashtirish mezonlarida ham aynan shu talab alohida ko'rsatilgan: ishlanmada "Qanday o'qitish kerak?" savoli ochib berilishi, topshiriq namunalari, sxema va jadvallar bilan izohlanishi lozim[9].

Uslubiy ishlanma darslik yoki o'quv qo'llanmadan farq qiladi. Darslik o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, fan mazmunini bayon qiladi. Uslubiy ishlanma esa, asosan, o'qituvchiga yo'naltirilgan: unda mazmunni qanday tartibda, qaysi usul va vositalar yordamida, qanday natija kutgan holda o'rgatish ko'rsatiladi. Masalan, 7-sinf adabiyot darsligida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan parcha va unga doir savollar berilgan bo'lsa, uslubiy ishlanma bu parchani o'quvchilar bilan qanday o'qish, qahramonlar xarakterini qaysi interfaol metod orqali tahlil qilish, darsni qanday baholash bilan yakunlash kerakligini tushuntiradi.

O'zbek pedagogikasida o'qituvchining metodik ijodkorligi masalasi azaldan e'tiborda bo'lgan. Jadid ma'rifatparvarlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat o'z davrida yangi usul maktablari uchun darsliklar bilan birga muallimga yo'l-yo'riq beruvchi qo'llanmalar ham yaratganlar. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobi nafaqat o'quvchiga,

[9] Metodik qo'llanma va metodik tavsiyaga qo'yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

balki muallimga ham mo‘ljallangan metodik qimmatga ega manbalardir[10]. Bu an’ana bugungi o‘qituvchi uchun ham ibratlidir: yaxshi muallim o‘z bilganini faqat sinfda emas, hamkasblari bilan ham baham ko‘radi.

Uslubiy ishlanmaning asosiy belgilari. Har qanday yozma material ham uslubiy ishlanma hisoblanavermaydi. Uslubiy ishlanma quyidagi belgilarga ega bo‘lishi kerak:

aniq pedagogik muammoga yo‘naltirilganlik – ishlanma ta’lim jarayonidagi muayyan qiyinchilikni (masalan, o‘quvchilarning imloviy savodxonligi pastligi, badiiy matnni tahlil qila olmasligi) hal etishga qaratiladi;

amaliy yo‘naltirilganlik – unda bayon etilgan usullarni boshqa o‘qituvchi ham o‘z darsida qo‘llay olishi lozim;

tizimlilik – materiallar mantiqiy ketma-ketlikda, maqsaddan natijaga qarab joylashtiriladi;

asoslanganlik – taklif etilayotgan usulning samaradorligi kuzatish, tajriba yoki o‘quvchilar natijalari bilan dalillanadi;

me’yoriy hujjatlarga moslik – ishlanma amaldagi o‘quv dasturi va darsliklarga mos bo‘ladi yoki ularni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uslubiy ishlanmalarning turlari. Uslubiy ishlanmalarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin. Vazifasi va hajmiga ko‘ra quyidagi asosiy turlar ajratiladi:

Tezis – ilmiy yoki ilmiy-metodik g‘oyaning qisqa, asosiy holatlarini bayon etuvchi matn. Odatda 1–3 sahifa hajmida bo‘lib, konferensiya to‘plamlarida chop etiladi.

Ilmiy-metodik maqola – muayyan metodik muammoning tahlili, uni hal etish yo‘llari va natijalarini bayon qiluvchi asar. Hajmi, odatda, 5–10 sahifa.

Uslubiy ko‘rsatma – muayyan ishni bajarish tartibini qisqa va aniq ko‘rsatuvchi hujjat (masalan, diktant o‘tkazish va baholash bo‘yicha ko‘rsatma).

Uslubiy tavsiya – dolzarb metodik masalani hal etish bo‘yicha asoslangan takliflar va ularni amalga oshirish yo‘llari bayon

[10] Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 112 b. Hoshimov K., Ochil S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

etilgan ishlanma. Ommalashtirish talablariga koʻra hajmi kamida 10 sahifa boʻlishi kerak[11].

Uslubiy qoʻllanma – oʻqitishning muayyan boʻlimi, mavzusi yoki yoʻnalishi boʻyicha nazariy asoslar, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, topshiriqlar va baholash materiallarini tizimli ravishda oʻz ichiga olgan kengroq ishlanma. Ommalashtirish talablariga koʻra hajmi kamida 24 sahifa[12].

Dars ishlanmasi (dars loyihasi) va texnologik xarita – bitta mashgʻulotning maqsadi, bosqichlari, metodlari, vaqt taqsimoti va kutilayotgan natijalarini koʻrsatuvchi hujjat.

Didaktik materiallar toʻplami – mashq, topshiriq, test, tarqatma materiallar, kartochkalar majmui.

Elektron uslubiy resurslar – taqdimotlar, video darslar, onlayn testlar, elektron qoʻllanmalar.

Qoʻllanish doirasiga koʻra ishlanmalar bir dars uchun, bir mavzu yoki boʻlim uchun, butun kurs (sinf) uchun moʻljallangan boʻlishi mumkin. Muallifiga koʻra yakka mualliflik va jamoaviy (masalan, metodik birlashma tomonidan tayyorlangan) ishlanmalar farqlanadi. Maqsadli auditoriyasiga koʻra esa yosh oʻqituvchilar, tajribali pedagoglar, oʻquvchilar yoki ota-onalar uchun tayyorlangan ishlanmalar boʻladi.

Quyidagi jadvalda asosiy turlarning qiyosiy tavsifi berilgan.

Ishlanma turi	**Asosiy vazifasi**	**Taxminiy hajmi**	**Asosiy oʻquvchisi**
Tezis	Gʻoyani qisqa eʼlon qilish	1–3 bet	Ilmiy jamoatchilik
Ilmiy-metodik maqola	Muammo va yechimni asoslash	5–10 bet	Oʻqituvchilar, tadqiqotchilar
Uslubiy koʻrsatma	Ish tartibini belgilash	2–6 bet	Oʻqituvchilar
Uslubiy tavsiya	Muammo yechimini taklif etish	kamida 10 bet	Oʻqituvchilar
Uslubiy qoʻllanma	Yoʻnalish boʻyicha tizimli yoʻriqnoma	kamida 24 bet	Oʻqituvchilar, talabalar
Dars ishlanmasi	Bitta darsni loyihalash	2–5 bet	Oʻqituvchi

[11] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.
[12] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

Uslubiy ishlanmaning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni. Uslubiy ishlanma yaratish o‘qituvchi uchun bir necha muhim vazifani bajaradi.

Birinchidan, u refleksiya vositasidir. O‘qituvchi o‘z tajribasini yozishga kirishar ekan, uni tahlil qilishga, nima uchun muvaffaqiyatli bo‘lganini, qaysi jihatlarini yaxshilash lozimligini anglashga majbur bo‘ladi. Amerikalik olim D.Shyon bunday faoliyatni “refleksiv amaliyot” deb atagan: mutaxassis o‘z harakatlari haqida o‘ylash orqali kasbiy o‘sishga erishadi[13]. 246-son buyruqda ham refleksiv amaliyot “Kasbiy rivojlanish soati”ning asosiy shakllaridan biri sifatida belgilangan[14].

Ikkinchidan, ishlanma kasbiy hamkorlik vositasidir. Yozma shaklga keltirilgan tajriba boshqa o‘qituvchilar tomonidan o‘rganiladi, sinab ko‘riladi, takomillashtiriladi. Natijada metodik birlashma, maktab, tuman miqyosida umumiy metodik madaniyat yuksaladi.

Uchinchidan, u kasbiy rivojlanish va attestatsiyaning ko‘rsatkichidir. Ommalashtirilgan ishlanma uchun beriladigan sertifikat uch yil davomida amal qiladi[15] va o‘qituvchining kasbiy yutuqlarini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

To‘rtinchidan, ishlanma ta’lim sifatini oshirish vositasidir. Pirovard natijada uslubiy ishlanmaning qadri o‘quvchilar natijasi bilan o‘lchanadi: agar ishlanmada taklif etilgan usul o‘quvchilarning savodxonligi, matnni tushunish yoki ijodiy yozish ko‘nikmalarini oshirsa, u o‘z vazifasini bajargan bo‘ladi.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uchun xos jihatlar. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining uslubiy ishlanmasi bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Avvalo, bu fan til va nutq bilan ishlaydi, shuning uchun ishlanmaning o‘zi ham namunali, savodli va ravon tilda yozilishi kerak: imloviy yoki uslubiy xato boshqa fan

---

[13] Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

[15] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

oʻqituvchisi uchun kamchilik boʻlsa, ona tili oʻqituvchisi uchun jiddiy nuqson hisoblanadi. Ommalashtirish mezonlarida imloviy, tinish va uslubiy xatolar uchun alohida ball ajratilgani ham shundan dalolat beradi[16].

Ikkinchidan, ona tili va adabiyot darslarida matn markaziy oʻrinda turadi. Shuning uchun ishlanmalarda badiiy va ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlash, matnni tushunish va tahlil qilish strategiyalari, oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish masalalari ustuvor boʻladi. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) ham aynan oʻqish savodxonligini, ya'ni matndan ma'lumot topish, uni talqin qilish va baholash koʻnikmalarini oʻlchaydi[17].

Uchinchidan, adabiyot fani ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bogʻliq. Adabiyot oʻqitish metodikasi boʻyicha tadqiqotlar mualliflari – A.Zunnunov, Q.Yoʻldoshev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova – adabiy ta'limning bosh maqsadi oʻquvchini badiiy asarni his qiladigan, mustaqil fikrlaydigan kitobxon sifatida tarbiyalash ekanini ta'kidlaydilar[18]. Shu bois adabiyot boʻyicha ishlanmalarda faqat ma'lumot berish emas, balki oʻquvchining asarga shaxsiy munosabatini shakllantirish yoʻllari ham koʻrsatilishi zarur.

Toʻrtinchidan, ona tili va adabiyot fani boshqa fanlar bilan keng integratsiya imkoniyatiga ega: tarix, tasviriy san'at, musiqa, informatika fanlari bilan bogʻliq topshiriqlar ishlanmaning qimmatini oshiradi. Ommalashtirish mezonlarida fanlararo va mavzulararo integratsiya uchun alohida ball belgilangan[19].

Uslubiy ishlanma yaratish jarayonining umumiy modeli. Ishlanma yaratish quyidagi bosqichlardan iborat jarayon sifatida tasavvur qilinishi mumkin:

---

[16] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[17] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston College: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019.

[18] Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. – 256 b. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. – 360 b. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikasi: oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. – 352 b.

[19] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

1. Muammoni aniqlash – oʻquvchilar natijalari, dars kuzatuvlari, diagnostika asosida hal etilishi lozim boʻlgan masalani belgilash.

2. Manbalarni oʻrganish – muammo boʻyicha ilmiy-metodik adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar, ilgʻor tajribalarni tahlil qilish.

3. Yechim gʻoyasini ishlab chiqish – muammoni hal etishning oʻz usulini yoki mavjud usullarning yangi uygʻunligini loyihalash.

4. Amalda sinash – gʻoyani darslarda qoʻllash, natijalarni kuzatish va qayd etish.

5. Natijalarni tahlil qilish – usulning samaradorligini baholash, zarur oʻzgartirishlar kiritish.

6. Yozma rasmiylashtirish – tanlangan ishlanma turi talablariga muvofiq matnni yozish.

7. Muhokama va taqriz – metodik birlashmada muhokama qilish, taqrizchilar fikrini olish.

8. Taqdim etish va ommalashtirish – ishlanmani pedagogik kengash qarori bilan ommalashtirish platformasiga joylash, konferensiya yoki jurnalga yuborish.

Bu bosqichlarning har biri qoʻllanmaning keyingi boblarida batafsil yoritiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, 4-bosqich – amalda sinash – koʻpincha e’tibordan chetda qoladi. Holbuki, sinovdan oʻtmagan usul haqida yozilgan ishlanma faqat taxminga asoslanadi va uning ishonchliligi past boʻladi.

Ta’lim tizimini umumiy tartibga soluvchi hujjatlar. Bu guruhning asosi Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonunidir[20]. Qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari – ta’limning insonparvar va demokratik xususiyati, uzluksizligi va izchilligi, ta’lim sifatining kafolatlanishi, ilm-fan va ta’lim integratsiyasi belgilangan. Pedagog xodimlarning huquqlari qatorida ta’lim jarayonida pedagogik ijodkorlik, oʻqitishning ilgʻor shakl va usullarini qoʻllash, oʻquv-uslubiy ishlanmalar yaratish hamda oʻz malakasini muntazam oshirish huquqi qayd etilgan. Shu bilan birga, pedagog xodimning majburiyatlari qatorida

[20] Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, OʻRQ-637-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

kasbiy malakasini doimiy oshirib borish vazifasi ham bor. Demak, uslubiy ishlanma yaratish oʻqituvchi uchun ham huquq, ham kasbiy burchning ifodasidir.

Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim sohasidagi ustuvor maqsadlarni belgilaydi[21]. Strategiyada maktab ta’limi sifatini oshirish, oʻquvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi koʻrsatkichlarini yaxshilash, oʻqituvchilar malakasini xalqaro talablar darajasiga yetkazish vazifalari qoʻyilgan. Ona tili va adabiyot oʻqituvchisi uchun bu, avvalo, oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini rivojlantirish demakdir: PISA va PIRLS dasturlarida matnni oʻqib tushunish asosiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi[22]. Shuning uchun oʻqish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan har qanday ishlanma strategik vazifalar bilan bevosita bogʻlanadi va uning dolzarbligini asoslashda shu hujjatga tayanish mumkin.

Prezidentning 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini tashkil etish masalalarini tartibga soladi[23]. Unda pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, metodik xizmat faoliyatini yangilash masalalari belgilangan.

Ishlanma mazmuni uchun eng muhim me’yoriy asos – davlat ta’lim standarti va oʻquv dasturidir. Ona tili va adabiyot fanlari boʻyicha amaldagi oʻquv dasturlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boʻlib, ularda oʻquvchilarda shakllantirilishi lozim boʻlgan nutqiy, lingvistik, adabiy-estetik kompetensiyalar hamda har bir sinf uchun kutiladigan oʻquv natijalari koʻrsatilgan. Ishlanma muallifi oʻz ishining qaysi sinf, qaysi boʻlim va qaysi oʻquv natijasiga xizmat qilishini aniq koʻrsatishi kerak. Masalan, “6-sinf ona tili darslarida soʻz turkumlarini oʻrgatishda didaktik

[21] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«Oʻzbekiston.
[22] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) PIRLS 2021 Assessment Frameworks.
[23] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. // lex.uz.

oʻyinlardan foydalanish” mavzusidagi ishlanmada dasturdagi tegishli mavzular va ular uchun ajratilgan soatlar koʻrsatilsa, ishlanmaning amaliy qimmati ortadi.

Oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishiga oid hujjatlar. Prezidentning 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori bilan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi takomillashtirildi[24]. Qarorning asosiy gʻoyasi – oʻqituvchining kasbiy rivojlanishini besh yilda bir marta oʻtadigan kurs bilan cheklamasdan, uni muntazam, ehtiyojga asoslangan va kredit-modul tizimidagi jarayonga aylantirishdir. Bu tizimda oʻqituvchining mustaqil ta’limi, hamkasblar bilan tajriba almashishi, uslubiy ishlanmalar yaratishi va ommalashtirishi kasbiy rivojlanishning teng huquqli shakllari sifatida e’tirof etiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrugʻi bilan umumiy oʻrta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining oʻquv rejasi tasdiqlangan[25]. 100 soatlik kursning uchinchi blokida “Oʻqituvchilarning uslubiy ishlanmalar yaratish koʻnikmalarini rivojlantirish” (3.7) moduli oʻrin olgan. Modul 4 soatga moʻljallangan boʻlib, 2 soati nazariy, 2 soati amaliy mashgʻulotlardan iborat. Modul doirasida ikki mavzu oʻrganiladi: “Maqola, uslubiy tavsiya va qoʻllanma tayyorlashga qoʻyiladigan talablar” hamda “Ommalashtirishga tavsiya etilgan ilgʻor ish tajribalar uchun uslubiy ishlanmalar tayyorlash”[26]. Kurs dasturida modulning maqsadi tinglovchilarda ilmiy-metodik ishlanmalar tuzilmasi, ularga qoʻyiladigan talablar haqida bilim hamda oʻz

[24] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori.

[25] Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrugʻi (10-ilova: Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining oʻquv rejasi).

[26] Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining oʻquv dasturi (2-toifali va mutaxassis oʻqituvchilar uchun) / Tuzuvchilar: D.Oʻrinbayeva, L.Mirzoxidova, G.Raximova, G.Niyozova, N.Hamroyeva.

tajribasini yozma ravishda umumlashtirish koʻnikmasini shakllantirish sifatida belgilangan[27].

Vazirning 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrugʻi bilan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi[28]. Buyruqqa koʻra filologiya yoʻnalishidagi fan oʻqituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” haftaning seshanba kuniga belgilangan. Bu kunda oʻqituvchilar tayanch maktablarda mentor-oʻqituvchilar rahbarligida oʻquv mashgʻulotlari, ochiq darslar, tajriba almashish tadbirlarida qatnashadi. “Kasbiy rivojlanish soati” esa maktab miqyosida dars kuzatish, refleksiv amaliyot, ustoz-shogird faoliyati shaklida tashkil etiladi. Bu tadbirlar uslubiy ishlanmalarni muhokama qilish, sinab koʻrish va takomillashtirish uchun qulay maydon yaratadi; ularning tafsilotlari 2.5-§ da batafsil yoritiladi.

Meʼyoriy hujjatlarni ishlanmada qanday qoʻllash kerak? Amaliyotda ikki xil xato uchraydi. Birinchi xato – meʼyoriy hujjatlarni umuman tilga olmaslik; bunda ishlanmaning dolzarbligi faqat muallifning shaxsiy fikriga tayanib qoladi. Ikkinchi xato – kirish qismini farmon va qarorlardan uzun iqtiboslar bilan toʻldirib yuborish; bunda asosiy fikr koʻrinmay qoladi. Toʻgʻri yoʻl – hujjatni aniq rekvizitlari (sanasi, raqami, nomi) bilan qisqa koʻrsatish va uning qaysi qoidasi ishlanma mavzusiga bevosita aloqador ekanini bir-ikki gapda izohlash.

Masalan, quyidagi ifoda samarasiz: “Prezidentimiz taʼlim sohasiga katta eʼtibor bermoqdalar, bu borada koʻplab farmon va qarorlar qabul qilindi”. Uning oʻrniga shunday yozish maqsadga muvofiq: “«Oʻzbekiston – 2030» strategiyasida oʻquvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi koʻrsatkichlarini oshirish vazifasi qoʻyilgan [2]. PIRLS dasturida oʻqish savodxonligi matndan maʼlumot topish, xulosa chiqarish, talqin qilish va baholash

[27] Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining oʻquv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar.

[28] Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻqituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish toʻgʻrisida”gi 246-son buyrugʻi.

jarayonlari orqali o‘lchanadi. Mazkur qo‘llanmada 4-sinf o‘quvchilarida aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi taklif etiladi”. Bu yerda hujjat, undagi vazifa va ishlanma mazmuni o‘rtasida aniq mantiqiy zanjir ko‘rinadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, me’yoriy hujjatlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi: yangi buyruqlar qabul qilinadi, eski hujjatlar kuchini yo‘qotadi. Shu bois ishlanmada hujjatga havola berishdan oldin uning amaldagi tahririni lex.uz milliy bazasi yoki vazirlikning rasmiy sayti orqali tekshirish zarur[29]. Ommalashtirish tartibi, baholash mezonlari kabi tez-tez yangilanadigan ma’lumotlarni esa ommalashtirish.uz platformasi va Respublika ta’lim markazining rasmiy xabarlari orqali aniqlash lozim[30].

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Uslubiy ishlanma turlarini farqlash va o‘z ishlanmamiz uchun turni tanlash.

Maqsad: tinglovchilarda uslubiy ishlanma turlarini belgilariga ko‘ra farqlash, o‘z tajribasi uchun mos ishlanma turini asosli tanlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** guruhlarda ishlash. **Jihozlar:** tarqatma materiallar (turli ishlanmalardan parchalar), flipchart, markerlar, proyektor.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Mashg‘ulot rahbari “Siz oxirgi marta qachon o‘z tajribangiz haqida yozgansiz?” degan savol bilan suhbatni boshlaydi. Tinglovchilarning javoblari doskaga yoziladi va ularning tajribasi umumlashtiriladi.

2. Nazariy qism (15 daqiqa). Ishlanma turlari va ularning belgilari qisqa taqdimot orqali tushuntiriladi, paragrafdagi qiyosiy jadval namoyish etiladi.

3. Guruh ishi (30 daqiqa). Tinglovchilar 4–5 kishilik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga 6 ta parcha beriladi: tezisdan, maqoladan, uslubiy ko‘rsatmadan, uslubiy tavsiyadan, uslubiy

[29] https://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy sayti.

[30] https://ommalashtirish.uz – O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish platformasi.

qo‘llanmadan va dars ishlanmasidan. Guruh har bir parchaning turini aniqlaydi va qaysi belgilarga tayanganini yozadi. Shundan so‘ng har bir guruh a’zosi o‘z tajribasidan bitta g‘oyani tanlab, uning uchun qaysi ishlanma turi mosligini asoslaydi.

4. Taqdimot va muhokama (15 daqiqa). Guruhlar natijalarini taqdim etadi, boshqa guruhlar savol beradi va to‘ldiradi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). “3-2-1” usuli: uchta yangi bilgan narsa, ikkita savol, bitta amaliy qaror.

Kutilayotgan natija: har bir tinglovchi o‘z tajribasi uchun ishlanma turini asosli tanlaydi va uning ishchi nomini yozadi.

Baholash: turlarni to‘g‘ri aniqlash (har biri 1 ball, jami 6 ball), tanlovni asoslash (4 ball).

Nazorat savollari

1. Uslubiy ishlanma deganda nimani tushunasiz?
2. Uslubiy ishlanma darslikdan qanday farq qiladi?
3. Uslubiy ishlanmaning asosiy belgilarini sanab bering.
4. Vazifasi va hajmiga ko‘ra uslubiy ishlanmalarning qanday turlari mavjud?
5. Uslubiy tavsiya bilan uslubiy qo‘llanmaning hajmi bo‘yicha qanday talablar belgilangan?
6. Uslubiy ishlanma yaratish o‘qituvchi uchun qanday vazifalarni bajaradi?
7. Ona tili va adabiyot o‘qituvchisining uslubiy ishlanmasi qanday o‘ziga xosliklarga ega?
8. Uslubiy ishlanma yaratish jarayonining bosqichlarini ayting.
9. Me’yoriy hujjatlarni bilish ishlanma muallifiga qanday foyda beradi?
10. Me’yoriy hujjatlardan foydalanishda qanday xatolarga yo‘l qo‘yiladi va ularni qanday bartaraf etish mumkin?

Topshiriqlar

1. Paragrafdagi qiyosiy jadvalni “Afzalligi” va “Qiyinchiligi” ustunlari bilan to‘ldiring.

2. O‘z kasbiy faoliyatingizdan uslubiy ishlanma uchun asos bo‘la oladigan uchta muammoni yozing.

3. Oxirgi uch yilda siz foydalangan biror uslubiy qo‘llanmani tahlil qiling: uning qaysi belgilari paragrafda sanalgan belgilarga mos keladi?

4. Bitta ona tili darsingiz uchun ishlanma va bitta adabiyot darsingiz uchun ishlanma mavzusini shakllantiring.

5. Uslubiy ishlanma yaratish bosqichlarini blok-sxema shaklida chizing.

6. Metodik birlashmangizda keyingi o‘quv yilida tayyorlanishi mumkin bo‘lgan jamoaviy ishlanma mavzusini taklif eting va asoslang.

7. “Hujjat – qoida – ishlanma” jadvalini o‘z ishlanma mavzungiz uchun to‘ldiring.

8. O‘zingiz dars beradigan sinflardan biri uchun amaldagi ona tili yoki adabiyot o‘quv dasturidagi kutiladigan natijalardan uchtasini yozing va ularning har biri uchun bittadan ishlanma mavzusini taklif eting.

9. Paragrafda keltirilgan “samarasiz” kirish namunasini o‘z mavzungiz asosida “samarali” shaklga keltirib qayta yozing.

10. Ishlanmangizda foydalanadigan me’yoriy hujjatlar ro‘yxatini tuzing va har birining amaldagi tahririni tekshirganingizni qayd eting.

Test topshiriqlari

1. Uslubiy ishlanma, asosan, qaysi savolga javob beradi?
   A) Nimani o‘qitish kerak?
   B) Qanday o‘qitish kerak?
   C) Kim o‘qitishi kerak?
   D) Qachon o‘qitish kerak?

2. Ommalashtirish talablariga ko‘ra uslubiy qo‘llanmaning eng kam hajmi qancha?
   A) 10 bet
   B) 16 bet
   C) 24 bet
   D) 50 bet

3. Ommalashtirish talablariga koʻra uslubiy tavsiyaning eng kam hajmi qancha?

A) 10 bet
B) 5 bet
C) 24 bet
D) 30 bet

4. Gʻoyaning asosiy holatlarini qisqa bayon qiluvchi, odatda 1–3 betlik matn qanday ataladi?

A) Uslubiy tavsiya
B) Maqola
C) Koʻrsatma
D) Tezis

5. Muayyan ishni bajarish tartibini qisqa va aniq koʻrsatuvchi hujjat qaysi?

A) Uslubiy qoʻllanma
B) Uslubiy koʻrsatma
C) Monografiya
D) Tezis

6. Quyidagilardan qaysi biri uslubiy ishlanmaning majburiy belgisi emas?

A) Amaliy yoʻnaltirilganlik
B) Tizimlilik
C) Asoslanganlik
D) Rangli bezatilganlik

7. Uslubiy ishlanma yaratish jarayonida koʻpincha e’tibordan chetda qoladigan, ammo ishonchlilikni ta’minlovchi bosqich qaysi?

A) Mavzu tanlash
B) Rasmiylashtirish
C) Amalda sinash
D) Taqdim etish

8. “Ta’lim toʻgʻrisida”gi amaldagi Qonun qachon qabul qilingan?

A) 1997-yil 29-avgust
B) 2017-yil 7-fevral
C) 2020-yil 23-sentabr
D) 2023-yil 11-sentabr

9. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qaysi hujjat bilan tasdiqlangan?

A) PF-158-son Farmon
B) PQ-231-son qaror
C) 32-son buyruq
D) 246-son buyruq

10. Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid qaror qaysi?

A) PF-79
B) PQ-231
C) PF-158
D) O‘RQ-637

1.2-§. O‘qituvchining ilmiy-metodik kompetentligi va o‘zbek metodika merosi

Kompetentlik tushunchasi. Zamonaviy pedagogikada o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi “kompetentlik” tushunchasi orqali ifodalanadi. Kompetentlik – shaxsning muayyan faoliyat sohasida bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlarga tayanib, amaliy masalalarni mustaqil va mas’uliyat bilan hal eta olish qobiliyatidir. N.Muslimov va hammualliflari pedagogik kompetentlikni kasbiy bilimdonlik, metodik mahorat, kommunikativ madaniyat, kreativlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatining yaxlit birligi sifatida tavsiflaydilar[31]. Olimlar ta’kidlashicha, kompetentlik bir martada shakllanib qolmaydi: u o‘qituvchining butun kasbiy faoliyati davomida tajriba, tahlil va yangilanish orqali rivojlanib boradi.

Pedagogik kompetentlik tarkibida quyidagi asosiy komponentlar ajratiladi: maxsus (fan bo‘yicha) kompetentlik; psixologik-pedagogik kompetentlik; metodik kompetentlik; axborot-kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik; ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligi. Uslubiy ishlanma yaratish bu komponentlarning deyarli barchasini talab qiladi, ammo ularning ichida ilmiy-metodik kompetentlik markaziy o‘rin tutadi.

Ilmiy-metodik kompetentlik mazmuni. Ilmiy-metodik kompetentlik deganda o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, muammoni aniqlash, uni hal etish yo‘llarini izlash, natijalarni baholash va ularni yozma shaklda boshqalarga yetkaza olish qobiliyati tushuniladi. Bu kompetentlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

muammoni ko‘ra bilish – o‘quv jarayonidagi qiyinchilik va ziddiyatlarni payqash, ularni aniq ifodalay olish;

nazariy bilimlarga tayanish – muammo bo‘yicha pedagogik, psixologik va metodik nazariyalardan xabardorlik;

[31] Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.

tadqiqot metodlarini qo‘llash – kuzatish, so‘rovnoma, test, tajriba-sinov, hujjatlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalana olish;

natijalarni tahlil qilish – olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, qiyoslash, xulosa chiqarish;

ilmiy yozish madaniyati – fikrni ilmiy uslubda, mantiqiy, aniq va savodli bayon qilish, manbalarga to‘g‘ri havola berish;

refleksiya – o‘z faoliyatini tanqidiy baholash va takomillashtirish.

R.Ishmuhamedov va hammualliflari innovatsion faoliyatga tayyor o‘qituvchining asosiy belgisi sifatida yangilikni qabul qilish, uni o‘z sharoitiga moslashtirish va o‘zi ham yangilik yaratishga intilishni ko‘rsatadilar[32]. Bu fikr ilmiy-metodik kompetentlikning mohiyatini yaxshi ochib beradi: o‘qituvchi faqat tayyor metodlarning iste’molchisi emas, balki o‘zi ham metodik yangilik yaratuvchisi bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi-tadqiqotchi konsepsiyasi. Jahon pedagogikasida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab “o‘qituvchi-tadqiqotchi” (teacher as researcher) g‘oyasi keng tarqaldi. Bu g‘oyaga ko‘ra pedagogik tadqiqot faqat olimlarning ishi emas; sinf xonasidagi o‘qituvchi ham o‘z amaliyotini muntazam o‘rganib, uni takomillashtirib boradi. Bunday tadqiqot “harakatdagi tadqiqot” (action research) deb ataladi va quyidagi sikl asosida kechadi: rejalashtirish – harakat – kuzatish – refleksiya – qayta rejalashtirish. D.Kolbning tajribaviy o‘qitish modeli ham shunga yaqin: aniq tajriba, refleksiv kuzatish, mavhum tushunchalar hosil qilish va faol tajriba bosqichlari doimiy aylanma harakatni tashkil etadi[33].

Harakatdagi tadqiqotning ona tili o‘qituvchisi faoliyatidagi namunasini ko‘rib chiqaylik. O‘qituvchi 7-sinf o‘quvchilarining insholarida qo‘shma gaplardagi tinish belgilari xatolari ko‘pligini payqadi (muammo). U bu xatolarni turlarga ajratib, ularning

---

[32] Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 278 b.

[33] Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.

sabablarini tahlil qildi (kuzatish). So‘ngra har bir darsning 7–8 daqiqasini “Tinish belgisi ustaxonasi” mashqiga ajratishni rejalashtirdi (rejalashtirish). Olti hafta davomida mashqni qo‘lladi (harakat), har ikki haftada qisqa nazorat yozma ishlari o‘tkazib, xatolar sonini qayd etdi (kuzatish). Natijalarni tahlil qilib, ayrim mashq turlarini o‘zgartirdi (refleksiya va qayta rejalashtirish). Bunday sikl yakunida o‘qituvchining qo‘lida uslubiy tavsiya yoki maqola uchun tayyor material – muammo, yechim, dalillangan natija – hosil bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqot metodlari. O‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin[34]:

Pedagogik kuzatish – dars jarayonida o‘quvchilar faoliyatini oldindan belgilangan reja va mezonlar asosida kuzatish va qayd etish. Kuzatish varaqasi tuzish uning samaradorligini oshiradi.

Suhbat va intervyu – o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan oldindan tayyorlangan savollar asosida o‘tkaziladi.

So‘rovnoma (anketa) – ko‘p sonli respondentlardan bir vaqtda ma’lumot to‘plash imkonini beradi. Savollar ochiq (erkin javob) yoki yopiq (tanlov) shaklda bo‘ladi.

Test va nazorat ishlari – o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini o‘lchash vositasi. Tajriba-sinov ishlarida boshlang‘ich va yakuniy test natijalari qiyoslanadi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarini tahlil qilish – insho, bayon, ijodiy yozma ishlar, loyihalarni mezonlar asosida tahlil qilish ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uchun ayniqsa qimmatli manba hisoblanadi.

Pedagogik tajriba-sinov – yangi usulning samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkaziladigan maxsus tashkil etilgan tadqiqot.

Hujjatlarni tahlil qilish – sinf jurnali, o‘quvchilar baholari, dars ishlanmalari, monitoring natijalarini o‘rganish.

Matematik-statistik usullar – o‘rtacha ko‘rsatkich, foiz, o‘sish dinamikasi kabi oddiy hisob-kitoblar natijalarning ishonchliligini oshiradi.

---

[34] Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования. – Москва: Академия, 2001. – 208 с. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

Ilmiy-metodik kompetentlik darajalari. O‘qituvchining ilmiy-metodik kompetentligini shartli ravishda to‘rt darajaga ajratish mumkin. Bunday tasnif o‘qituvchiga o‘z holatini baholash va rivojlanish yo‘lini belgilashga yordam beradi.

Daraja	Tavsifi	Xos ishlanma turi
Boshlang‘ich	Tayyor metodlardan foydalanadi, o‘z tajribasini og‘zaki baham ko‘radi	Dars ishlanmasi
Asosiy	Muammoni ko‘radi, mavjud metodlarni moslashtiradi, tajribasini qisqa yozma shaklda bayon eta oladi	Tezis, uslubiy ko‘rsatma
Ilg‘or	Muammoni tadqiq qiladi, natijalarni dalillaydi, yangi yechim taklif etadi	Maqola, uslubiy tavsiya
Ekspert	Tizimli metodik tizim yaratadi, boshqalarni o‘qitadi, ishlanmalarga taqriz beradi	Uslubiy qo‘llanma, taqriz

O‘qituvchilarning malaka toifalari ham ma’lum darajada shu darajalarga mos keladi: mutaxassis va ikkinchi toifali o‘qituvchidan boshlang‘ich va asosiy darajadagi ko‘nikmalar, birinchi va oliy toifali o‘qituvchidan esa ilg‘or va ekspert darajasidagi ko‘nikmalar kutiladi.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisining ilmiy-metodik kompetentligi o‘ziga xosliklari. Bu fan o‘qituvchisi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Tilshunoslikdagi yangi yondashuvlar (matn lingvistikasi, pragmatika, kognitiv tilshunoslik) va adabiyotshunoslikdagi yangi talqinlar (retseptiv estetika, qiyosiy adabiyotshunoslik, intertekstuallik) metodik g‘oyalar uchun manba bo‘ladi. Masalan, adabiy ta’sir va o‘zaro aloqalar masalasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar adabiyot darslarida yozuvchilar ijodini qiyosiy o‘rganish metodikasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin[35]. Shuningdek, D.Quronov va hammualliflarining “Adabiyotshunoslik

[35] Saidova R.M. Adabiy ta’sir muammolari tadqiqi (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod ijodi misolida): monografiya. – Toshkent, 2026. – 106 b.

lug‘ati” kabi ma’lumotnomalar o‘qituvchining ishlanmada atamalarni to‘g‘ri qo‘llashiga yordam beradi[36].

Ikkinchidan, ona tili o‘qituvchisi nutq madaniyati va ilmiy uslub me’yorlarini namunali egallagan bo‘lishi kerak. Uning ishlanmasi o‘zi o‘qitadigan imlo va tinish belgilari qoidalariga, adabiy til me’yorlariga to‘liq mos bo‘lishi shart. Uchinchidan, adabiyot o‘qituvchisi badiiy matnni tahlil qilishning turli usullarini bilishi, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini o‘rganish uchun maxsus diagnostika vositalari (o‘qish so‘rovnomasi, kitobxonlik kundaligi, asarga munosabat anketasi) tuza olishi lozim.

Tarixiy tajribaga murojaatning ahamiyati. Har qanday yangi uslubiy ishlanma o‘zidan oldingi metodik tajribaga tayanadi. O‘qituvchi o‘z g‘oyasini ilgari surishdan oldin bu sohada nimalar qilinganini bilishi kerak. Aks holda, u ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan usulni “yangilik” sifatida taqdim etib qo‘yishi yoki aksincha, sinalgan va samarali metodik an’anani e’tiborsiz qoldirishi mumkin. Ommalashtirish mezonlarida ishning yangiligi alohida baholanadi[37]; yangilikni esa faqat avvalgi tajriba bilan qiyoslash orqali asoslash mumkin. Shu sababli ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasining rivojlanish tarixini bilish ishlanma muallifi uchun zarur shartdir.

O‘zbek ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: an’anaviy maktab davri; jadid maktablari davri; XX asrning 20–80-yillari; mustaqillik yillari; zamonaviy islohotlar davri.

Jadid maktablari davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Jadidchilik harakati o‘zbek metodikasi tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Jadidlar “usuli savtiya” (tovush usuli) asosida savod o‘rgatishni joriy etdilar: harflarni yodlash o‘rniga tovush va harfning munosabati asosida o‘qishni o‘rgatish. Bu usul savod chiqarish muddatini bir necha yildan bir necha oyga qisqartirdi. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” (1902), Munavvar qorining “Adibi avval” va “Adibi soniy”, Abdulla Avloniyning

[36] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.

[37] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

“Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklari yangi usul maktablari uchun yaratildi[38].

Jadidlar darslik bilan birga muallim uchun metodik koʻrsatmalar ham yozganlar. Ular oʻqituvchining shaxsiy namunasi, oʻquvchi bilan muomala madaniyati, darsni qiziqarli tashkil etish masalalariga katta e’tibor berganlar. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan mashhur fikrni bildirgan. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” (1926) asari oʻzbek tilidagi dastlabki nazariy-adabiy qoʻllanmalardan biri boʻlib, unda adabiy tur va janrlar, she’r tuzilishi, badiiy san’atlar maktab oʻquvchisi va muallim uchun tushunarli tarzda bayon etilgan[39]. Fitratning “Sarf” va “Nahv” darsliklari esa oʻzbek tili grammatikasini oʻqitishda tizimli yondashuvning ilk namunasi boʻlgan.

Jadid ma’rifatparvarlarining metodik merosidan bugungi ishlanma muallifi uchun muhim xulosa chiqadi: yaxshi metodik asar mazmunan aniq, tushunarli, oʻquvchining yoshi va qiziqishiga mos boʻladi hamda amaliy mashq va namunalar bilan boyitiladi.

Mustaqillik yillari (1991–2016). Mustaqillik metodika fanining mazmuni va yoʻnalishini tubdan yangiladi. Maktab dasturlariga jadid adabiyoti, mumtoz adabiyot, milliy qadriyatlarni ifodalovchi asarlar qaytarildi. 1993-yildan lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosiga oʻtilishi ona tili oʻqitish metodikasi oldiga yangi vazifalar qoʻydi.

Bu davrda adabiyot oʻqitish metodikasining nazariy asoslarini rivojlantirishda Q.Yoʻldoshevning xizmatlari katta. Olimning “Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari” (1996) monografiyasida adabiy ta’limni oʻquvchi shaxsini rivojlantirishga yoʻnaltirish, badiiy asarni soʻz san’ati sifatida oʻrganish, oʻquvchini mustaqil fikrlovchi kitobxon sifatida tarbiyalash gʻoyalari ilgari surildi[40]. B.Toʻxliyevning “Adabiyot oʻqitish metodikasi” darsligida esa adabiyot darslarini tashkil etishning zamonaviy shakllari, oʻquvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritildi[41].

[38] Hoshimov K., Ochil S. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi.
[39] Fitrat A. Adabiyot qoidalari.
[40] Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari.
[41] Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

Ona tili o‘qitish metodikasi sohasida K.Qosimova, S.Matjonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyevlar tomonidan boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha darslik yaratildi; unda savod o‘rgatish, o‘qish va nutq o‘stirish, grammatika va imloni o‘rgatish metodikasi zamonaviy talablar asosida bayon etildi[42]. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, R.Ikromovalarning “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida esa o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish, ona tili darslarida muammoli ta’lim, mustaqil ish va nazorat turlari masalalari ko‘rib chiqildi[43].

Shu yillarda pedagogik texnologiyalar nazariyasi ham faol rivojlandi. N.Saidahmedov, J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov, N.Azizxo‘jayeva, O’.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.Ishmuhamedov kabi olimlar pedagogik texnologiyaning mohiyati, interfaol metodlar va ularni qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqdilar[44]. Bu ishlar ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining interfaol metodlarni amaliyotga joriy etishiga keng yo‘l ochdi.

Zamonaviy islohotlar davri (2017-yildan hozirgacha). So‘nggi yillarda ta’lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish konsepsiyasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib yangilandi, yangi avlod darsliklari yaratildi, o‘quvchilarning funksional savodxonligi va o‘qish savodxonligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekistonning PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi metodika oldiga yangi talablarni qo‘ydi: endilikda o‘quvchining faqat bilimi emas, balki matnni tushunish, undan

---

[42] Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

[43] G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Ikromova R. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

[44] Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b. Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.

ma’lumot olish, talqin qilish va baholash ko‘nikmalari muhim ko‘rsatkichga aylandi[45].

Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovaning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” (2020) o‘quv qo‘llanmasida adabiy ta’limning zamonaviy konsepsiyasi, adabiyot darslarida interfaol usullar, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalalari keng yoritilgan[46]. Malaka oshirish tizimida ham yangi yondashuvlar joriy etildi: kredit-modul tizimi, uzluksiz kasbiy rivojlanish, ilg‘or tajribani ommalashtirishning elektron tizimi shakllandi[47].

Quyidagi jadvalda bosqichlarning asosiy xususiyatlari umumlashtirilgan.

Bosqich	**Asosiy metodik g‘oya**	**Namoyandalar va manbalar**
An’anaviy maktab	Yodlash, matnni takrorlash, xattotlik	Mumtoz adiblar pedagogik qarashlari
Jadid maktablari	Tovush usuli, ona tilida darslik, muallim uchun yo‘riqnoma	S.Saidazizov, Munavvar qori, A.Avloniy, Fitrat
XX asr 20–80-yillari	Metodika – mustaqil fan, tahlil va nutq o‘stirish tizimi	A.Zunnunov, N.Hotamov va boshq.
Mustaqillik yillari	Milliy mazmun, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik texnologiya	Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliyev, K.Qosimova, A.G‘ulomov
Zamonaviy islohotlar	Kompetensiyaviy yondashuv, funksional savodxonlik, xalqaro baholash	Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova va boshq.

[45] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) PIRLS 2021 Assessment Frameworks.

[46] Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma.

[47] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-son buyrug‘i.

Metodik merosdan ishlanmada foydalanish. Tarixiy-metodik merosga murojaat ishlanmaning ilmiy saviyasini oshiradi. Bunda quyidagi yo‘llardan foydalanish mumkin.

Birinchidan, mavzuning o‘rganilganlik darajasini ko‘rsatishda. Ishlanmaning kirish qismida muammo bo‘yicha avvalgi tadqiqotchilarning qarashlari qisqa sharhlanadi. Masalan, “badiiy asar tahlili” mavzusidagi ishlanmada Fitratning adabiy-nazariy qarashlari, A.Zunnunov va Q.Yo‘ldoshevning tahlil usullari haqidagi fikrlari, zamonaviy interfaol tahlil usullari qisqacha qiyoslanadi.

Ikkinchidan, an’anaviy usulni yangi sharoitga moslashtirishda. Masalan, mumtoz adabiyotdagi baytni sharhlash an’anasi zamonaviy “yaqindan o‘qish” (close reading) strategiyasi bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin; jadidlarning “tovush usuli” g‘oyasi bugungi fonematik mashqlarda davom ettiriladi.

Uchinchidan, tarixiy manbalarning o‘zini o‘quv materiali sifatida qo‘llashda. Masalan, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan parchalar asosida yuqori sinflarda matn tahlili va munozara darslari tashkil etilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, tarixiy sharh ishlanmaning asosiy qismini egallamasligi kerak. Uslubiy tavsiyada u bir-ikki xatboshidan, uslubiy qo‘llanmada esa bir-ikki sahifadan oshmagani ma’qul. Asosiy e’tibor taklif etilayotgan yangi yechimga qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: O‘z amaliyotimizda harakatdagi tadqiqotni rejalashtirish.

Maqsad: tinglovchilarda o‘z pedagogik faoliyatidagi muammoni aniqlash, uni o‘rganish uchun tadqiqot metodlarini tanlash va kichik tadqiqot rejasini tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** yakka, juftlik va guruh ishi. **Jihozlar:** “Harakatdagi tadqiqot rejasi” shabloni, o‘z-o‘zini baholash varaqasi, flipchart.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Tinglovchilar o‘z-o‘zini baholash varaqasini to‘ldiradi: paragrafdagi to‘rt daraja bo‘yicha o‘zini qaysi darajada ko‘rishini belgilaydi va bir gap bilan asoslaydi.

2. Nazariy qism (15 daqiqa). Harakatdagi tadqiqot sikli va pedagogik tadqiqot metodlari tushuntiriladi. Paragrafdagi tinish belgilari bo‘yicha misol tahlil qilinadi.

3. Yakka ish (20 daqiqa). Har bir tinglovchi “Harakatdagi tadqiqot rejasi” shablonini to‘ldiradi: muammo; uni tasdiqlovchi dastlabki dalillar; taxminiy yechim; qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari; muddat; kutilayotgan natija va uni o‘lchash usuli.

4. Juftlikda “tanqidiy do‘st” (20 daqiqa). Tinglovchilar rejalarini almashadi va hamkasbiga “Muammo aniq ifodalanganmi?”, “Natijani o‘lchash usuli ishonchlimi?”, “Reja amalda bajarilishi mumkinmi?” degan savollar asosida ikkita kuchli tomon va bitta takomillashtirish taklifini yozadi.

5. Umumlashtirish va refleksiya (15 daqiqa). Ikki-uch tinglovchi rejasini taqdim etadi. Mashg‘ulot “Bir so‘z bilan” usulida yakunlanadi: har kim mashg‘ulotdan olgan taassurotini bir so‘z bilan ifodalaydi.

Kutilayotgan natija: har bir tinglovchida bir chorakka mo‘ljallangan kichik tadqiqot rejasi bo‘ladi; bu reja keyinchalik maqola yoki uslubiy tavsiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Baholash: rejaning to‘liqligi (4 ball), metodlarning muammoga mosligi (3 ball), hamkasbga berilgan izohlarning asosliligi (3 ball).

Nazorat savollari

1. Kompetentlik tushunchasini ta’riflang.
2. Ilmiy-metodik kompetentlik deganda nima tushuniladi?
3. “O‘qituvchi-tadqiqotchi” g‘oyasining mohiyati nimada?
4. Harakatdagi tadqiqot qanday bosqichlardan iborat?
5. O‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘rganishda qaysi tadqiqot metodlaridan foydalanishi mumkin?
6. Ilmiy-metodik kompetentlikning qanday darajalari ajratiladi?

7. Ishlanma muallifi uchun metodika tarixini bilish nima uchun zarur?

8. “Usuli savtiya”ning mohiyati nimada?

9. Mustaqillik yillarida adabiyot o‘qitish metodikasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan olimlarni ayting.

10. Metodik merosdan ishlanmada foydalanishning qanday yo‘llari bor?

Topshiriqlar

1. Paragrafdagi kompetentlik darajalari jadvali asosida o‘zingizni baholang va keyingi darajaga o‘tish uchun uchta aniq qadamni yozing.

2. Ona tili darsi uchun 10 bandli kuzatish varaqasini tuzing (masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutq faolligini kuzatish uchun).

3. Adabiyot darsi bo‘yicha o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan 10 savolli so‘rovnoma tuzing.

4. Harakatdagi tadqiqot siklini ona tili o‘qitishdagi o‘zingiz tanlagan muammo misolida sxema shaklida tasvirlang.

5. Bir hamkasbingiz darsini kuzatib, uning darsidagi bitta samarali usulni tavsiflang va uni ishlanmada qanday bayon etish mumkinligini yozing.

6. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan bir bobni o‘qib, unda ifodalangan pedagogik g‘oyani bugungi ona tili yoki adabiyot darsi bilan bog‘lab izohlang.

7. Fitratning “Adabiyot qoidalari” asaridagi badiiy san’atlar ta’rifini zamonaviy darslikdagi ta’rif bilan qiyoslang.

8. Q.Yo‘ldoshevning adabiy ta’lim haqidagi asosiy g‘oyalarini 8–10 gapda bayon qiling.

9. O‘z ishlanma mavzungiz bo‘yicha avval yaratilgan kamida uchta manbani topib, ularning qisqacha sharhini yozing.

10. Mumtoz adabiyotdagi baytni sharhlash an’anasidan foydalangan holda 9-sinf adabiyot darsi uchun topshiriq tuzing.

Test topshiriqlari

1. Shaxsning muayyan faoliyat sohasida bilim, koʻnikma va qadriyatlarga tayanib amaliy masalalarni mustaqil hal eta olish qobiliyati qanday ataladi?

A) Malaka
B) Kompetentlik
C) Iqtidor
D) Bilimdonlik

2. Harakatdagi tadqiqot siklining toʻgʻri ketma-ketligini koʻrsating.

A) Rejalashtirish – harakat – kuzatish – refleksiya
B) Kuzatish – xulosa – rejalashtirish – nashr
C) Refleksiya – harakat – rejalashtirish – nashr
D) Harakat – rejalashtirish – kuzatish – nashr

3. Tajribaviy oʻqitish modeli muallifi kim?

A) B.Blum
B) J.Svels
C) D.Kolb
D) V.Bespalko

4. Koʻp sonli respondentlardan bir vaqtda ma’lumot toʻplash imkonini beruvchi metod qaysi?

A) Suhbat
B) Kuzatish
C) Hujjatlarni tahlil qilish
D) Soʻrovnoma

5. Yangi usulning samaradorligini tajriba va nazorat guruhlarida tekshirish qanday metod hisoblanadi?

A) Pedagogik kuzatish
B) Pedagogik tajriba-sinov
C) Intervyu
D) Kontent-tahlil

6. Kompetentlik darajalari tasnifida “Muammoni tadqiq qiladi, natijalarni dalillaydi, yangi yechim taklif etadi” tavsifi qaysi darajaga tegishli?

A) Boshlangʻich
B) Asosiy

C) Ilg‘or
D) Ekspert

7. “Usuli savtiya” qanday usul?
A) Tovush asosida savod o‘rgatish usuli
B) Harflarni yodlash usuli
C) Xattotlik usuli
D) Matnni takrorlash usuli

8. “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarini kim yaratgan?
A) Fitrat
B) Abdulla Avloniy
C) Cho‘lpon
D) Hamza

9. “Adabiyot qoidalari” asari qachon nashr etilgan?
A) 1902-yil
B) 1913-yil
C) 1936-yil
D) 1926-yil

10. “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari” monografiyasining muallifi kim?
A) Q.Yo‘ldoshev
B) B.To‘xliyev
C) A.Zunnunov
D) N.Hotamov

1.3-§. Uslubiy ishlanmaga qo‘yiladigan talablar: mavzu, dolzarblik va yangilikni asoslash

Talablarning umumiy tizimi. Uslubiy ishlanma o‘quv jarayoniga xizmat qiluvchi material bo‘lgani uchun unga, avvalo, didaktik talablar qo‘yiladi. Didaktika – ta’lim nazariyasi – o‘qitishning maqsad, mazmun, prinsip, metod, vosita va shakllarini o‘rganadi[48]. Ishlanma qanchalik yaxshi yozilgan bo‘lmasin, agar u didaktik prinsiplarga zid bo‘lsa, amalda samara bermaydi. Didaktik talablar bilan bir qatorda ishlanmaga metodik talablar (fan o‘qitish metodikasining o‘ziga xos talablari) va rasmiy talablar (tuzilma, hajm, rasmiylashtirish) ham qo‘yiladi. Ushbu paragrafda birinchi ikki guruh talablar ko‘rib chiqiladi; rasmiy-texnik talablar 2.2-§ da yoritiladi.

Didaktik prinsiplar va ularning ishlanmada aks etishi. Pedagogikada o‘qitishning quyidagi asosiy prinsiplari e’tirof etilgan: ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ko‘rgazmalilik, onglilik va faollik, tushunarlilik (yoshga moslik), nazariya va amaliyot birligi, bilimlarning mustahkamligi, individual yondashuv, tarbiyaviylik. Uslubiy ishlanma muallifi bu prinsiplarning har biri ishlanmada qanday aks etayotganini nazorat qilishi kerak.

Ilmiylik prinsipi ishlanmadagi barcha ma’lumotlar fan yutuqlariga mos, isbotlangan va aniq bo‘lishini talab qiladi. Ona tili bo‘yicha ishlanmada grammatik atamalar va qoidalar amaldagi darslik va akademik grammatikaga mos kelishi, adabiyot bo‘yicha ishlanmada esa yozuvchi biografiyasi, asarlar nomi va yozilgan yili, adabiy atamalar to‘g‘ri berilishi lozim. Masalan, “kesim” va “ega”ni, “ritorik so‘roq” va “ritorik murojaat”ni chalkashtirish ishlanmaning ilmiy qimmatini keskin pasaytiradi.

Tizimlilik va izchillik prinsipi materiallarning mantiqiy tartibda – oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga, aniqdan mavhumga qarab – joylashtirilishini taqozo etadi. Ommalashtirish mezonlarida materialning ketma-ketligi va tizimliligi alohida baholanadi[49]. Masalan, uyushiq bo‘laklarni o‘rgatishga oid

[48] Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 512 b. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.

[49] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

topshiriqlar tizimida avval uyushiq boʻlaklarni topish, keyin ularning turini aniqlash, soʻngra tinish belgilarini qoʻyish, nihoyat, uyushiq boʻlakli gaplar tuzish topshiriqlari berilishi izchillikka mos keladi.

Koʻrgazmalilik prinsipi ishlanmada jadval, sxema, rasm, diagramma, klaster kabi vizual vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Mezonlarda ham “Qanday oʻqitish kerak?” savoli topshiriq namunalari, sxema va jadvallar bilan izohlanishi talab etiladi[50]. Biroq koʻrgazmali vosita bezak boʻlmasligi, balki mazmunni ochishga xizmat qilishi kerak.

Onglilik va faollik prinsipi oʻquvchini bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni faol izlovchi subyekt sifatida koʻrishni talab qiladi. Shuning uchun ishlanmadagi topshiriqlar oʻquvchini fikrlashga, solishtirishga, xulosa chiqarishga undashi lozim.

Tushunarlilik (yoshga moslik) prinsipiga koʻra material oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos boʻlishi shart. Ommalashtirish mezonlarida bu talab uchun alohida ball ajratilgan[51]. Masalan, 5-sinf oʻquvchisi uchun moʻljallangan topshiriqda abstrakt nazariy tushunchalar emas, aniq misol va oʻyin elementlari ustun boʻladi; 10–11-sinf oʻquvchisi uchun esa tahliliy, munozarali va tadqiqot xarakteridagi topshiriqlar mos keladi.

Nazariya va amaliyot birligi prinsipi ishlanmada nazariy qoidalar albatta amaliy mashq va topshiriqlar bilan mustahkamlanishini talab qiladi. Ona tili oʻqitishda bu prinsip “qoida – misol – mashq – nutqda qoʻllash” zanjiri orqali amalga oshadi.

Tarbiyaviylik prinsipi ona tili va adabiyot fanida alohida ahamiyatga ega. Mashqlar uchun tanlangan gaplar va matnlar mazmunan tarbiyaviy, oʻquvchining ma’naviy dunyosini boyituvchi boʻlishi kerak. Masalan, uyushiq boʻlaklarga oid mashq uchun tasodifiy gaplar oʻrniga Vatan, tabiat, mehnat, doʻstlik haqidagi badiiy parchalardan foydalanish ham ta’limiy, ham tarbiyaviy maqsadga xizmat qiladi.

---

[50] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[51] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

O‘quv maqsadlarini aniq belgilash talabi. Har qanday uslubiy ishlanma, ayniqsa dars ishlanmasi va qo‘llanmalar uchun eng muhim talablardan biri – o‘quv maqsadlarini aniq, o‘lchanadigan shaklda ifodalashdir. Bu borada B.Blum taksonomiyasi va uning L.Anderson va D.Krathvol tomonidan qayta ishlangan varianti keng qo‘llaniladi[52]. Qayta ishlangan taksonomiyada kognitiv jarayonlarning olti darajasi ajratiladi: eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish.

Daraja	**Maqsadni ifodalovchi fe’llar**	**Ona tili va adabiyotdan misol**
Eslash	aytadi, sanaydi, topadi	So‘z turkumlarini sanaydi
Tushunish	izohlaydi, o‘z so‘zi bilan aytadi	Maqolning ma’nosini izohlaydi
Qo‘llash	qo‘llaydi, tuzadi, bajaradi	Qoida asosida tinish belgisini qo‘yadi
Tahlil qilish	qiyoslaydi, ajratadi, tasniflaydi	Ikki qahramon xarakterini qiyoslaydi
Baholash	asoslaydi, baho beradi, tanqid qiladi	Qahramon xatti-harakatiga munosabat bildiradi
Yaratish	yozadi, loyihalaydi, ixtiro qiladi	Asar davomini yoki muqobil yakunini yozadi

Maqsadlarni ifodalashda “o‘quvchilarga … haqida tushuncha berish” kabi umumiy iboralardan ko‘ra, natijani ko‘rsatuvchi aniq iboralar afzal: “dars yakunida o‘quvchi qo‘shma gapning turlarini farqlaydi va har bir turga ikkitadan misol tuzadi”. V.Bespalko ta’kidlaganidek, maqsad diagnostik bo‘lishi, ya’ni unga erishilgan-erishilmaganini aniq tekshirish mumkin bo‘lishi kerak[53]. J.Yo‘ldoshev va S.Usmonov ham pedagogik texnologiyaning asosiy belgisi sifatida maqsadning aniq va kafolatlangan natijaga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadilar[54].

---

[52] Bloom B.S. (ed.) Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.

[53] Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

[54] Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.

Metodik talablar. Ona tili va adabiyot boʻyicha uslubiy ishlanmaga qoʻyiladigan oʻziga xos metodik talablar quyidagilardan iborat:

kommunikativ yoʻnalganlik – til hodisalari nutq jarayonida, matn ichida oʻrganilishi, oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak[55];

matn markaziyligi – ona tili va adabiyot darslarida matn asosiy oʻquv birligi sifatida qaraladi; topshiriqlar matnni tushunish, tahlil qilish va yaratishga yoʻnaltiriladi;

badiiy asarning estetik tabiatini hisobga olish – adabiyot darsida asar faqat mazmun yoki gʻoya jihatidan emas, soʻz sanʼati sifatida ham oʻrganiladi[56];

oʻquvchining shaxsiy munosabatini ragʻbatlantirish – adabiyot darsida “toʻgʻri javob”dan koʻra asoslangan shaxsiy talqin qadrlanadi[57];

savodxonlik va nutq madaniyatiga eʼtibor – barcha topshiriq va namunalar adabiy til meʼyorlariga toʻliq mos boʻlishi lozim;

fanlararo integratsiya – tarix, tasviriy sanʼat, musiqa, informatika bilan bogʻlanish imkoniyatlaridan foydalanish[58];

baholash tartibining aniqligi – har bir topshiriq uchun baholash mezonlari yoki rubrikasi koʻrsatilishi.

XXI asr koʻnikmalari va raqamli kompetensiyalar. Zamonaviy ishlanmalarga qoʻyiladigan yangi talablardan biri – oʻquvchilarda “4K” koʻnikmalarini (kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya – hamkorlik) rivojlantirishga xizmat qilishdir. Mezonlarda ushbu koʻnikmalarni rivojlantirish uchun 4 ball, AKT va media vositalardan foydalanish hamda tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish uchun alohida ballar belgilangan[59]. Masalan, adabiyot darsida guruhlarda asar qahramoni haqida “buklet” tayyorlash (kreativlik va hamkorlik), muallif pozitsiyasi haqida munozara (tanqidiy fikrlash va kommunikatsiya), onlayn lugʻatlardan foydalanib eskirgan soʻzlar

[55] Gʻulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Ikromova R. Ona tili oʻqitish metodikasi.
[56] Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari.
[57] Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikasi: oʻquv qoʻllanma.
[58] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.
[59] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

izohini topish (AKT va tadqiqotchilik) – bu koʻnikmalarni uygʻun rivojlantiradi.

Mavzu manbalari. Ishlanma mavzusi tasodifan emas, balki oʻqituvchining kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Mavzuning asosiy manbalari quyidagilardir.

Oʻquvchilar natijalari tahlili. Nazorat ishlari, diktant, insho, test natijalari, monitoring va xalqaro baholash natijalari oʻquvchilarning qaysi bilim va koʻnikmalarida boʻshliq borligini koʻrsatadi. Masalan, diktantlarda qoʻshib va ajratib yoziladigan soʻzlarda xatolar koʻp boʻlsa, “Qoʻshma soʻzlar imlosini oʻrgatishda vizual tayanch sxemalardan foydalanish” mavzusi paydo boʻladi.

Dars kuzatuvlari va refleksiya. Oʻqituvchi oʻz darsida yoki hamkasbi darsida biror usulning ayniqsa samarali yoki samarasiz ekanini payqaydi. Kasbiy rivojlanish soatlarida oʻtkaziladigan dars kuzatish va refleksiv amaliyot bunday kuzatuvlar uchun muntazam imkon beradi[60].

Oʻquv dasturi va darsliklardagi yangiliklar. Dasturga kiritilgan yangi mavzular, yangi avlod darsliklaridagi topshiriq turlari metodik ta’minotni talab qiladi.

Me’yoriy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar. Oʻqish savodxonligini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, raqamli ta’lim resurslarini joriy etish kabi vazifalar dolzarb mavzular manbai boʻladi[61].

Ilmiy-metodik adabiyotlar va xorijiy tajriba. Oʻqilgan maqola yoki qoʻllanmadagi gʻoyani oʻzbek maktabi sharoitiga moslashtirish ham yaxshi mavzu boʻlishi mumkin.

Oʻqituvchining shaxsiy qiziqishi va ijodiy tajribasi. Masalan, she’riyatga qiziquvchi oʻqituvchi “She’riy matnni ifodali oʻqishga oʻrgatish texnologiyasi”, teatr bilan shugʻullangan oʻqituvchi “Dramatik asarlarni sahnalashtirish orqali oʻrganish” mavzusini tanlashi tabiiy.

Yaxshi mavzuning belgilari. Tanlangan mavzu quyidagi talablarga javob berishi kerak:

---

[60] Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari oʻqituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish toʻgʻrisida”gi 246-son buyrugʻi.

[61] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«Oʻzbekiston.

aniqlik – mavzuda oʻrganish obyekti (nima?), predmeti (qaysi jihati?) va koʻpincha doirasi (qaysi sinf, qaysi material asosida?) koʻrinib turadi;

torlik (konkretlik) – mavzu juda keng boʻlmasligi kerak; “Ona tili oʻqitishda innovatsion texnologiyalar” mavzusi qoʻllanma uchun ham haddan tashqari keng, “7-sinf ona tili darslarida ravishlarni oʻrgatishda «Klaster» va «Insert» usullarini qoʻllash” esa aniq va boshqariladigan mavzu;

dolzarblik – mavzu bugungi ta’lim amaliyoti ehtiyojiga javob beradi;

yangilik – mavzuda avval yetarli yoritilmagan jihat bor;

amalga oshirish mumkinligi – muallif mavzu boʻyicha tajriba, material va vaqtga ega;

ifodaning ixchamligi – mavzu nomi 10–15 soʻzdan oshmagani ma’qul.

Mavzuni ifodalashda keng qoʻllaniladigan qoliplar mavjud: “… da … dan foydalanish”, “… ni oʻrgatishning samarali usullari”, “… orqali oʻquvchilarda … koʻnikmasini rivojlantirish”, “… ni oʻqitish metodikasi (… misolida)”. Masalan: “Abdulla Qodiriy ijodini oʻrganishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish (9-sinf misolida)”, “Bayon yozish orqali 6-sinf oʻquvchilarida matn yaratish koʻnikmasini rivojlantirish”.

Mavzuni toraytirish texnikasi. Koʻpincha oʻqituvchi dastlab juda keng mavzu bilan boshlaydi. Uni toraytirish uchun “voronka” texnikasidan foydalanish mumkin: har bir qadamda “Aniq qaysi jihati?” degan savol beriladi.

Qadam	**Mavzu varianti**
1	Adabiyot oʻqitish
2	Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili
3	Adabiyot darslarida hikoya tahlili
4	7-sinfda hikoya tahlilida interfaol usullar
5	7-sinfda Abdulla Qahhor hikoyalarini tahlil qilishda “Rolli oʻqish” va “Muallifga savol” usullari

Beshinchi qadamdagi mavzu tezis, maqola yoki uslubiy tavsiya uchun mos, uchinchi-toʻrtinchi qadamdagilar esa uslubiy

qo‘llanma uchun asos bo‘lishi mumkin. Demak, mavzuning kengligi ishlanma turiga ham bog‘liq.

Dolzarblikni asoslash. Dolzarblik – mavzuning hozirgi kunda ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligi, uni tezlik bilan hal etish zarurligi. Dolzarblikni asoslash “nima uchun aynan hozir, aynan shu masala bilan shug‘ullanish kerak?” degan savolga javob beradi. Majmuada qayd etilganidek, dolzarblik ishlanmaning kirish qismida aniq va qisqa bayon etilishi lozim[62].

Dolzarblikni asoslashda quyidagi mantiqiy zanjirdan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Umumiy kontekst – me’yoriy hujjatlarda yoki fan rivojida belgilangan vazifa (1–2 gap).

2. Amaliy muammo – amaliyotda bu vazifani bajarishda yuzaga kelayotgan qiyinchilik, imkon qadar raqamli dalillar bilan (2–3 gap).

3. Ziddiyat – zarurat bilan mavjud holat o‘rtasidagi tafovut (1 gap).

4. Bo‘shliq – bu muammo ilmiy-metodik adabiyotlarda yetarli yoritilmagani (1–2 gap).

5. Xulosa – shuning uchun mavzu dolzarb (1 gap).

Namuna: “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasida o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi ko‘rsatkichlarini oshirish vazifasi belgilangan [2]. Maktabimizda o‘tkazilgan diagnostik test natijalariga ko‘ra 5-sinf o‘quvchilarining 58 foizi matndagi aniq ma’lumotni topa olsa-da, faqat 23 foizi matndan xulosa chiqara oldi. Demak, o‘quvchilarda matnni yuzaki o‘qish ko‘nikmasi shakllangan, ammo uni chuqur tushunish ko‘nikmasi yetarli rivojlanmagan. Mavjud metodik adabiyotlarda o‘qish strategiyalari, asosan, boshlang‘ich sinflar uchun ishlab chiqilgan, 5–6-sinflar uchun esa tizimli topshiriqlar majmui yetishmaydi. Shu bois 5-sinf o‘quvchilarida xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini yaratish dolzarb hisoblanadi.”

[62] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

Dolzarblikni asoslashda uchraydigan xatolar: faqat umumiy so‘zlar bilan cheklanish (“ta’lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda”); muammoni dalilsiz e’lon qilish; dolzarblikni muallifning shaxsiy qiziqishi bilan almashtirish (“bu mavzu menga juda yoqadi”); kirish qismining yarmini dolzarblikka bag‘ishlash.

Yangilikni asoslash. Yangilik – ishlanmada ilk bor taklif etilayotgan yoki avvalgilardan farq qiluvchi jihat. Ko‘pchilik o‘qituvchilar “men yangi metod ixtiro qilmaganman, demak ishimda yangilik yo‘q” deb o‘ylaydi. Bu noto‘g‘ri. Metodik ishlanmada yangilik turli darajada bo‘lishi mumkin:

mutlaq yangilik – avval mavjud bo‘lmagan usul, metod yoki vosita yaratilishi (juda kam uchraydi);

nisbiy yangilik – ma’lum metodni yangi material, yangi sinf yoki yangi maqsad uchun qo‘llash (masalan, “Klaster” usulini Navoiy g‘azallarini tahlil qilishda qo‘llash);

kombinatsion yangilik – ma’lum usullarning yangi uyg‘unligi, yangi ketma-ketligi yoki tizimini yaratish;

mahalliy (lokal) yangilik – xorijiy yoki boshqa fan tajribasini o‘zbek tilidagi ona tili va adabiyot darslariga moslashtirish;

texnologik yangilik – yangi raqamli vosita, platforma yoki resursdan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish.

Ommalashtirish mezonlarida yangilik uch jihatdan baholanadi: ishning yangiligi, muallifning shaxsiy hissasi va innovatsion yondashuv[63]. Shuning uchun yangilikni asoslashda “nima yangi?”, “bu yangilik kim tomonidan yaratilgan?” va “u qanday natija beradi?” degan savollarga aniq javob berish kerak.

Yangilikni ifodalash uchun quyidagi qoliplardan foydalanish mumkin: “ilk bor … tizimi ishlab chiqildi”, “… usuli … sharoitiga moslashtirildi”, “… ning yangi turi taklif etildi”, “… uchun … bosqichli model tuzildi”, “… samaradorligi tajriba-sinov orqali asoslandi”. Namuna: “Ishlanmaning yangiligi shundaki, unda xalqaro o‘qish savodxonligi baholash dasturlarida qo‘llaniladigan to‘rt jarayon (ma’lumot topish, xulosa chiqarish, talqin qilish, baholash) asosida 5-sinf adabiyot darsligidagi matnlar uchun 48 ta topshiriqdan iborat bosqichli tizim ilk bor ishlab chiqildi va

[63] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

uning samaradorligi ikki sinfda o‘tkazilgan tajriba-sinov orqali tekshirildi.”

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: “Mavzu pasporti”ni tuzish: mavzu, dolzarblik, yangilik, maqsad va vazifalar.

Maqsad: tinglovchilarda o‘z tajribasidan kelib chiqib aniq mavzu ifodalash, uning dolzarbligi va yangiligini asoslash, maqsad va vazifalarni belgilash ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** yakka va guruh ishi, “Akvarium” usuli. **Jihozlar:** “Voronka” va “Mavzu pasporti” shablonlari, flipchart.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Doskaga beshta mavzu yoziladi (ular orasida juda keng, juda tor, noaniq va yaxshi ifodalangan mavzular bor). Tinglovchilar eng yaxshi mavzuni tanlab, tanlovini asoslaydi.

2. Nazariy qism (15 daqiqa). Mavzu manbalari, yaxshi mavzu belgilari, dolzarblikni asoslash zanjiri va yangilik turlari tushuntiriladi.

3. Yakka ish (20 daqiqa). Har bir tinglovchi “voronka” texnikasi yordamida o‘z mavzusini besh qadamda toraytiradi va “Mavzu pasporti”ni to‘ldiradi: mavzu; dolzarblik (5 bandli zanjir asosida); yangilik turi va ifodasi; maqsad; 3–5 ta vazifa; kutilayotgan natija.

4. “Akvarium” (25 daqiqa). Ikki-uch ko‘ngilli tinglovchi o‘z pasportini davra o‘rtasida taqdim etadi, qolganlar tashqi doirada tinglab, “Dolzarblik dalillanganmi?”, “Yangilik aniq ifodalanganmi?”, “Maqsad mavzuga mosmi?” savollari bo‘yicha izoh beradi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). Tinglovchilar mashg‘ulot boshidagi va oxiridagi mavzu variantlarini qiyoslab, qanday o‘zgarish bo‘lganini yozadi.

Kutilayotgan natija: har bir tinglovchi o‘z ishlanmasi uchun to‘liq “Mavzu pasporti”ga ega bo‘ladi.

Baholash: mavzuning aniqligi (2 ball), dolzarblik asoslanishi (3 ball), yangilik ifodasi (3 ball), maqsad va vazifalar uyg‘unligi (2 ball).

Nazorat savollari

1. Uslubiy ishlanmaga qo‘yiladigan talablar qanday guruhlarga ajratiladi?
2. O‘qitishning asosiy didaktik prinsiplarini sanab bering.
3. Qayta ishlangan Blum taksonomiyasida qanday kognitiv darajalar ajratiladi?
4. O‘quv maqsadi “diagnostik” bo‘lishi nimani anglatadi?
5. Ona tili va adabiyot bo‘yicha ishlanmaga qo‘yiladigan o‘ziga xos metodik talablar qaysilar?
6. “4K” ko‘nikmalariga nimalar kiradi va ular ishlanmada qanday aks ettiriladi?
7. Yaxshi mavzu qanday belgilarga ega bo‘lishi kerak?
8. Mavzuni toraytirishning “voronka” texnikasi qanday qo‘llaniladi?
9. Dolzarblikni asoslash zanjirining bosqichlarini ayting.
10. Metodik ishlanmada yangilikning qanday turlari bo‘lishi mumkin?

Topshiriqlar

1. O‘zingiz tanlagan ona tili mavzusi bo‘yicha Blum taksonomiyasining olti darajasiga mos oltita o‘quv maqsadini yozing.
2. “O‘quvchilarga … haqida tushuncha berish” shaklida yozilgan beshta maqsadni o‘lchanadigan shaklga keltiring.
3. Bitta dars uchun “teskari loyihalash” asosida reja tuzing: natija – dalil – faoliyat.
4. 4K ko‘nikmalarining har birini rivojlantirishga qaratilgan bittadan adabiyot topshirig‘ini tuzing.
5. “Ona tili darslarida AKTdan foydalanish” mavzusini “voronka” texnikasi yordamida besh qadamda toraytiring.
6. Xuddi shunday topshiriqni “Adabiyot darslarida tarbiya” mavzusi bilan bajaring.

7. O‘z mavzungiz uchun dolzarblikni 5 bandli zanjir asosida yozing.

8. Quyidagi dolzarblik matnidagi xatolarni toping va uni qayta yozing: “Hozirgi kunda ta’lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ona tili fani juda muhim fan. Shuning uchun bu mavzu dolzarbdir.”

9. O‘z ishlanmangizdagi yangilik turini aniqlang va uni paragrafdagi qoliplardan foydalanib ifodalang.

10. Mavzungiz uchun maqsad va 4 ta vazifani yozing, ularning mavzuga mosligini tekshiring.

Test topshiriqlari

1. Ta’lim nazariyasi qanday ataladi?
   A) Metodika
   B) Pedagogik psixologiya
   C) Didaktika
   D) Andragogika

2. Materialning oddiydan murakkabga qarab joylashtirilishi qaysi prinsipga mos keladi?
   A) Tizimlilik va izchillik
   B) Ko‘rgazmalilik
   C) Tarbiyaviylik
   D) Individual yondashuv

3. Qayta ishlangan Blum taksonomiyasining eng yuqori darajasi qaysi?
   A) Baholash
   B) Tahlil qilish
   C) Qo‘llash
   D) Yaratish

4. “Ikki qahramon xarakterini qiyoslaydi” maqsadi qaysi kognitiv darajaga mos keladi?
   A) Eslash
   B) Tahlil qilish
   C) Tushunish
   D) Yaratish

5. Quyidagi maqsadlardan qaysi biri o‘lchanadigan shaklda ifodalangan?

A) O‘quvchilarga ravish haqida tushuncha berish
B) O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
C) O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish
D) O‘quvchi gapdagi ravishlarni topadi va ma’no turini aniqlaydi

6. “4K” ko‘nikmalari tarkibiga qaysi biri kirmaydi?

A) Kalligrafiya
B) Kreativ fikrlash
C) Tanqidiy fikrlash
D) Kooperatsiya

7. Mavzuning hozirgi kunda ta’lim amaliyoti uchun muhimligi va uni tez hal etish zarurligi qanday ataladi?

A) Yangilik
B) Dolzarblik
C) Amaliy ahamiyat
D) Ishonchlilik

8. Quyidagi mavzulardan qaysi biri uslubiy tavsiya uchun eng mos?

A) Ona tili o‘qitishda innovatsion texnologiyalar
B) Adabiyot o‘qitish
C) Ta’limda AKT
D) 7-sinf ona tili darslarida ravishlarni o‘rgatishda “Klaster” usulini qo‘llash

9. Ma’lum metodni yangi material yoki yangi sinf uchun qo‘llash qanday yangilik turiga kiradi?

A) Nisbiy yangilik
B) Mutlaq yangilik
C) Texnologik yangilik
D) Yangilik hisoblanmaydi

10. Dolzarblikni asoslash zanjirida “zarurat bilan mavjud holat o‘rtasidagi tafovut” qanday ataladi?

A) Kontekst
B) Bo‘shliq
C) Ziddiyat
D) Xulosa

1.4-§. Ilmiy uslub, manbalar bilan ishlash va akademik halollik

Ilmiy uslub – adabiy tilning vazifaviy uslubi. O‘zbek adabiy tilida bir necha vazifaviy uslub farqlanadi: so‘zlashuv, rasmiy-idoraviy, publitsistik, badiiy va ilmiy uslub. Har bir uslub muayyan muloqot sohasiga xizmat qiladi va o‘ziga xos lisoniy vositalar tizimiga ega. Ilmiy uslub fan va ta’lim sohasida qo‘llaniladi: monografiya, dissertatsiya, maqola, tezis, darslik, qo‘llanma, ilmiy ma’ruza va taqrizlar shu uslubda yoziladi. Uslubiy ishlanmalar ham ilmiy uslubning ilmiy-metodik (ilmiy-o‘quv) ko‘rinishiga mansub. Ommalashtirish mezonlarida ishning ilmiy uslubda yozilganligi, fikrlarning aniq ifodalanganligi va takrorlarning yo‘qligi alohida baholanishi bejiz emas[64].

Ona tili o‘qituvchisi uslublar haqidagi bilimlarni darsda o‘quvchilarga o‘rgatadi. Biroq bu bilimni o‘z ishlanmasida namunali qo‘llash alohida ko‘nikma talab qiladi. Amaliyotda uchraydigan eng keng tarqalgan kamchilik – ishlanmada publitsistik va so‘zlashuv uslubi unsurlarining aralashib ketishidir: ko‘tarinki-hissiy iboralar (“buyuk kelajagimiz bunyodkorlari”), ortiqcha bo‘yoqdor sifatlar (“nihoyatda ajoyib”, “beqiyos samarali”), so‘zlashuvga xos qisqartmalar va iboralar (“xullas”, “ko‘p gap – eshakka yuk”).

Ilmiy uslubning asosiy belgilari. Tilshunoslar ilmiy uslubning quyidagi xususiyatlarini ajratadilar:

mantiqiylik – fikrlar sabab-natija, umumiy-xususiy munosabatida izchil bayon etiladi; har bir keyingi gap oldingisidan kelib chiqadi;

aniqlik – har bir tushuncha bir ma’noda qo‘llaniladi, atamalar ta’riflanadi, ko‘p ma’noli so‘zlardan qochiladi;

obyektivlik – fikr shaxsiy his-tuyg‘uga emas, dalilga tayanadi; muallif “men” emas, ko‘pincha “biz” yoki shaxssiz konstruksiyalar orqali ifoda etiladi;

umumlashganlik va mavhumlik – ayrim hodisadan umumiy qonuniyatga o‘tiladi;

[64] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

dalillanganlik – har bir da’vo misol, raqam, manba yoki tajriba bilan tasdiqlanadi;

ixchamlik – fikr ortiqcha so‘zlarsiz, lo‘nda ifodalanadi;

hissiy betaraflik – emotsional-ekspressiv vositalar deyarli qo‘llanilmaydi.

Ilmiy uslubning leksik xususiyatlari. Ilmiy matnda atamalar (terminlar) asosiy o‘rinni egallaydi. Ona tili va adabiyot metodikasi bo‘yicha ishlanmada uch qatlam atamalar qo‘llaniladi: umumpedagogik atamalar (didaktika, kompetensiya, refleksiya, baholash); tilshunoslik atamalari (morfema, so‘z turkumi, sintaktik aloqa, matn); adabiyotshunoslik atamalari (obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy tasvir vositalari). Atamalarni qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilinadi.

Birinchidan, atama bir matn doirasida bir xil shaklda qo‘llanadi. Masalan, bir joyda “kompetensiya”, boshqa joyda “kompetentlik”, uchinchi joyda “malaka” deb yozish, agar ular turli ma’noda qo‘llanmasa, chalkashlik tug‘diradi.

Ikkinchidan, yangi yoki kam ma’lum atamaga ilk qo‘llanganda izoh beriladi. Ommalashtirish mezonlarida yangi va xorijiy so‘zlarga izoh berilishi uchun 4 ball ajratilgan[65]. Masalan: “Skaffolding (ingl. scaffolding – «havoza») – o‘quvchiga topshiriqni mustaqil bajara olguniga qadar bosqichma-bosqich beriladigan va asta-sekin kamaytiriladigan yordam.”

Uchinchidan, o‘zbek tilida muqobili mavjud bo‘lgan xorijiy so‘zlardan ortiqcha foydalanilmaydi. “Feedback” o‘rniga “qayta aloqa”, “skill” o‘rniga “ko‘nikma” so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, atamalar amaldagi lug‘at va darsliklarga mos yoziladi. Adabiyotshunoslik atamalari uchun D.Quronov va hammualliflarining “Adabiyotshunoslik lug‘ati” ishonchli manba hisoblanadi[66].

Ilmiy uslubning grammatik xususiyatlari. Ilmiy matnda quyidagi grammatik vositalar faol qo‘llaniladi:

majhul nisbatdagi fe’llar – “tahlil qilindi”, “aniqlandi”, “taklif etiladi” (harakatni bajaruvchi emas, harakatning o‘zi muhim);

---

[65] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[66] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.

ot va harakat nomlari – “oʻrganish”, “tahlil”, “rivojlantirish”, “shakllanish”;

murakkab sintaktik qurilmalar – qoʻshma gaplar, ajratilgan boʻlakli gaplar, kirish soʻzlar;

kirish soʻz va bogʻlovchi vositalar – “birinchidan”, “shunday qilib”, “demak”, “shu bilan birga”, “aksincha”, “xususan”, “masalan”;

koʻplikdagi birinchi shaxs (“biz”, “bizningcha”) yoki shaxssiz qurilmalar (“ta’kidlash joizki”, “shuni aytish mumkinki”).

Shu bilan birga, gaplarning haddan tashqari uzun va chigal boʻlishi ham ilmiy uslubning yutugʻi emas, balki kamchiligidir. Bir gapda bir asosiy fikr ifodalangani va gap uzunligi 25–30 soʻzdan oshmagani ma’qul. J.Svels va K.Fik akademik yozuvga oid qoʻllanmasida aniqlik va oʻquvchiga gʻamxoʻrlik (reader-friendliness) zamonaviy ilmiy matnning asosiy talabi ekanini ta’kidlaydilar[67].

Ilmiy-metodik matnning ilmiy matndan farqi. Uslubiy ishlanma sof ilmiy matndan amaliy yoʻnalganligi bilan farq qiladi. Unda nazariy mulohazalar bilan bir qatorda koʻrsatma, yoʻriqnoma, namunalar koʻp boʻladi. Shuning uchun ilmiy-metodik matnda buyruq maylidagi va “-ish kerak”, “-ish lozim”, “-ish tavsiya etiladi” shaklidagi qurilmalar, sanoq soʻzli roʻyxatlar, jadval va sxemalar keng qoʻllaniladi. Shu bilan birga, ilmiy-metodik matn ham ilmiy uslubning asosiy talablari – mantiqiylik, aniqlik, dalillanganlik va savodxonlikka toʻliq boʻysunadi.

Quyidagi jadvalda ilmiy-metodik matnda uchraydigan uslubiy nuqsonlar va ularni tuzatish namunalari berilgan.

Nuqsonli ifoda	**Nuqson turi**	**Tuzatilgan ifoda**
Bu metod juda-juda zoʻr natija beradi	Hissiy boʻyoq, dalilsizlik	Usul qoʻllangan sinfda xatolar soni 34 foizga kamaydi
Darsda oʻquvchilar aktivlashdi	Nooʻrin xorijiy soʻz	Darsda oʻquvchilar faolligi oshdi
Biz oʻtkazgan tajribada biz shuni koʻrdikki, biz …	Takror	Oʻtkazilgan tajriba shuni koʻrsatdiki …

[67] Swales J.M., Feak C.B. Academic Writing for Graduate Students. 3rd ed. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2012.

Nuqsonli ifoda	Nuqson turi	Tuzatilgan ifoda
Hamma oʻqituvchilar bu usulni biladi	Asossiz umumlashtirish	Koʻplab oʻqituvchilar bu usuldan foydalanadi [manba]
Insho yozdirishning ahamiyati katta ahamiyatga ega	Tavtologiya	Insho yozdirish katta ahamiyatga ega
Xullas, gapning qisqasi, usul yaxshi	Soʻzlashuv unsuri	Shunday qilib, usulning samaradorligi tasdiqlandi

Manbalar turlari. Uslubiy ishlanma muallifi foydalanadigan manbalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

me'yoriy-huquqiy hujjatlar – qonunlar, farmonlar, qarorlar, vazirlik buyruqlari, davlat ta'lim standartlari, oʻquv dasturlari;

ilmiy adabiyotlar – monografiyalar, dissertatsiyalar va ularning avtoreferatlari, ilmiy maqolalar;

oʻquv adabiyotlari – darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, uslubiy qoʻllanmalar, majmualar;

ma'lumotnoma nashrlar – lugʻatlar, ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar;

badiiy asarlar – ona tili va adabiyot oʻqituvchisi uchun alohida manba guruhi; ular misol va tahlil materiali sifatida qoʻllaniladi;

elektron resurslar – rasmiy saytlar, elektron kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, elektron jurnallar.

Manbalar birlamchi va ikkilamchiga ham ajratiladi. Birlamchi manba – asl hujjat yoki asar (masalan, buyruqning oʻzi, Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobi). Ikkilamchi manba – birlamchi manba haqida boshqa muallif yozgan matn (masalan, Fitrat qarashlari haqidagi maqola). Ilmiy ishda imkon qadar birlamchi manbaga murojaat qilish kerak; agar birlamchi manba qoʻlga kiritilmasa, ikkilamchi manba orqali havola beriladi va bu alohida koʻrsatiladi ("… keltirilgan: …").

Iqtibos keltirish usullari. Boshqa muallif fikridan foydalanishning uch asosiy usuli bor.

Toʻgʻridan-toʻgʻri iqtibos (koʻchirma) – muallif matnini soʻzma-soʻz, qoʻshtirnoq ichida keltirish. U muallif fikri ayniqsa

aniq yoki obrazli ifodalangan, yoki uning aynan so‘zlari muhim bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Iqtibosdan keyin havola va imkon bo‘lsa sahifa raqami ko‘rsatiladi. Ko‘chirma uzun bo‘lmasligi kerak; agar u 3–4 qatordan uzun bo‘lsa, alohida xatboshi qilib, chapdan surib beriladi. Iqtibos ichidagi tushirib qoldirilgan qism ko‘p nuqta bilan belgilanadi: “…”.

Bayon (parafraz) – muallif fikrini o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalash. Bunda qo‘shtirnoq qo‘yilmaydi, ammo havola albatta beriladi. Parafraz shunchaki so‘zlarning o‘rnini almashtirish emas, balki fikrni o‘z tushunchasi asosida qayta qurishdir.

Umumlashtirish (rezyume) – katta matnning (bob, maqola, kitob) asosiy g‘oyasini bir-ikki gapda qisqa ifodalash. Bunda ham havola beriladi.

Usul	**Qo‘shtir-noq**	**Havola**	**Qachon qo‘llanadi**
To‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos	Bor	Majburiy, sahifa bilan	Muallifning aniq so‘zlari muhim bo‘lganda
Bayon (parafraz)	Yo‘q	Majburiy	Fikrni o‘z matniga moslashtirganda
Umumlashtirish	Yo‘q	Majburiy	Katta matnning mohiyatini berganda

Iqtibos va bayonni matnga kiritishda maxsus ifoda vositalari qo‘llaniladi: “N.Muslimovning ta’kidlashicha, …”, “Q.Yo‘ldoshev fikricha, …”, “… qayd etganidek, …”, “… ga ko‘ra …”, “… tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, …”. Bunday vositalar muallif fikrini boshqalar fikridan aniq ajratadi.

Havola berish tizimlari. Ilmiy ishlarda havola berishning bir necha tizimi mavjud.

Raqamli tizim – matnda kvadrat qavs ichida manbaning adabiyotlar ro‘yxatidagi raqami (va zarur bo‘lsa sahifa) ko‘rsatiladi: [7] yoki [7, 45-b.]. Bu tizim O‘zbekistonda eng keng tarqalgan va ommalashtirish talablarida ham aynan kvadrat qavsdagi havola belgilangan[68]. Mazkur qo‘llanmada esa o‘quvchiga qulaylik uchun manbalar sahifa osti izohlari

[68] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

(snoskalar) shaklida koʻrsatilgan, ularning toʻliq roʻyxati qoʻllanma oxirida berilgan; ommalashtirishga taqdim etiladigan ishlanmada esa kvadrat qavsdagi havolalardan foydalanish talab etiladi.

Muallif-yil tizimi (masalan, APA uslubi) – matnda qavs ichida muallif familiyasi va nashr yili koʻrsatiladi: (Yoʻldoshev, 1996). Bu tizim xalqaro jurnallarda keng qoʻllaniladi.

Sahifa osti izohlari – havola sahifa ostida izoh shaklida beriladi. Bu usul koʻproq gumanitar fanlarda, tarixiy va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida qoʻllaniladi.

Bitta ishlanmada faqat bitta havola tizimidan izchil foydalanish shart.

Adabiyotlar roʻyxatini rasmiylashtirish. Oʻzbekistonda adabiyotlar roʻyxati, odatda, davlatlararo bibliografik standart (GOST 7.1) asosida rasmiylashtiriladi. Quyida turli manbalarning bibliografik tavsifi namunalari keltirilgan.

Kitob (bitta muallif): Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. – 360 b.

Kitob (bir necha muallif): Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X. va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

Maqola (jurnaldan): Familiya I.O. Maqola nomi // Jurnal nomi. – Yil. – № … – B. …–….

Me’yoriy hujjat: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori. // lex.uz.

Elektron resurs: Sahifa nomi. // URL manzili (murojaat sanasi).

Adabiyotlar roʻyxati, odatda, quyidagi tartibda guruhlanadi: me’yoriy-huquqiy hujjatlar (yuridik kuchiga koʻra); asosiy adabiyotlar (alifbo tartibida); xorijiy adabiyotlar; internet manbalari. Mazkur qoʻllanmaning adabiyotlar roʻyxati ham shu tartibda tuzilgan.

Akademik halollikning buzilish shakllari. Ilmiy-metodik faoliyatda quyidagi qoidabuzarliklar uchraydi.

Plagiat – boshqa muallif matni, gʻoyasi yoki natijalarini havola bermasdan oʻziniki sifatida taqdim etish. Ommalashtirish

mezonlariga koʻra plagiat aniqlangan ish nol ball bilan baholanadi[69].

Oʻz-oʻzini plagiat qilish (avtoplagiat) – muallifning ilgari chop etilgan oʻz ishini havolasiz, yangi ish sifatida qayta taqdim etishi. Ommalashtirish tartibida ilgari ommalashtirilgan ishlarning qayta koʻrib chiqilmasligi[70] ham shu muammo bilan bogʻliq.

Ma'lumotlarni toʻqib chiqarish (fabrikatsiya) – amalda oʻtkazilmagan tajriba yoki soʻrovnoma natijalarini oʻylab topish.

Ma'lumotlarni soxtalashtirish (falsifikatsiya) – haqiqiy natijalarni oʻzgartirish, noqulay ma'lumotlarni yashirish, natijalarni boʻrttirish.

Mualliflikni notoʻgʻri koʻrsatish – ishga hissa qoʻshmagan shaxslarni muallif sifatida kiritish yoki aksincha, haqiqiy hammuallifni koʻrsatmaslik.

Manbalarni notoʻgʻri koʻrsatish – oʻqilmagan manbaga havola berish, ikkilamchi manbani birlamchi sifatida koʻrsatish.

Sun'iy intellekt va uslubiy ishlanma. Soʻnggi yillarda katta til modellariga asoslangan sun'iy intellekt (SI) vositalari – chat-botlar, matn generatorlari, tarjima va tahrir dasturlari – keng tarqaldi. Ular oʻqituvchi faoliyatiga ham kirib keldi: dars rejasi, test savollari, mashq matnlari, hatto butun maqola matnini bir necha soniyada "yozib berish" imkoniyati paydo boʻldi. Bu holat uslubiy ishlanma yaratishda yangi imkoniyatlar bilan birga jiddiy xavflarni ham keltirib chiqaradi.

SIning imkoniyatlari: gʻoyalarni generatsiya qilish (aqliy hujum hamkori sifatida); matn rejasini tuzishda yordam; matnni tahrir qilish, uslubiy va grammatik xatolarni aniqlash; turli darajadagi topshiriq va mashqlar variantlarini taklif etish; xorijiy manbalarni tushunish uchun tarjima; ma'lumotlarni tizimlashtirish, jadval va sxemalar tuzishda koʻmak.

SIning xavflari: toʻqima ma'lumotlar – SI mavjud boʻlmagan kitob, maqola, muallif va iqtiboslarni ishonarli tarzda "oʻylab topishi" mumkin; oʻzbek tili me'yorlariga toʻliq mos kelmaydigan

[69] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.
[70] Yangi tartib boʻyicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

matnlar – notoʻgʻri qoʻshimchalar, gʻayritabiiy soʻz birikmalari, kalka iboralar; eskirgan yoki notoʻgʻri maʼlumotlar – ayniqsa meʼyoriy hujjatlar, raqamlar va sanalar boʻyicha; shaxsiy tajribaning yoʻqligi – SI oʻqituvchining sinfidagi real holatni bilmaydi; natijada matn umumiy, "jonsiz" boʻlib qoladi; mualliflik va halollik muammosi – SI yozgan matnni oʻz matni sifatida taqdim etish.

SIdan masʼuliyatli foydalanish tamoyillari. Bugungi kunda koʻplab xalqaro ilmiy nashrlar va taʼlim muassasalari SIdan foydalanish boʻyicha qoidalar ishlab chiqmoqda. Ularning umumiy tamoyillarini uslubiy ishlanma muallifi uchun quyidagicha ifodalash mumkin.

Muallif – inson. SI muallif yoki hammuallif boʻla olmaydi; ishning mazmuni, xulosalari va xatolari uchun toʻliq javobgarlik muallifning zimmasida.

Shaffoflik. Agar ishlanma tayyorlashda SI vositalaridan foydalanilgan boʻlsa (masalan, matnni tahrir qilishda yoki topshiriq variantlarini yaratishda), bu kirish yoki metodlar qismida ochiq koʻrsatiladi.

Tekshirish. SI bergan har bir fakt, raqam, sana, iqtibos va manba birlamchi manba orqali tekshiriladi. SI koʻrsatgan manbaga uni shaxsan koʻrmasdan havola berilmaydi.

Shaxsiy tajriba ustuvorligi. Ishlanmaning yuragi – oʻqituvchining oʻz tajribasi, oʻquvchilari bilan ishlash natijalari. Uni SI bilan almashtirib boʻlmaydi.

Til meʼyorlariga moslik. SI yordamida tayyorlangan har qanday oʻzbekcha matn adabiy til meʼyorlari asosida sinchiklab tahrir qilinadi.

Maxfiylik. SI vositalariga oʻquvchilarning shaxsiy maʼlumotlari, baholari, rasmlari kiritilmaydi.

Quyidagi jadvalda SIdan foydalanishning maqbul va nomaqbul holatlari qiyoslanadi.

Maqbul foydalanish	Nomaqbul foydalanish
Mavzu boʻyicha gʻoyalar roʻyxatini olib, ularni oʻzi tanlash va rivojlantirish	Butun ishlanma matnini SIga yozdirib, oʻz nomidan topshirish
Oʻz yozgan matnini uslubiy tahrir uchun tekshirtirish	SI toʻqigan tajriba natijalarini haqiqiy natija sifatida berish
Topshiriq variantlarini olib, ularni dastur va sinfga moslab qayta ishlash	SI koʻrsatgan manbalarni tekshirmasdan adabiyotlar roʻyxatiga kiritish
Xorijiy maqolani tushunish uchun tarjimadan foydalanish	Tarjima qilingan matnni havolasiz oʻz matni sifatida berish
SIdan foydalanilganini ishlanmada ochiq koʻrsatish	SIdan foydalanishni yashirish

Amaliy mashgʻulot

Mavzu: Ilmiy-metodik matnni uslubiy tahrir qilish.

Maqsad: tinglovchilarda ilmiy uslub belgilarini aniqlash, ilmiy-metodik matndagi uslubiy nuqsonlarni topish va tuzatish koʻnikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** yakka, juftlik va guruh ishi. **Jihozlar:** turli uslubdagi matn parchalari, ataylab xato kiritilgan ilmiy-metodik matn (1 sahifa), tahrir belgilari jadvali.

Mashgʻulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). “Uslubni toping” oʻyini: tinglovchilarga beshta qisqa parcha (soʻzlashuv, rasmiy, publitsistik, badiiy, ilmiy) oʻqiladi, ular har birining uslubini aniqlab, belgilarini aytadi.

2. Nazariy qism (15 daqiqa). Ilmiy uslubning belgilari, leksik va grammatik xususiyatlari, xatboshi tuzilishi tushuntiriladi.

3. Juftlikda tahrir (25 daqiqa). Har bir juftlikka ataylab 15 ta xato (uslubiy, leksik, imloviy, tinish) kiritilgan ilmiy-metodik matn beriladi. Juftlik xatolarni topadi, turini belgilaydi va tuzatadi.

4. Xatboshi yozish (20 daqiqa). Har bir tinglovchi oʻz tajribasidagi bitta usul haqida “mavzu gap – izoh – dalil – xulosa” tuzilmasida bitta xatboshi yozadi. Qoʻshni tinglovchi uni ilmiy uslub belgilari boʻyicha baholaydi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). Tuzatilgan matn kalit bilan solishtiriladi; tinglovchilar eng koʻp qaysi turdagi xatoni oʻtkazib yuborganini aniqlaydi.

Kutilayotgan natija: tinglovchilar ilmiy-metodik matnni uslubiy tahrir qilishning amaliy algoritmini oʻzlashtiradi va namunaviy ilmiy xatboshi yozadi.

Baholash: topilgan va toʻgʻri tuzatilgan xatolar (har biri 0,5 ball, jami 7,5 ball), xatboshi sifati (2,5 ball).

Nazorat savollari

1. Oʻzbek adabiy tilida qanday vazifaviy uslublar farqlanadi?
2. Ilmiy uslubning asosiy belgilarini sanab bering.
3. Atamalarni qoʻllashda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
4. Ilmiy uslubga xos grammatik vositalarga misollar keltiring.
5. Birlamchi va ikkilamchi manbalarning farqi nimada?
6. Iqtibos keltirishning qanday usullari bor va ular qanday farqlanadi?
7. Raqamli havola tizimi qanday ishlaydi?
8. Akademik halollik buzilishining qanday shakllari bor?
9. Fabrikatsiya va falsifikatsiyaning farqi nimada?
10. SIdan mas’uliyatli foydalanishning asosiy tamoyillarini sanab bering.

Topshiriqlar

1. Ilmiy uslubning belgilari boʻyicha klaster tuzing.
2. Ona tili metodikasiga oid 10 ta, adabiyot metodikasiga oid 10 ta atamani tanlab, ularning qisqa ta’rifini yozing.
3. Publitsistik uslubda yozilgan 8–10 gapli matnni ilmiy uslubga oʻgiring.
4. Ilmiy matnda qoʻllaniladigan 20 ta bogʻlovchi vosita va kirish soʻzni vazifasiga koʻra guruhlang (sanash, qarama-qarshilik, xulosa, misol keltirish).
5. Topilgan manbalarni GOST talablari asosida rasmiylashtirib, guruhlangan adabiyotlar roʻyxatini tuzing.
6. Bitta metodik fikrni toʻgʻridan-toʻgʻri iqtibos, bayon va umumlashtirish shaklida yozing.

7. Iqtibosni matnga kiritishda qo‘llaniladigan 10 ta ifoda vositasini yozing.

8. SI vositasidan ona tili o‘qitishga oid 5 ta manbani so‘rang va ularning har birini mavjudligini tekshiring; natijani jadvalga yozing.

9. SI yordamida 6-sinf uchun 5 ta mashq yarating, so‘ngra ularni o‘quv dasturi va til me’yorlari asosida tahrir qilib, qilingan o‘zgarishlarni izohlang.

10. Ishlanmangizda SIdan foydalanganingizni ko‘rsatuvchi shaffoflik bayonotini (2–3 gap) yozing.

Test topshiriqlari

1. Uslubiy ishlanmalar qaysi vazifaviy uslubga mansub?
   A) Publitsistik
   B) Rasmiy-idoraviy
   C) Ilmiy
   D) So‘zlashuv
2. Ilmiy uslubga xos bo‘lmagan belgini aniqlang.
   A) Mantiqiylik
   B) Hissiy-ekspressiv bo‘yoqdorlik
   C) Dalillanganlik
   D) Aniqlik
3. “Tahlil qilindi”, “aniqlandi” kabi fe’llar qaysi nisbatda?
   A) Majhul nisbat
   B) Aniq nisbat
   C) O‘zlik nisbati
   D) Birgalik nisbati
4. “Insho yozdirishning ahamiyati katta ahamiyatga ega” gapida qanday nuqson bor?
   A) Imloviy xato
   B) Tinish belgisi xatosi
   C) Tavtologiya
   D) Noo‘rin xorijiy so‘z
5. Muallif fikrini o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalash qanday ataladi?
   A) To‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos

B) Bayon (parafraz)
C) Annotatsiya
D) Plagiat

6. Iqtibos ichidagi tushirib qoldirilgan qism qanday belgilanadi?
A) Koʻp nuqta bilan
B) Yulduzcha bilan
C) Undov belgisi bilan
D) Belgilanmaydi

7. Muallif-yil havola tizimiga misol qaysi?
A) [7]
B) (Yoʻldoshev, 1996)
C) 7-izoh
D) “Yoʻldoshev”

8. Boshqa muallif matni yoki gʻoyasini havolasiz oʻziniki sifatida taqdim etish qanday ataladi?
A) Fabrikatsiya
B) Plagiat
C) Falsifikatsiya
D) Iqtibos

9. Amalda oʻtkazilmagan tajriba natijalarini oʻylab topish qanday ataladi?
A) Plagiat
B) Avtoplagiat
C) Falsifikatsiya
D) Fabrikatsiya

10. SIning eng xavfli xususiyatlaridan biri qaysi?
A) Mavjud boʻlmagan manba va iqtiboslarni ishonarli tarzda “oʻylab topishi”
B) Tez ishlashi
C) Bepul boʻlishi
D) Bir necha tilni bilishi

II BOB. USLUBIY ISHLANMA YARATISH VA OMMALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

2.1-§. Tezis va ilmiy-metodik maqola yozish texnologiyasi

Tezis tushunchasi. “Tezis” so‘zi yunoncha “thesis” – “qo‘yilgan fikr, holat” so‘zidan olingan. Ilmiy faoliyatda tezis deganda ilmiy-amaliy konferensiya, seminar yoki to‘plam uchun tayyorlangan, tadqiqotning asosiy g‘oyalari, natijalari va xulosalarini qisqa va lo‘nda bayon etuvchi matn tushuniladi. Tezis o‘qituvchi uchun ilmiy-metodik yozuvning eng qulay “kirish eshigi” hisoblanadi: uning hajmi kichik, talablari nisbatan sodda, ammo u muallifdan o‘z fikrini aniq ifodalash, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata olish ko‘nikmasini talab qiladi. Tezis yozishni o‘rgangan o‘qituvchi keyinchalik maqola va uslubiy tavsiya yozishga ancha oson o‘tadi.

Tezisning maqoladan asosiy farqi shundaki, unda fikrlar batafsil asoslanmaydi, faqat ularning mohiyati e’lon qilinadi. Maqola “nimani, qanday va nima uchun” degan savollarga to‘liq javob bersa, tezis asosan “nimani” va “qanday natija” degan savollarga javob beradi. Shu bilan birga, tezis oddiy reja yoki konspekt emas: u yaxlit, mantiqan bog‘langan, ilmiy uslubdagi matndir.

Tezisning hajmi va tuzilmasi. Tezis hajmi, odatda, konferensiya talablari bilan belgilanadi va 1–3 sahifani (2000–6000 belgi) tashkil etadi. Tezisning umumiy tuzilmasi quyidagicha:

sarlavha – mavzuni aniq ifodalaydi;

muallif haqida ma’lumot – familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ish joyi, elektron pochtasi;

annotatsiya va kalit so‘zlar – ko‘pchilik to‘plamlarda talab etiladi (2–4 gap va 5–7 kalit so‘z);

kirish – muammoning qo‘yilishi va dolzarbligi (1 xatboshi);

asosiy qism – muallif g‘oyasi, qo‘llangan usul va natijalar (2–4 xatboshi);

xulosa – asosiy natija va taklif (1 xatboshi);

adabiyotlar – 3–7 ta manba.

Tezis yozish texnologiyasi bosqichlari. Tezisni yozish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

1. Konferensiya talablari bilan tanishish. Tezis yozishdan oldin konferensiya tashkilotchilarining axborot xatini diqqat bilan o‘qish kerak: unda konferensiya yo‘nalishlari (seksiyalar), tezis hajmi, til, shrift, oraliq, hoshiya, havola berish tartibi, topshirish muddati ko‘rsatiladi. Talablarga rioya qilmaslik tezisning qabul qilinmasligiga sabab bo‘ladi.

2. Asosiy g‘oyani bir gapda ifodalash. Bu tezis yozishning eng muhim bosqichi. Muallif o‘ziga “Mening tezisim bir gapda nima haqida?” degan savolni berib, unga aniq javob topishi kerak. Masalan: “6-sinf ona tili darslarida «Tinish belgisi ustaxonasi» mashqini muntazam qo‘llash o‘quvchilarning qo‘shma gaplardagi punktuatsion xatolarini sezilarli kamaytiradi”. Agar bu gapni ifodalash qiyin bo‘lsa, mavzu hali yetarli aniqlanmagan bo‘ladi.

3. Reja tuzish. Asosiy g‘oya atrofida 4–6 bandli reja tuziladi: muammo – sabab – yechim (usul) – natija – xulosa.

4. Qoralama yozish. Reja asosida tezis matni yoziladi. Bu bosqichda hajm haqida qayg‘urmasdan, barcha fikrlarni yozib chiqish mumkin.

5. Qisqartirish va jilolash. Qoralama talab etilgan hajmga keltiriladi: ikkinchi darajali tafsilotlar, takrorlar, umumiy iboralar olib tashlanadi. Har bir gapga “bu gapsiz tezis zarar ko‘radimi?” degan savol beriladi.

6. Rasmiylashtirish va tekshirish. Sarlavha, muallif ma’lumotlari, adabiyotlar talab asosida rasmiylashtiriladi, matn imlo va uslub jihatdan tekshiriladi.

Tezis matnining namunasi. Quyida tajriba tezisining shartli namunasi keltiriladi (muallif ma’lumotlari va raqamlar namuna sifatida berilgan).

6-SINF ONA TILI DARSLARIDA PUNKTUATSION SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA “TINISH BELGISI USTAXONASI” MASHQIDAN FOYDALANISH

Karimova Dilnoza Rustamovna, Jizzax viloyati … tumani …-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda 6-sinf oʻquvchilarining punktuatsion savodxonligini oshirishga qaratilgan “Tinish belgisi ustaxonasi” mashqining mazmuni, qoʻllash tartibi va olti haftalik sinov natijalari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: punktuatsion savodxonlik, tinish belgisi, qoʻshma gap, mashq, xatolar tahlili.

Oʻquvchilarning yozma nutqida tinish belgilari bilan bogʻliq xatolar imloviy xatolarga nisbatan ancha barqaror boʻlib, ularni bartaraf etish uzoq vaqt talab qiladi. 6-sinf oʻquvchilarining I chorak yakuniy diktantlari tahlili shuni koʻrsatdiki, jami xatolarning 47 foizi tinish belgilariga toʻgʻri kelgan, ularning yarmidan koʻpi qoʻshma gaplarda vergulni qoʻymaslik bilan bogʻliq.

Muammoni hal etish uchun har bir ona tili darsining 7–8 daqiqasi “Tinish belgisi ustaxonasi” mashqiga ajratildi. Mashqda oʻquvchilarga tinish belgilari tushirib qoldirilgan 3–4 gapli badiiy parcha beriladi. Oʻquvchilar juftlikda belgilarni tiklaydi, har bir belgi uchun qoidani ogʻzaki asoslaydi, soʻngra asl matn bilan solishtiradi. Parchalar oʻquvchilar yoshiga mos badiiy asarlardan tanlanadi va har haftada murakkablashtirib boriladi.

Olti hafta davomida ikkita 6-sinfda mashq qoʻllandi. Ikki haftada bir marta oʻtkazilgan qisqa nazorat ishlarida qoʻshma gaplardagi punktuatsion xatolar soni oʻrtacha 4,2 tadan 1,6 taga kamaydi. Oʻquvchilar soʻrovnomasida ularning 81 foizi mashqni “qiziqarli” va “foydali” deb baholadi.

Xulosa qilib aytganda, qisqa, muntazam va badiiy matnga asoslangan punktuatsion mashqlar oʻquvchilarning tinish belgilarini ongli qoʻllash koʻnikmasini samarali rivojlantiradi. Mashqni 7–9-sinflarda murakkab sintaktik qurilmalar asosida davom ettirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar: 1. Gʻulomov A. va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. – T., 2012. 2. …

Bu namunada tezisning barcha tarkibiy qismlari mavjud: muammo raqam bilan dalillangan, usul qisqa va aniq tavsiflangan, natija oʻlchangan, xulosada taklif berilgan. Shu bilan birga, ortiqcha tafsilotlar yoʻq – masalan, mashqda qoʻllangan

parchalarning to‘liq ro‘yxati keltirilmagan; bu ma’lumot maqola yoki uslubiy tavsiyaga qoldiriladi.

Tezis yozishda uchraydigan xatolar. Amaliyotda quyidagi xatolar ko‘p uchraydi:

mavzuning haddan tashqari kengligi – 2 sahifada “Ona tili o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” kabi keng mavzuni yoritib bo‘lmaydi;

kirish qismining cho‘zilishi – tezisning yarmi umumiy so‘zlar va me’yoriy hujjatlardan iqtiboslar bilan band bo‘ladi;

natijaning yo‘qligi – faqat usul tavsiflanadi, uning qanday natija bergani ko‘rsatilmaydi;

konspektga aylanib qolish – darslikdagi yoki qo‘llanmadagi nazariy ma’lumotlar qayta bayon etiladi, muallifning o‘z fikri ko‘rinmaydi;

sarlavha va mazmunning mos kelmasligi;

manbalarning noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi yoki umuman ko‘rsatilmasligi.

Ilmiy-metodik maqola tushunchasi. Ilmiy-metodik maqola – muayyan metodik muammoni tahlil qiluvchi, uni hal etishning muallif tomonidan ishlab chiqilgan yoki moslashtirilgan yo‘llarini bayon etuvchi va ularning samaradorligini dalillovchi ilmiy asar. U ilmiy-metodik jurnallar, to‘plamlar va elektron nashrlarda chop etiladi. Maqolaning tezisdan farqi – unda muammo, usul va natijalar to‘liq asoslanadi; uslubiy tavsiyadan farqi – maqola, asosan, muammo va uning yechimini ilmiy jamoatchilikka e’lon qilishga qaratilgan bo‘lib, bosqichma-bosqich yo‘riqnoma va ko‘p sonli ilovalarni talab qilmaydi. Majmuada qayd etilishicha, ilmiy maqolaning hajmi odatda 10 sahifagacha bo‘ladi[71].

S.Tashpulatov va hammualliflarining “Ilmiy maqola yozish asoslari” qo‘llanmasida ta’kidlanganidek, ilmiy maqola tadqiqotchining fikrini, tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka yetkazishning asosiy vositasi bo‘lib, uning sifati muallifning ilmiy

[71] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

salohiyatini koʻrsatadi[72]. Oʻqituvchi uchun maqola yozish ikki jihatdan muhim: birinchidan, u oʻz tajribasini keng auditoriyaga taqdim etadi; ikkinchidan, maqola yozish jarayonida tajribani chuqur tahlil qilib, uni yanada takomillashtiradi.

Maqolaning umumiy tuzilmasi. Zamonaviy ilmiy-metodik maqola, qoida tariqasida, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat boʻladi.

Qism	**Mazmuni**	**Taxminiy hajmi**
Sarlavha	Mavzuning aniq va ixcham ifodasi	8–15 soʻz
Muallif ma'lumotlari	F.I.Sh., lavozim, ish joyi, e-pochta, ORCID	2–4 qator
Annotatsiya	Maqola mazmunining qisqa bayoni (bir necha tilda)	100–250 soʻz
Kalit soʻzlar	Maqolaning asosiy tushunchalari	5–8 soʻz
Kirish	Muammoning qoʻyilishi, dolzarblik, maqsad	10–15%
Adabiyotlar tahlili	Muammoning oʻrganilganlik darajasi	10–15%
Metodlar	Tadqiqot qanday oʻtkazilgani	10–15%
Natijalar	Olingan ma'lumotlar, jadval va diagrammalar	25–30%
Muhokama	Natijalar talqini, boshqa tadqiqotlar bilan qiyos	15–20%
Xulosa	Asosiy natijalar va takliflar	5–10%
Adabiyotlar	Foydalanilgan manbalar roʻyxati	10–25 manba

Bu tuzilma xalqaro IMRaD modeliga asoslangan boʻlib, mahalliy jurnallarda ham tobora keng qoʻllanilmoqda[73]. Shu bilan birga, ayrim oʻzbek tilidagi ilmiy-metodik jurnallarda soddalashtirilgan tuzilma – kirish, asosiy qism, xulosa – ham qabul qilinadi. Shuning uchun maqola yozishdan oldin tegishli jurnalning mualliflar uchun talablari bilan albatta tanishish zarur.

[72] Tashpulatov S.Sh., Botirova R.X., Cherunova I.V. Ilmiy maqola yozish asoslari. Ilmiy maqola qanday yoziladi? – Toshkent, 2017.

[73] Swales J.M., Feak C.B. Academic Writing for Graduate Students. 3rd ed. Tashpulatov S.Sh., Botirova R.X., Cherunova I.V. Ilmiy maqola yozish asoslari. Ilmiy maqola qanday yoziladi?.

Sarlavha. Sarlavha maqolaning “yuzi” bo‘lib, o‘quvchi maqolani o‘qish yoki o‘qimaslik haqidagi qarorni ko‘pincha sarlavhaga qarab qabul qiladi. Yaxshi sarlavha aniq, ixcham, informativ bo‘ladi va maqolaning asosiy mazmunini aks ettiradi. Unda umumiy iboralar (“ba’zi masalalar”, “ayrim mulohazalar”, “haqida”) imkon qadar qo‘llanmaydi. Masalan, “Adabiyot darslarining ayrim masalalari haqida” sarlavhasi noaniq; “8-sinf adabiyot darslarida dramatik asarni sahnalashtirish orqali tahlil qilish metodikasi” sarlavhasi esa maqola nima haqida ekanini darhol anglatadi.

Kirish. Kirish qismida o‘quvchiga muammoning mohiyati, uning dolzarbligi va maqolaning maqsadi tushuntiriladi. Kirishni “umumiydan xususiyga” tamoyili asosida qurish tavsiya etiladi: avval keng kontekst (ta’lim sohasidagi vazifa), so‘ngra aniq muammo, keyin bu muammo bo‘yicha bilimlardagi bo‘shliq va nihoyat maqolaning maqsadi. J.Svels bu tuzilmani “CARS modeli” (Create a Research Space – tadqiqot maydonini yaratish) deb ataydi va uni uch harakatga ajratadi: hududni belgilash (mavzuning muhimligini ko‘rsatish), bo‘shliqni aniqlash (nima o‘rganilmaganini ko‘rsatish), bo‘shliqni egallash (o‘z tadqiqotini taqdim etish)[74].

Adabiyotlar tahlili. Bu qismda muammo bo‘yicha avval qilingan ishlar qisqa va tanqidiy sharhlanadi. Adabiyotlar tahlili oddiy ro‘yxat emas: unda turli mualliflarning qarashlari guruhlanadi, qiyoslanadi va muallifning ular haqidagi munosabati bildiriladi. Masalan: “Adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish masalasi A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliyev ishlarida keng yoritilgan[75]. Ularda tahlilning asosiy yo‘llari – muallif izidan borish, obrazlar bo‘yicha, muammoli tahlil – ishlab chiqilgan. Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova esa interfaol usullarning tahlil jarayonidagi o‘rniga e’tibor qaratgan[76]. Biroq dramatik asarlarni sahnalashtirish orqali tahlil qilish masalasi metodik adabiyotlarda

[74] Swales J.M., Feak C.B. Academic Writing for Graduate Students. 3rd ed.

[75] Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi.

[76] Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma.

alohida tadqiq etilmagan.” Bu xatboshida mualliflar guruhlangan, ularning hissasi koʻrsatilgan va boʻshliq aniqlangan.

Ona tili va adabiyot oʻqituvchisi adabiyotlar tahlilida mahalliy olimlar – metodistlar, tilshunoslar va adabiyotshunoslarning ishlariga birinchi navbatda murojaat qilishi kerak. Bu ham ilmiy an’anaga hurmat, ham ishlanmaning oʻzbek maktabi sharoitiga mosligini ta’minlovchi omildir.

Metodlar. Bu qismda tadqiqot qanday oʻtkazilgani shunday batafsil bayon etiladiki, boshqa oʻqituvchi uni takrorlay olsin. Unda quyidagilar koʻrsatiladi: tadqiqot qayerda va qachon oʻtkazilgani; ishtirokchilar (sinflar, oʻquvchilar soni, ularning tanlanish tartibi); qoʻllangan usul yoki metodikaning tavsifi; ma’lumot toʻplash vositalari (test, soʻrovnoma, kuzatish varaqasi, ijodiy ishlar); natijalarni tahlil qilish usullari. Koʻp oʻqituvchilar maqolasida aynan shu qism yetishmaydi; natijada oʻquvchi taklif etilgan natijaga qanday erishilganini tushunmaydi va unga ishonch hosil qilolmaydi.

Natijalar. Natijalar qismida olingan ma’lumotlar obyektiv, talqinsiz bayon etiladi. Raqamli ma’lumotlar jadval yoki diagramma shaklida beriladi; har bir jadval va rasm raqamlanadi, nomlanadi va matnda unga havola qilinadi. Masalan: “1-jadvalda tajriba va nazorat sinflarida oʻtkazilgan boshlang‘ich va yakuniy nazorat natijalari keltirilgan.” Natijalarni koʻrsatishda faqat muvaffaqiyatlarni emas, kutilmagan yoki salbiy natijalarni ham halol qayd etish ilmiy halollik talabidir.

Muhokama. Muhokama qismida natijalar talqin qilinadi: ular nimani anglatadi, nima uchun aynan shunday boʻldi, boshqa tadqiqotlar natijalariga mos keladimi yoki farq qiladimi, tadqiqotning cheklovlari nimada. Masalan: “Tajriba sinfida oʻquvchilarning dramatik asar qahramonlari xarakterini tahlil qilish koʻnikmasi 27 foizga oshdi. Bu natija K.Stanislavskiyning «rolga kirish» tamoyiliga asoslangan sahnalashtirish usulining oʻquvchida qahramon ichki dunyosini his qilish imkonini berishi bilan izohlanadi. Biroq tadqiqot faqat ikki sinfda oʻtkazilgani uchun natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi.”

Xulosa. Xulosa qismida maqolaning asosiy natijalari qisqa va aniq bayon etiladi, ularning amaliy ahamiyati koʻrsatiladi, keyingi tadqiqot yoʻnalishlari taklif qilinadi. Xulosada yangi maʼlumot yoki manba keltirilmaydi, asosiy qismdagi fikrlar soʻzma-soʻz takrorlanmaydi. Xulosaning eng yaxshi shakli – kirishda qoʻyilgan maqsadga qaytib, unga qanday erishilganini koʻrsatishdir.

Annotatsiyaning tuzilishi. Uslubiy ishlanma va maqolaning annotatsiyasi quyidagi elementlarni oʻz ichiga olishi maqsadga muvofiq:

mavzu va muammo – ish qaysi masalaga bagʻishlangan (1 gap);

maqsad – ishning nimaga qaratilgani (1 gap);

mazmun yoki metodlar – unda nimalar yoritilgani yoki qanday usullar qoʻllangani (1–2 gap);

natijalar – asosiy natija yoki taklif (1–2 gap);

amaliy ahamiyati va oʻquvchilar doirasi – ish kimlar uchun foydali (1 gap).

Annotatsiyaga qoʻyiladigan talablar: ixchamlik (ortiqcha soʻzlar, iqtiboslar, misollar va havolalar berilmaydi); mustaqillik (annotatsiya ishni oʻqimagan odamga ham tushunarli boʻlishi kerak); obyektivlik (baho beruvchi soʻzlar – “muhim”, “qiziqarli”, “ajoyib” – qoʻllanmaydi); ilmiy uslub (majhul nisbatdagi feʼllar, shaxssiz qurilmalar: “koʻrib chiqilgan”, “taklif etilgan”, “asoslangan”).

Annotatsiya namunalari. Quyida bir mavzu boʻyicha muvaffaqiyatsiz va muvaffaqiyatli annotatsiyalar qiyoslanadi.

Muvaffaqiyatsiz namuna: “Ushbu ishimda men juda muhim va dolzarb boʻlgan mavzuni yoritishga harakat qildim. Hozirgi kunda taʼlim sohasida katta oʻzgarishlar boʻlmoqda. Ishim ona tili oʻqituvchilari uchun juda foydali boʻladi deb oʻylayman.”

Bu annotatsiyada mavzu ham, maqsad ham, mazmun ham, natija ham koʻrsatilmagan; unda faqat muallifning shaxsiy bahosi bor.

Muvaffaqiyatli namuna: “Uslubiy tavsiyada 5-sinf ona tili darslarida oʻquvchilarning matndan xulosa chiqarish koʻnikmasini rivojlantirish masalasi koʻrib chiqilgan. Xalqaro oʻqish savodxonligi baholash yondashuvlari asosida matn bilan ishlashning toʻrt bosqichli modeli taklif etilgan. Model uchun darslik matnlariga

asoslangan 48 ta topshiriq va ularni baholash rubrikasi ishlab chiqilgan. Ikki sinfda o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra xulosa chiqarish topshiriqlarini to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar ulushi 23 foizdan 57 foizga ko‘tarilgan. Tavsiya ona tili fani o‘qituvchilari va metodik birlashma rahbarlari uchun mo‘ljallangan.”

Bu annotatsiya besh gapdan iborat bo‘lib, muammo, mazmun, materiallar, natija va o‘quvchilar doirasini aniq ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Kalit so‘zlar – ishning asosiy mazmunini ifodalovchi va uni axborot tizimlarida izlashni osonlashtiruvchi so‘z va so‘z birikmalari. Ommalashtirish talablariga ko‘ra kalit so‘zlar soni 6–8 ta bo‘lishi kerak[77]. Kalit so‘zlarni tanlashda quyidagilarga e’tibor beriladi: ular ishning asosiy tushunchalarini aks ettiradi; umumiy so‘zlar (“ta’lim”, “o‘quvchi”, “dars”) tanlanmaydi, chunki ular izlashda samarasiz; birikma 2–3 so‘zdan oshmaydi; kalit so‘zlar sarlavhadagi so‘zlarni qisman takrorlashi mumkin, ammo uni to‘liq qaytarmasligi kerak; kalit so‘zlar bosh kelishikda, birlik shaklida beriladi.

Yuqoridagi annotatsiya uchun kalit so‘zlar namunasi: o‘qish savodxonligi, matnni tushunish, xulosa chiqarish, o‘qish strategiyasi, matn bilan ishlash, baholash rubrikasi, 5-sinf ona tili.

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Ilmiy-metodik maqolaning tuzilmasini loyihalash.

Maqsad: tinglovchilarda ilmiy-metodik maqolaning tarkibiy qismlarini farqlash, ularning vazifasini tushunish va o‘z maqolasi uchun batafsil reja (tuzilmaviy loyiha) tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** guruh va yakka ish. **Jihozlar:** qismlarga bo‘lib qirqilgan namunaviy maqola, “Maqola loyihasi” shabloni, rangli stikerlar.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Tinglovchilarga bitta maqolaning faqat sarlavhasi va annotatsiyasi beriladi. Ular maqolani o‘qish-o‘qimasliklarini va nima uchunligini aytadi.

[77] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

2. “Maqolani yig‘ish” (20 daqiqa). Guruhlarga qismlarga qirqilgan va aralashtirilgan namunaviy maqola beriladi. Guruh qismlarni to‘g‘ri tartibga joylashtiradi va har bir qismning nomini va vazifasini stikerga yozadi.

3. Nazariy umumlashtirish (15 daqiqa). Guruhlar natijalari asosida maqola tuzilmasi, har bir qismning vazifasi va CARS modeli tushuntiriladi.

4. “Maqola loyihasi” (25 daqiqa). Har bir tinglovchi o‘z maqolasi uchun loyiha tuzadi: sarlavha; kirishdagi uch harakat (hudud – bo‘shliq – egallash); adabiyotlar tahlilida tayaniladigan 5–7 manba; metodlar (qayerda, kim bilan, qanday vositalar bilan); kutilayotgan natijalar va ularni ko‘rsatish shakli (jadval, diagramma); xulosa g‘oyasi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). Ikki-uch loyiha muhokama qilinadi. Tinglovchilar “Maqolamning eng zaif qismi …, uni kuchaytirish uchun …” gapini davom ettiradi.

Kutilayotgan natija: har bir tinglovchida o‘z maqolasining batafsil tuzilmaviy loyihasi bo‘ladi.

Baholash: maqola qismlarini to‘g‘ri tartiblash (3 ball), loyihaning to‘liqligi (5 ball), refleksiyaning chuqurligi (2 ball).

Nazorat savollari

1. “Tezis” so‘zining ma’nosi va kelib chiqishini izohlang.
2. Tezis maqoladan qanday farq qiladi?
3. Tezisning tarkibiy qismlarini sanab bering.
4. Nima uchun tezisning asosiy g‘oyasini bir gapda ifodalash muhim?
5. Maqolaning tarkibiy qismlarini sanab bering.
6. CARS modelining uch harakatini izohlang.
7. Metodlar qismida nimalar ko‘rsatilishi kerak?
8. Natijalar va muhokama qismlarining farqi nimada?
9. Annotatsiya qanday elementlarni o‘z ichiga oladi?
10. Kalit so‘zlarni tanlashda nimalarga e’tibor beriladi?

Topshiriqlar

1. Quyidagi mavzular uchun tezisning asosiy g‘oyasini bir gapda ifodalang: “Lug‘at diktanti”, “Rolli o‘qish”, “Kitobxonlik kundaligi”.

2. O‘z tajribangiz bo‘yicha tezis uchun 5 bandli reja tuzing.

3. Paragrafdagi namunaviy tezisni 1000 belgigacha qisqartiring, qaysi ma’lumotlarni olib tashlaganingizni izohlang.

4. Quyidagi sarlavhalarni takomillashtiring: “Ona tili darslarining ba’zi masalalari”, “Adabiyot va tarbiya haqida”, “Interfaol usullar”.

5. O‘z maqolangiz uchun CARS modeli asosida kirish qismini (2 xatboshi) yozing.

6. Maqolangiz mavzusi bo‘yicha 5 ta manbani guruhlab, adabiyotlar tahlili xatboshisini yozing.

7. O‘z tajriba ishingizning “Metodlar” qismini boshqa o‘qituvchi takrorlay oladigan darajada batafsil yozing.

8. O‘z ishlanmangiz uchun 5–6 gapli annotatsiya yozing.

9. Annotatsiyangiz uchun 7 ta kalit so‘z tanlang va har birining tanlanish sababini izohlang.

10. Annotatsiyangizni rus va ingliz tillariga tarjima qilib, chet tili o‘qituvchisi bilan tekshiring.

Test topshiriqlari

1. Tezisning odatiy hajmi qancha?
   A) 10–15 sahifa
   B) 5–10 sahifa
   C) 1–3 sahifa
   D) Yarim sahifa
2. Tezis yozishning eng muhim bosqichi qaysi?
   A) Shriftni tanlash
   B) Asosiy g‘oyani bir gapda ifodalash
   C) Adabiyotlar ro‘yxatini tuzish
   D) Sarlavhani bezash
3. Tezis maqoladan qaysi jihati bilan farq qiladi?
   A) Fikrlar batafsil asoslanmaydi, mohiyati e’lon qilinadi
   B) Tezisda natija bo‘lmaydi

C) Tezis badiiy uslubda yoziladi
D) Tezisda adabiyot koʻrsatilmaydi

4. CARS modeli muallifi kim?
A) B.Blum
B) D.Kolb
C) G.Viggins
D) J.Svels

5. Maqolada tadqiqot qanday oʻtkazilgani qaysi qismda bayon etiladi?
A) Metodlar
B) Xulosa
C) Annotatsiya
D) Sarlavha

6. Natijalarni talqin qilish, boshqa tadqiqotlar bilan qiyoslash va cheklovlarni koʻrsatish qaysi qismga tegishli?
A) Kirish
B) Natijalar
C) Muhokama
D) Adabiyotlar

7. Xulosa qismida nima qilinmaydi?
A) Yangi manba keltirilmaydi
B) Asosiy natijalar bayon etiladi
C) Amaliy ahamiyat koʻrsatiladi
D) Keyingi tadqiqot yoʻnalishlari taklif etiladi

8. Ommalashtirish talablariga koʻra annotatsiya hajmi qancha boʻlishi kerak?
A) 1–2 gap
B) 10–15 gap
C) 1 sahifa
D) 4–8 gap

9. Ommalashtirish talablariga koʻra kalit soʻzlar soni qancha?
A) 6–8 ta
B) 2–3 ta
C) 10–15 ta
D) Cheklanmagan

10. Annotatsiyada qaysi so‘zlardan foydalanilmaydi?
A) “Ko‘rib chiqilgan”
B) “Taklif etilgan”
C) “Ajoyib”, “juda qiziqarli”
D) “Asoslangan”

2.2-§. Uslubiy tavsiya va uslubiy qo‘llanma tayyorlash texnologiyasi

Uslubiy tavsiya. Uslubiy tavsiya – o‘quv jarayonidagi dolzarb metodik muammoni hal etish bo‘yicha asoslangan takliflar va ularni amalga oshirish yo‘llari bayon etilgan ishlanma. Majmuada ta’kidlanganidek, uslubiy tavsiya metodik masalalar bo‘yicha o‘qituvchilarga beriladigan tavsiyalar to‘plami bo‘lib, u o‘quv jarayonidagi dolzarb masalalarni hal qilish uchun yoziladi, ta’limdagi muammolarni yoritadi va zamonaviy usullardan foydalanish imkoniyatini yaratadi[78]. Tavsiyaning ko‘rsatmadan farqi shundaki, unda taklif etilayotgan usul nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi, uni qo‘llash ixtiyoriy bo‘lib, o‘qituvchiga tanlash imkoniyati beriladi. Tavsiya, odatda, bitta muammo va uning yechimiga bag‘ishlanadi: bitta usul, bitta texnologiya yoki bitta topshiriqlar tizimi.

Masalan, “6-sinf ona tili darslarida «Tinish belgisi ustaxonasi» mashqi orqali punktuatsion savodxonlikni oshirish” mavzusi uslubiy tavsiya uchun juda mos: unda bitta muammo (punktuatsion xatolar), bitta yechim (mashq tizimi) va bitta sinf doirasidagi natijalar bor.

Uslubiy qo‘llanma. Uslubiy qo‘llanma – o‘qitishning muayyan bo‘limi, mavzusi yoki yo‘nalishi bo‘yicha nazariy asoslar, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, topshiriqlar va baholash materiallarini tizimli ravishda o‘z ichiga olgan kengroq ishlanma. Majmuaga ko‘ra uslubiy qo‘llanma o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish uchun yoziladi, o‘quv dasturlarini tushunish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi, muayyan mashg‘ulot uchun kerakli ma’lumotlar va harakatlar ketma-ketligini beradi[79]. Qo‘llanma bitta usul emas, balki usullar tizimini, bitta dars emas, balki darslar turkumini qamrab oladi. Unda nazariy qism, ko‘pincha, alohida bob sifatida beriladi; amaliy qismda esa bir

[78] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[79] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

necha dars ishlanmasi, topshiriqlar to‘plami, baholash materiallari va ilovalar joy oladi.

Masalan, “5–6-sinflarda ona tili darslarida punktuatsion savodxonlikni rivojlantirish texnologiyasi” mavzusi uslubiy qo‘llanma uchun mos: unda punktuatsion savodxonlikning nazariy asoslari, xatolar tipologiyasi, turli mashq turlari, har bir sintaktik mavzu bo‘yicha dars ishlanmalari, nazorat ishlari va baholash mezonlari tizimli yoritiladi.

Venn diagrammasi: umumiy va farqli jihatlar. Majmuada uslubiy tavsiya va qo‘llanmaning umumiy va farqli jihatlarini Venn diagrammasi asosida tushuntirish taklif etilgan[80]. Bu diagrammani quyidagi jadval shaklida ifodalash mumkin.

Faqat uslubiy tavsiyaga xos	**Umumiy jihatlar**	**Faqat uslubiy qo‘llanmaga xos**
Bitta dolzarb muammoga bag‘ishlanadi	O‘quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan	Bo‘lim yoki yo‘nalishni tizimli qamrab oladi
Bitta usul yoki topshiriqlar tizimini taklif etadi	O‘qituvchiga mo‘ljallangan	Usullar tizimi va darslar turkumini beradi
Hajmi kamida 10 bet	Ilmiy-metodik asosga ega	Hajmi kamida 24 bet
Nazariy qism qisqa (kirish doirasida)	Amaliy namunalar bilan ta’minlanadi	Nazariy qism alohida bob sifatida
Bir necha ilova	Bir xil tuzilma: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar	Ko‘p sonli dars ishlanmalari va ilovalar
Tez tayyorlanadi, tez qo‘llanadi	Ommalashtirishga taqdim etilishi mumkin	Uzoq muddatli tajriba asosida tayyorlanadi

Majmuada to‘g‘ri ta’kidlanganidek, uslubiy qo‘llanma ham, uslubiy tavsiya ham o‘quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan, bir-

[80] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

biriga o‘xshash hujjat turlaridir[81]. Ularning farqi ko‘lam va tizimlilikda.

Turni tanlash algoritmi. O‘qituvchi o‘z tajribasi uchun ishlanma turini tanlashda quyidagi savollarga ketma-ket javob berishi mumkin.

1. Mening tajribam bitta usul (mashq, metod, vosita) haqidami yoki bir necha usuldan iborat tizim haqidami? Agar bitta usul bo‘lsa – tavsiya; tizim bo‘lsa – keyingi savolga o‘tiladi.

2. Tajribam qancha muddatni qamrab oladi? Agar bir-ikki chorak bo‘lsa – tavsiya ma’qul; bir yoki bir necha o‘quv yili bo‘lsa – qo‘llanma.

3. Menda nechta sinalgan dars ishlanmasi va topshiriqlar to‘plami bor? Agar 2–3 ta dars va bir to‘plam bo‘lsa – tavsiya; 8–10 va undan ortiq dars ishlanmasi, bir necha to‘plam bo‘lsa – qo‘llanma.

4. Ishlanmamda nazariy asoslarni alohida bob sifatida berish zarurmi? Agar zarur bo‘lmasa – tavsiya; zarur bo‘lsa – qo‘llanma.

5. Tayyorlash uchun qancha vaqtim bor? Tavsiya 1–2 oyda, qo‘llanma esa ko‘pincha 4–6 oy va undan ko‘proq vaqtda tayyorlanadi.

Bu savollar mexanik qoida emas, balki o‘ylash uchun yo‘nalishdir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar uchun to‘g‘ri yo‘l – avval uslubiy tavsiya yozib, uni ommalashtirish, keyin tajribani kengaytirib, uni uslubiy qo‘llanmaga aylantirish. Bunday izchillik 1.2-§ da ko‘rib chiqilgan ilmiy-metodik kompetentlik darajalariga ham mos keladi.

Uslubiy tavsiya tayyorlash jarayoni. Uslubiy tavsiya tayyorlash – bir martalik yozish harakati emas, balki bir necha oy davom etadigan bosqichli jarayon. Majmuada “Ijodiy parvoz” nomi bilan berilgan besh vazifa bu jarayonning mohiyatini yaxshi ochib beradi: o‘z tajribasiga suyanib, faoliyatda ish bergan metodlarni saralash; murakkab mavzularni oson o‘rgatish yo‘llarini yozib chiqish; ta’limdagi mavjud muammolarni yozib,

[81] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

ularga yechim izlash; muammo yechimi borasida qilingan izlanishlar bilan tanishish; tavsiya etilayotgan metodlar yordamida namunaviy dars ishlanmasini tayyorlash[82]. Bu vazifalar asosida uslubiy tavsiya tayyorlashni quyidagi to‘qqiz bosqichga ajratish mumkin.

1-bosqich. Tajriba inventarizatsiyasi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqadi: so‘nggi 2–3 yilda qaysi usullar o‘quvchilarda eng yaxshi natija bergan, qaysi topshiriqlarni o‘quvchilar qiziqib bajargan, hamkasblar qaysi usullar haqida so‘ragan. Bu bosqichda pedagogik kundalik, dars ishlanmalari, o‘quvchilar ishlari, nazorat ishi natijalari asosiy material bo‘ladi. Natijada “Mening sinalgan usullarim” ro‘yxati tuziladi.

2-bosqich. Muammoni aniqlash va mavzuni tanlash. Ro‘yxatdagi usullardan qaysi biri eng dolzarb muammoni hal etishga xizmat qilishi aniqlanadi. Mavzu 1.3-§ da ko‘rib chiqilgan “voronka” texnikasi yordamida toraytiriladi va “Mavzu pasporti” tuziladi.

3-bosqich. Adabiyotlarni o‘rganish. Muammo bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotlar, ommalashtirilgan ishlar, me’yoriy hujjatlar o‘rganiladi. Bu bosqichning maqsadi – o‘z g‘oyasining yangiligini aniqlash, uni nazariy asoslash va boshqalar tajribasidan foydalanish. Ommalashtirish platformasida shu mavzudagi ishlar bilan tanishish ayniqsa muhim: majmuada qayd etilganidek, ommalashtirilgan ishlar bilan tanishish boshqa o‘qituvchilar tomonidan sinovdan o‘tgan metodlarni o‘rganish, o‘z tajribasini boshqalarnikiga solishtirish va kasbiy o‘sishga erishish imkonini beradi[83].

4-bosqich. Usulni tizimlashtirish. O‘qituvchining amaliyotida usul ko‘pincha “intuitiv” holda qo‘llanadi. Tavsiya yozish uchun uni aniq tizimga solish kerak: usulning maqsadi, bosqichlari, har bir bosqichda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, vaqt

[82] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[83] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

taqsimoti, zarur materiallar, baholash tartibi. Bu bosqichda usulning sxemasi yoki algoritmi chiziladi.

5-bosqich. Amalda sinash va natijalarni qayd etish. Tizimlashtirilgan usul kamida bir chorak davomida darslarda qo‘llanadi, natijalar 2.4-§ da ko‘rib chiqilgan usullar bilan qayd etiladi. Agar usul avval ham qo‘llangan bo‘lsa, bu bosqichda uning natijalari aniq raqamlar bilan hujjatlashtiriladi.

6-bosqich. Tuzilma va mundarijani loyihalash. Tavsiyaning tuzilmasi belgilanadi, mundarija tuziladi. Majmuada ta’kidlanganidek, to‘g‘ri tuzilgan mundarija barcha bo‘limlarni mantiqiy tartibda joylashtiradi, foydalanuvchiga materialni oson qidirish va tushunishda yordam beradi hamda hujjatning professional darajasini ko‘rsatadi[84].

7-bosqich. Matnni yozish. Mundarija asosida tavsiya matni yoziladi. Bu bosqichda 1.4-§ dagi ilmiy uslub talablariga rioya qilinadi.

8-bosqich. Tahrir, muhokama va taqriz. Matn uch bosqichli tahrirdan o‘tkaziladi, metodik birlashmada muhokama qilinadi, taqrizchilar fikri olinadi va izohlar asosida takomillashtiriladi.

9-bosqich. Rasmiylashtirish va taqdim etish. Ishlanma texnik talablar asosida rasmiylashtiriladi va pedagogik kengash qarori bilan ommalashtirish platformasiga yuklanadi (2.5-§).

Uslubiy tavsiyaning tuzilmasi. Ommalashtirish talablariga ko‘ra metodik tavsiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi: muqova; sarlavha sahifasi; annotatsiya; mundarija; kirish; asosiy qism; xulosa; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati; ilovalar[85]. Quyida har bir qismning mazmuni ko‘rib chiqiladi.

Muqova va sarlavha sahifasi. Muqovada ishlanma tayyorlangan muassasa nomi (yuqorida), muallifning familiyasi va ismi, ishlanma nomi (o‘rtada, bosh harflar bilan, qalin shriftda), ishlanma turi (“uslubiy tavsiya”), shahar va yil (pastda) ko‘rsatiladi[86]. Sarlavha sahifasining orqa tomonida (ichki

---

[84] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[85] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[86] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

muqovada) tuzuvchi (muallif) haqida to‘liq ma’lumot, taqrizchilar (familiya, ism-sharif, lavozimi, ilmiy darajasi), ishlanma qaysi kengash tomonidan, qachon va qaysi bayonnoma bilan tavsiya etilgani ko‘rsatiladi.

Annotatsiya. 4–8 gapdan iborat bo‘lib, ishlanmaning mavzusi, maqsadi, mazmuni, yangiligi va kimlar uchun mo‘ljallanganini ifodalaydi; undan keyin 6–8 kalit so‘z beriladi[87]. Annotatsiya yozish texnologiyasi 2.1-§ da batafsil ko‘rib chiqilgan.

Mundarija. Ishlanmaning barcha bo‘limlari va ularning sahifalari ko‘rsatiladi. Mundarija Word dasturining avtomatik mundarija funksiyasi yordamida tuzilsa, sahifa raqamlari xatosiz bo‘ladi.

Kirish. Kirish qismida quyidagilar yoritiladi: mavzuning dolzarbligi (me’yoriy hujjatlar va amaliy muammo asosida); muammoning o‘rganilganlik darajasi (qisqa); tavsiyaning maqsadi va vazifalari; yangiligi va muallifning shaxsiy hissasi; amaliy ahamiyati; tavsiyaning tuzilishi. Uslubiy tavsiyada kirish 1,5–2 sahifadan oshmagani ma’qul.

Asosiy qism. Tavsiyaning yuragi. U, odatda, 2–4 bo‘limdan iborat bo‘ladi va quyidagi mantiqiy tartibda quriladi.

Birinchi bo‘lim – muammoning qisqa nazariy-metodik asosi: tayanch tushunchalar, usulning nazariy ildizlari, uning o‘quvchilar yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi.

Ikkinchi bo‘lim – usulning (texnologiyaning) tavsifi: maqsadi, bosqichlari, har bir bosqichda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, zarur materiallar, vaqt taqsimoti. Bu bo‘limda “Qanday o‘qitish kerak?” savoliga to‘liq javob berilishi, topshiriq namunalari, sxema va jadvallar bilan izohlanishi lozim[88].

Uchinchi bo‘lim – usulni darsda qo‘llash namunalari: 1–3 ta dars ishlanmasi yoki dars fragmentlari, topshiriqlar to‘plami.

To‘rtinchi bo‘lim – natijalar va baholash: tajriba-sinov natijalari, o‘quvchilar yutuqlarini baholash tartibi va mezonlari.

Xulosa. Xulosada tavsiyaning asosiy natijalari, usulni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar (qaysi sharoitda, qaysi sinflarda,

[87] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.
[88] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

qanday cheklovlar bilan), keyingi rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rsatiladi. Xulosa 1 sahifa atrofida bo‘ladi va ko‘pincha raqamlangan tavsiyalar shaklida beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. Kamida 5 ta manba; ular 1.4-§ da ko‘rsatilgan tartibda guruhlanadi va rasmiylashtiriladi[89].

Ilovalar. Asosiy matnga sig‘magan, ammo foydalanuvchi uchun zarur materiallar: dars ishlanmalari, tarqatma materiallar, kartochkalar, test va nazorat ishlari, so‘rovnoma shakllari, baholash rubrikalari, fotosuratlar. Har bir ilova raqamlanadi va nomlanadi; matnda unga havola beriladi[90].

“Hashar asar” usulida jamoaviy qoralama. Majmuada uslubiy tavsiya qoralamasini guruhda “Hashar asar” usulida shakllantirish taklif etilgan[91]. Bu usul o‘zbek xalqining azaliy “hashar” an’anasiga tayanadi: bir kishi qila olmaydigan ishni jamoa birgalikda tez va sifatli bajaradi. Usulning mazmuni quyidagicha: 4–5 kishilik guruh bitta mavzuni tanlaydi; tavsiya tuzilmasi qismlarga bo‘linadi (kirish, nazariy asos, usul tavsifi, dars namunasi, baholash); har bir a’zo bitta qismni yozadi; so‘ngra qismlar birlashtiriladi, guruh birgalikda matnni tahrir qiladi, bog‘lovchi jumlalarni qo‘shadi va yaxlit qoralamani taqdim etadi. “Hashar asar” usulining afzalligi shundaki, u qisqa vaqt ichida (30–40 daqiqa) tavsiyaning to‘liq skeletini yaratish va har bir tinglovchiga tuzilmani amalda his qilish imkonini beradi. Albatta, bu qoralama keyinchalik har bir muallif tomonidan mustaqil ravishda o‘z tajribasi asosida to‘liq ishlanmaga aylantiriladi.

Qo‘llanmaning umumiy tuzilmasi. Ommalashtirish talablariga ko‘ra metodik qo‘llanma ham tavsiya kabi tuzilmaga ega: muqova, sarlavha sahifasi, annotatsiya, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar[92]. Biroq

---

[89] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[90] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[91] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[92] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

qo‘llanmada asosiy qism kengroq va murakkabroq bo‘lib, odatda boblar va paragraflarga bo‘linadi. Qo‘llanmaning asosiy qismini quyidagi uch modeldan biri asosida qurish mumkin.

Chiziqli (mavzuiy) model – asosiy qism o‘quv dasturidagi mavzular tartibida quriladi: har bir bob yoki paragraf bitta mavzuga bag‘ishlanadi va unda nazariy izoh, metodik tavsiya, dars ishlanmasi va topshiriqlar beriladi. Masalan, “7-sinf ona tili darslarida morfologiyani o‘rgatish” qo‘llanmasida paragraflar so‘z turkumlari tartibida joylashadi.

Nazariya – amaliyot modeli – birinchi bob nazariy-metodik asoslarga, ikkinchi bob usullar tavsifiga, uchinchi bob amaliy materiallarga (dars ishlanmalari, topshiriqlar) bag‘ishlanadi. Bu model ko‘p uchraydi va ommalashtirish talablariga yaxshi mos keladi.

Modulli model – qo‘llanma nisbatan mustaqil modullardan iborat bo‘ladi, har bir modul o‘z maqsadi, mazmuni, amaliy mashg‘uloti va nazorat materialiga ega. Bu model malaka oshirish va mustaqil ta’lim uchun qulay. Mazkur qo‘llanma ham modulli modelga yaqin tuzilgan: har bir paragraf nazariy qism, amaliy mashg‘ulot, nazorat savollari, topshiriqlar va testlardan iborat.

Model	**Tuzilishi**	**Afzalligi**	**Qachon qo‘llanadi**
Chiziqli (mavzuiy)	Dastur mavzulari tartibida	Darsga tayyorlanishda qulay	Bitta sinf yoki bo‘lim bo‘yicha qo‘llanma
Nazariya – amaliyot	Nazariy bob + usullar + amaliy materiallar	Ilmiy asoslanganlik yuqori	Yangi texnologiyani joriy etish
Modulli	Mustaqil modullar	Moslashuvchan, mustaqil ta’limga qulay	Malaka oshirish, metodik birlashma mashg‘ulotlari

Texnik talablar. Ommalashtirishga taqdim etiladigan metodik qo‘llanma va tavsiyalar uchun quyidagi asosiy texnik talablar belgilangan[93].

[93] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

Parametr	Talab
Fayl formati	Microsoft Word (yuklash uchun PDF)
Hajm	Tavsiya – kamida 10 bet, qo‘llanma – kamida 24 bet
Shrift	Times New Roman
Shrift o‘lchami	12–14 pt
Qatorlar oralig‘i	1,0 (ayrim talablarda 1,5)
Hoshiyalar	2–2,5 sm (standart format)
Sahifalash	Avtomatik, sahifa raqamlari
Jadvallar	Word dasturida yaratilgan jadval (rasm shaklida emas)
Havolalar	Kvadrat qavs ichida
Manbalar	Kamida 5 ta
Annotatsiya	4–8 gap
Kalit so‘zlar	6–8 ta

Qatorlar oralig‘i va hoshiyalar bo‘yicha turli hujjatlarda farqli ko‘rsatkichlar uchrashi mumkin; shuning uchun ishlanmani topshirishdan oldin amaldagi talablarni ommalashtirish platformasi va Respublika ta’lim markazining rasmiy xabarlari orqali aniqlash lozim[94].

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: “Hashar asar” usulida uslubiy tavsiya qoralamasini shakllantirish.

Maqsad: tinglovchilarda uslubiy tavsiya tuzilmasini amalda qo‘llash, jamoaviy ravishda tavsiya qoralamasini yaratish va uni taqdim etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** “Hashar asar” usuli asosida guruh ishi. **Jihozlar:** 1-tarqatma (mundarija shabloni), tavsiya mavzulari ro‘yxati, noutbuk yoki A4 qog‘ozlar, proyektor.

[94] https://ommalashtirish.uz – O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish platformasi.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). “Ijodiy parvoz” vazifalari bilan tanishtiriladi. Har bir tinglovchi 1-vazifani bajaradi: o‘z faoliyatida ish bergan uchta metodni yozadi.

2. Mundarija tuzish (15 daqiqa). Tinglovchilar 4–5 kishilik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh ro‘yxatdan bitta mavzuni tanlaydi va 1-tarqatmani to‘ldiradi – tavsiya mundarijasini hamkorlikda ishlab chiqadi.

3. “Hashar asar” (30 daqiqa). Guruh a’zolari mundarija bo‘limlarini o‘zaro taqsimlaydi va har biri o‘z qismini yozadi (15 daqiqa). So‘ngra qismlar birlashtiriladi, guruh matnni birgalikda o‘qib, takrorlarni olib tashlaydi, bog‘lovchi jumlalarni qo‘shadi (15 daqiqa).

4. Taqdimot (15 daqiqa). Har bir guruh qoralamasini 3 daqiqada taqdim etadi. Boshqa guruhlar paragrafdagi “ko‘p uchraydigan kamchiliklar” ro‘yxati asosida izoh beradi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). “3-2-1” usuli: uchta yangi bilim, ikkita qiyinchilik, bitta keyingi qadam[95].

Kutilayotgan natija: har bir guruh uslubiy tavsiyaning to‘liq tuzilmaga ega qoralamasini yaratadi; har bir tinglovchi tavsiya tuzilmasini amalda o‘zlashtiradi.

Baholash: mundarijaning mantiqiyligi (3 ball), qoralama qismlarining mazmuni (4 ball), taqdimot sifati (3 ball).

Nazorat savollari

1. Uslubiy tavsiya va uslubiy qo‘llanma faqat hajmi bilan farq qiladimi? Javobingizni asoslang.
2. Uslubiy ko‘rsatma qanday ishlanma va u qaysi savolga javob beradi?
3. Uslubiy tavsiyaning asosiy belgilarini sanab bering.
4. Ishlanma turini tanlash algoritmining savollarini ayting.
5. Majmuadagi “Ijodiy parvoz” vazifalari nimalardan iborat?

[95] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

6. Uslubiy tavsiya tayyorlash jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

7. Ommalashtirish talablariga koʻra uslubiy tavsiya qanday tarkibiy qismlardan iborat?

8. “Hashar asar” usulining mohiyati va afzalligi nimada?

9. Qoʻllanma asosiy qismining qanday tuzilmaviy modellari bor?

10. Nazariy bob qoʻllanmaning qancha qismini egallagani ma’qul va nima uchun?

Topshiriqlar

1. Uslubiy tavsiya va uslubiy qoʻllanma boʻyicha Venn diagrammasini mustaqil chizing va har bir qismga kamida 5 tadan belgi yozing.

2. Tur tanlash algoritmidagi besh savolga oʻz tajribangiz asosida yozma javob bering.

3. “Ijodiy parvoz”ning besh vazifasini oʻz tajribangiz asosida yozma bajaring.

4. Oʻz uslubiy tavsiyangiz uchun mundarija tuzing va har bir boʻlimning taxminiy hajmini koʻrsating.

5. Tavsiyangizning muqova va ichki muqova sahifalarini talablar asosida tayyorlang.

6. Tavsiyangizning kirish qismini (1,5–2 bet) yozing.

7. Tavsiyangiz xulosasini raqamlangan tavsiyalar shaklida yozing.

8. Ommalashtirish platformasidagi bitta uslubiy tavsiyani “koʻp uchraydigan kamchiliklar” roʻyxati asosida tahlil qiling.

9. Oʻz qoʻllanmangizning konsepsiya varagʻini toʻliq tuzing.

10. Oʻz ishlanmangiz uchun Word dasturida shablon (sahifa parametrlari, uslublar, sahifalash sozlangan boʻsh hujjat) tayyorlang.

Test topshiriqlari

1. Ommalashtirish talablariga koʻra uslubiy tavsiya va qoʻllanmaning eng kam hajmi qancha?

A) 5 va 10 bet

B) 10 va 50 bet
C) 10 va 24 bet
D) 24 va 48 bet

2. Bitta dolzarb muammo va uning yechimiga bag‘ishlangan ishlanma qaysi?
A) O‘quv-uslubiy majmua
B) Uslubiy tavsiya
C) O‘quv qo‘llanma
D) Monografiya

3. Uslubiy qo‘llanmaning tavsiyadan asosiy farqi nimada?
A) Faqat muqovasida
B) Faqat shriftida
C) Faqat muallif soni bilan
D) Ko‘lami va tizimliligida

4. Majmuada uslubiy tavsiya va qo‘llanmaning farqini tushuntirish uchun qaysi grafik organayzer taklif etilgan?
A) Venn diagrammasi
B) Baliq skeleti
C) Lotos guli
D) T-jadval

5. Majmuada uslubiy tavsiya qoralamasini guruhda shakllantirish uchun qaysi usul taklif etilgan?
A) “Aqliy hujum”
B) “Hashar asar”
C) “Zig-zag”
D) “Akvarium”

6. “Ijodiy parvoz” vazifalarining birinchisi qaysi?
A) O‘z tajribasiga suyanib, ish bergan metodlarni saralash
B) Namunaviy dars ishlanmasi tayyorlash
C) Adabiyotlar ro‘yxatini tuzish
D) Annotatsiya yozish

7. Muqovada ishlanma nomi qanday yoziladi?
A) Kichik harflar bilan, pastda
B) Kursivda, yuqorida
C) Bosh harflar bilan, qalin shriftda, o‘rtada
D) Ishlanma nomi yozilmaydi

8. Uslubiy tavsiyada kirish qismi qancha hajmdan oshmagani ma’qul?

A) 0,5 bet
B) 1,5–2 bet
C) 5–6 bet
D) 10 bet

9. Asosiy qismi o‘quv dasturidagi mavzular tartibida qurilgan qo‘llanma qaysi modelga mansub?

A) Chiziqli (mavzuiy)
B) Modulli
C) Nazariya – amaliyot
D) Spiralsimon

10. Nisbatan mustaqil, har biri o‘z maqsadi va nazorat materialiga ega qismlardan iborat qo‘llanma modeli qaysi?

A) Chiziqli
B) Nazariya – amaliyot
C) Modulli
D) Aralash

2.3-§. Dars ishlanmasi, topshiriq va baholash materiallarini ishlab chiqish

Dars ishlanmasi va texnologik xarita. Amaliyotda darsni loyihalashning ikki asosiy shakli qo‘llaniladi.

Dars ishlanmasi (dars loyihasi, dars rejasi-konspekti) – darsning maqsadi, turi, metodlari, jihozlari va har bir bosqichdagi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati matn shaklida batafsil yoritilgan hujjat. U darsning “ssenariysi”ga o‘xshaydi: unda o‘qituvchining savollari, topshiriqlar matni, kutilayotgan javoblar ham berilishi mumkin.

Texnologik xarita – darsning bosqichlari, vaqt, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, metod va vositalar, kutilayotgan natijalar jadval shaklida, ixcham ko‘rsatilgan hujjat. Texnologik xarita darsning mantiqiy tuzilishini bir qarashda ko‘rish imkonini beradi.

Jihat	**Dars ishlanmasi**	**Texnologik xarita**
Shakli	Matn (konspekt)	Jadval
Hajmi	3–6 bet	1–3 bet
Batafsillik	Yuqori: savollar, topshiriqlar matni, javoblar	O‘rta: faoliyat turlari, metodlar
Afzalligi	Boshqa o‘qituvchi to‘liq takrorlay oladi	Tuzilmani bir qarashda ko‘rsatadi
Qo‘llanishi	Ochiq dars, qo‘llanma ilovasi	Kundalik rejalashtirish, tavsiya ichida

Uslubiy tavsiya va qo‘llanmada ko‘pincha ikkala shakl uyg‘unlashtiriladi: dars texnologik xarita shaklida beriladi, unga topshiriqlar matni va tarqatma materiallar ilova qilinadi.

Dars ishlanmasining tarkibiy qismlari. Har qanday dars ishlanmasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy ma’lumotlar – fan, sinf, mavzu, dars soati (dasturdagi tartib raqami), dars turi.

Dars maqsadlari – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar yoki kompetensiyaviy yondashuvda shakllantiriladigan kompetensiyalar. Maqsadlar o‘lchanadigan shaklda ifodalanadi (1.3-§).

Kutilayotgan natijalar – dars yakunida o‘quvchi nimani biladi, nimani qila oladi.

Dars turi – yangi bilim beruvchi, mustahkamlash, takrorlash-umumlashtirish, nazorat, aralash, noan’anaviy dars.

Metod va usullar – qo‘llaniladigan an’anaviy va interfaol metodlar.

Jihozlar va manbalar – darslik, tarqatma materiallar, ko‘rgazmalar, AKT vositalari.

Darsning borishi – bosqichlar, vaqt, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati.

Baholash – o‘quvchilarni baholash usuli va mezonlari.

Uyga vazifa – differensiatsiyalangan uy vazifasi.

Dars bosqichlari. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsning bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Tashkiliy qism va motivatsiya (2–5 daqiqa) – o‘quvchilarni darsga tayyorlash, qiziqish uyg‘otish, muammoli savol yoki vaziyat yaratish.

2. O‘tgan mavzuni takrorlash va bilimlarni faollashtirish (5–8 daqiqa) – yangi mavzu uchun zarur bo‘lgan bilimlarni yodga tushirish.

3. Yangi mavzuni o‘rganish (12–15 daqiqa) – yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish; bunda o‘quvchilarning faol izlanishi ta’minlanadi.

4. Mustahkamlash va qo‘llash (10–12 daqiqa) – yangi bilimlarni turli darajadagi topshiriqlarda qo‘llash.

5. Baholash va refleksiya (3–5 daqiqa) – natijalarni umumlashtirish, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash, o‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish.

6. Uyga vazifa (1–2 daqiqa) – uy vazifasini tushuntirish.

Bu bosqichlar mexanik qolip emas: dars turiga va mavzuga qarab ular o‘zgarishi, birlashishi yoki boshqa tartibda kelishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida badiiy matnni o‘qish va tahlil qilish markaziy bosqich bo‘ladi; nazorat darsida esa yangi mavzu bosqichi bo‘lmaydi.

Ona tili darsi uchun texnologik xarita namunasi. Quyida 6-sinf ona tili darsining texnologik xaritasi namunasi keltiriladi.

Fan: ona tili. **Sinf:** 6. **Mavzu:** Sifatning ma’no turlari. **Dars turi:** yangi bilim beruvchi.

Maqsad: oʻquvchilar sifatlarni maʼno turlariga koʻra (rang-tus, maza-taʼm, hajm-oʻlchov, shakl-koʻrinish, xarakter-xususiyat, holat, hid) farqlaydi va ularni nutqda oʻrinli qoʻllaydi.

Kutilayotgan natijalar: oʻquvchi sifatning kamida 6 ta maʼno turini aniqlaydi; berilgan matndagi sifatlarni maʼno turiga koʻra guruhlaydi; tasviriy matnda turli maʼno turidagi sifatlardan foydalanadi.

Metodlar: "Aqliy hujum", "Klaster", juftlikda ishlash, "Sifatlar savati" didaktik oʻyini. **Jihozlar:** darslik, rasmlar, sifatlar yozilgan kartochkalar, proyektor.

Bosqich, vaqt	**Oʻqituvchi faoliyati**	**Oʻquvchi faoliyati**	**Natija**
1. Motivatsiya (4 daq.)	Bogʻning ikki rasmini koʻrsatib, "Qaysi rasm haqida koʻproq soʻz ayta olasiz? Qaysi soʻzlar rasmni tasvirlaydi?" deb soʻraydi	Rasmlarni tasvirlovchi soʻzlarni aytadi	Mavzuga qiziqish uygʻonadi
2. Bilimlarni faollashtirish (6 daq.)	"Sifat nima?" savoli bilan "Aqliy hujum" oʻtkazadi	Sifatning taʼrifi, soʻroqlari, misollarini aytadi	Tayanch bilimlar yangilanadi
3. Yangi mavzu (14 daq.)	Kartochkalardagi sifatlarni guruhlashni topshiradi; guruhlar natijasi asosida "Klaster" tuzadi; darslikdagi qoida bilan solishtiradi	Juftlikda sifatlarni guruhlaydi, guruhlarga nom beradi, klasterni toʻldiradi	Sifatning maʼno turlari aniqlanadi
4. Mustahkamlash (13 daq.)	"Sifatlar savati" oʻyinini oʻtkazadi; darslikdagi mashqni differensiatsiyalab beradi	Oʻyinda sifatlarni "savat"larga ajratadi; mashqni bajaradi; kuchli oʻquvchilar tasviriy matn yozadi	Bilim qoʻllanadi
5. Baholash va refleksiya (5 daq.)	"Svetofor" usulida oʻz-oʻzini baholashni tashkil etadi, faol oʻquvchilarni baholaydi	Oʻz natijasini belgilaydi	Refleksiya
6. Uyga vazifa (3 daq.)	Uch darajali vazifani tushuntiradi	Vazifani tanlaydi	–

Uyga vazifa: 1-daraja – darslikdagi mashqni bajarish; 2-daraja – “Kuz” mavzusida 5–6 gapli matn yozib, undagi sifatlarning ma’no turini aniqlash; 3-daraja – sevimli asardan sifatlarga boy parcha topib, muallif ularni qanday maqsadda qo‘llaganini izohlash.

Dars ishlanmasiga qo‘yiladigan talablar. Sifatli dars ishlanmasi quyidagi talablarga javob beradi: maqsad, mazmun, metod va baholash o‘zaro mos; vaqt taqsimoti real; o‘quvchi faoliyati o‘qituvchi faoliyatidan ko‘proq; metodlar mavzu uchun tanlangan, “metod uchun metod” emas; differensiatsiya mavjud; baholash maqsadga erishilganini tekshiradi; matn savodli va aniq. Amaliyotda ko‘p uchraydigan kamchilik – bitta darsda 6–8 ta interfaol metodni qo‘llashga urinish. Bunday darsda metodlar “yuzaki” o‘tadi va mazmun chuqur o‘zlashtirilmaydi. Bitta 45 daqiqalik darsda 2–4 ta metod yetarli.

Ona tili bo‘yicha mashq va topshiriqlar tipologiyasi. Ona tili o‘qitish metodikasida mashqlarning turli tasniflari mavjud[96]. Uslubiy ishlanma muallifi uchun quyidagi tasnif amaliy jihatdan qulay.

Tanib olish (aniqlash) mashqlari – matndan muayyan til birligini topish, uning belgilarini aniqlash (masalan, “Matndan ravishlarni toping va ma’no turini aniqlang”).

Guruhlash va tasniflash mashqlari – til birliklarini belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratish.

O‘zgartirish (transformatsiya) mashqlari – til birligini berilgan shartga ko‘ra o‘zgartirish (masalan, sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantirish, gapni aniq nisbatdan majhul nisbatga o‘tkazish).

Tiklash mashqlari – tushirib qoldirilgan harf, qo‘shimcha, so‘z yoki tinish belgilarini tiklash.

Tuzish (konstruksiya) mashqlari – berilgan til birliklaridan yoki shart asosida so‘z birikmasi, gap, matn tuzish.

Tahrir mashqlari – xato kiritilgan matnni tuzatish.

Imloviy mashqlar – ko‘chirib yozish, izohli yozuv, lug‘at diktanti, ijodiy diktant, tanlab yozish.

---

[96] Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Ikromova R. Ona tili o‘qitish metodikasi.

Nutqiy (kommunikativ) topshiriqlar – muayyan nutqiy vaziyatda ogʻzaki yoki yozma matn yaratish (masalan, “Sinfdoshingizni tugʻilgan kuni bilan tabriklovchi xat yozing va unda undov gaplardan foydalaning”).

Tadqiqot topshiriqlari – til hodisasini mustaqil kuzatish va xulosa chiqarish (masalan, “Gazeta maqolasi va she’rdagi sifatlar sonini qiyoslang, xulosa chiqaring”).

Adabiyot boʻyicha topshiriqlar tipologiyasi. Adabiyot oʻqitish metodikasida topshiriqlar badiiy asarni idrok etish, tahlil qilish va unga shaxsiy munosabat bildirish bosqichlariga mos ravishda tuziladi[97].

Idrok etishga yoʻnaltirilgan topshiriqlar – asarni oʻqishdan oldingi taxmin, oʻqish jarayonidagi belgilash (masalan, “Insert” usuli), birlamchi taassurotni ifodalash.

Matnni tushunishga yoʻnaltirilgan topshiriqlar – voqealar ketma-ketligini tiklash, qahramonlar tizimini aniqlash, asosiy epizodlarni ajratish.

Tahliliy topshiriqlar – obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy detal, tasvir vositalari, muallif pozitsiyasini tahlil qilish.

Qiyosiy topshiriqlar – ikki qahramonni, ikki asarni, ikki muallifni, asar va uning ekranlashtirilgan variantini qiyoslash. Masalan, yozuvchilar oʻrtasidagi adabiy ta’sir va oʻzaro aloqalarni oʻrganishga asoslangan qiyosiy topshiriqlar yuqori sinf oʻquvchilarining tahliliy tafakkurini rivojlantiradi[98].

Talqin va baholash topshiriqlari – asar gʻoyasini talqin qilish, qahramon xatti-harakatiga baho berish, munozara.

Ijodiy topshiriqlar – asar davomini yoki muqobil yakunini yozish, qahramon nomidan kundalik yoki xat yozish, asar asosida ssenariy yoki komiks tuzish, illyustratsiya chizish.

Ifodali oʻqish va yod olish topshiriqlari – she’r va nasriy parchalarni ifodali oʻqish, yod olish, sahnalashtirish.

Topshiriqlarni tuzish tamoyillari. Sifatli topshiriq quyidagi talablarga javob beradi.

---

[97] Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikasi: oʻquv qoʻllanma. Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi.

[98] Saidova R.M. Adabiy ta’sir muammolari tadqiqi (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Togʻay Murod ijodi misolida): monografiya.

Maqsadga moslik – topshiriq aniq o‘quv maqsadiga xizmat qiladi; muallif “bu topshiriq qaysi ko‘nikmani rivojlantiradi?” degan savolga aniq javob bera oladi.

Ifodaning aniqligi – topshiriq sharti bir ma’noli, qisqa va tushunarli; o‘quvchi nima qilish kerakligini qo‘shimcha izohsiz tushunadi. “Matn ustida ishlang” emas, “Matndagi sifatlarni topib, ostiga chizing va ma’no turini qavs ichida yozing”.

Kognitiv darajalarning xilma-xilligi – topshiriqlar tizimi Blum taksonomiyasining turli darajalarini qamrab oladi (1.3-§): faqat eslash va tanib olish topshiriqlari bilan cheklanish o‘quvchining tafakkurini rivojlantirmaydi[99].

Izchillik – topshiriqlar oddiydan murakkabga, namunaga ko‘ra bajarishdan mustaqil va ijodiy bajarishga qarab joylashtiriladi.

Differensiatsiya – bir mavzu bo‘yicha turli darajadagi topshiriqlar beriladi.

Til materialining sifati – mashqlar uchun gaplar va matnlar badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy-ommabop manbalardan olinadi; ular mazmunan tarbiyaviy va o‘quvchi yoshiga mos bo‘ladi; manbasi ko‘rsatiladi.

Hayotiylik – topshiriq o‘quvchining hayotiy tajribasi va qiziqishlari bilan bog‘lanadi. PISA dasturida aynan real hayotiy vaziyatga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning funksional savodxonligini o‘lchashning asosiy vositasi sifatida qo‘llaniladi[100].

Topshiriqlar tizimi namunasi. Quyida 7-sinf ona tili darsi uchun “Ravish” mavzusi bo‘yicha kognitiv darajalarga asoslangan topshiriqlar tizimi keltiriladi.

Daraja	**Topshiriq**
Eslash	Ravishning ta’rifini va so‘roqlarini yozing.
Tushunish	“Tez yugurdi” va “tez yugurish” birikmalarida “tez” so‘zining vazifasini izohlang.
Qo‘llash	Berilgan fe’llarga mos ravishlar qo‘shib, 5 ta so‘z birikmasi tuzing.
Tahlil	Matndagi ravishlarni ma’no turlariga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

[99] Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives.

[100] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework.

Daraja	Topshiriq
Baholash	Ikki tasviriy matnni qiyoslang: qaysi birida ravishlar tasvirni jonliroq qilgan? Fikringizni asoslang.
Yaratish	“Tongda qishloq” mavzusida ravishlarning kamida to‘rt ma’no turidan foydalanib, 6–8 gapli tasviriy matn yozing.

Test topshiriqlarini tuzish. Test – bilimlarni tez va obyektiv tekshirish vositasi. Ona tili va adabiyot bo‘yicha ishlanmalarda quyidagi test shakllari qo‘llaniladi: yopiq shakldagi testlar (bir yoki bir necha to‘g‘ri javobni tanlash); moslashtirish testlari (ikki ustundagi elementlarni moslashtirish); ketma-ketlikni tiklash testlari; ochiq shakldagi testlar (javobni o‘quvchi o‘zi yozadi: qisqa javobli, bo‘sh joyni to‘ldirish); “to‘g‘ri – noto‘g‘ri” testlari.

Yopiq shakldagi test topshirig‘i ikki qismdan iborat: savol (asos) va javob variantlari. Variantlardan biri to‘g‘ri javob, qolganlari esa “chalg‘ituvchi” javoblar (distraktorlar). Test tuzishning asosiy qoidalari:

savol aniq, qisqa va bir ma’noli bo‘ladi; inkor shaklidagi savollar (“… emas”) kam qo‘llanadi va inkor so‘zi ajratib ko‘rsatiladi;

savolda to‘g‘ri javobga ishora (grammatik moslik, kalit so‘zning takrorlanishi) bo‘lmaydi;

barcha variantlar bir xil grammatik shaklda, taxminan teng uzunlikda bo‘ladi; to‘g‘ri javob ko‘pincha eng uzun variant bo‘lib qolishi kerak emas;

chalg‘ituvchi javoblar ishonarli bo‘ladi – ular o‘quvchilarning tipik xatolariga asoslanadi; ochiq-oydin bema’ni variantlar test sifatini pasaytiradi;

“barcha javoblar to‘g‘ri”, “to‘g‘ri javob yo‘q” kabi variantlar ehtiyotkorlik bilan qo‘llanadi;

to‘g‘ri javoblar variantlar orasida tasodifiy taqsimlanadi (masalan, A, B, C, D harflari deyarli teng miqdorda to‘g‘ri javob bo‘ladi);

har bir test faqat bitta tushuncha yoki ko‘nikmani tekshiradi.

Quyida nuqsonli va to‘g‘rilangan test namunalari keltiriladi.

Nuqsonli: “Sifat nima? A) so‘z B) predmetning belgisini bildiruvchi va qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘z turkumi C) fe’l D) gap”. Bu testda to‘g‘ri javob boshqalaridan keskin uzun, chalg‘ituvchi javoblar esa ishonarsiz.

To‘g‘rilangan: “Predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘z turkumi qaysi? A) Ot B) Sifat C) Ravish D) Son”. Bu yerda barcha variantlar bir xil shaklda va ishonarli: ravish ham belgi bildiradi, son ham otga bog‘lanadi.

Baholash materiallari va rubrikalar. Zamonaviy ta’limda baholash faqat yakuniy (summativ) emas, balki shakllantiruvchi (formativ) vazifani ham bajaradi. P.Blek va D.Viliam tadqiqotlari shakllantiruvchi baholash – o‘quv jarayonida o‘quvchiga muntazam qayta aloqa berish – o‘quv natijalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatgan[101]. Shuning uchun ishlanmada faqat nazorat ishlari emas, balki dars davomidagi baholash usullari (o‘z-o‘zini baholash varaqalari, o‘zaro baholash, “chiqish kartochkasi”, “Svetofor” va boshqalar) ham ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

Ijodiy yozma ishlarni baholashda rubrika eng ishonchli vositadir. Quyida 8-sinf o‘quvchisining “Mening sevimli adabiy qahramonim” mavzusidagi inshosi uchun analitik rubrika namunasi keltiriladi.

Mezon	**4 ball**	**3 ball**	**2 ball**	**1 ball**
Mazmun va g‘oya	Qahramon obrazi chuqur ochilgan, fikr matndan dalillar bilan asoslangan	Obraz ochilgan, dalillar yetarli emas	Obraz yuzaki tavsiflangan	Mavzu ochilmagan
Tuzilish va mantiq	Kirish, asosiy qism, xulosa aniq; fikrlar izchil	Tuzilish bor, ayrim joylarda izchillik buzilgan	Tuzilish noaniq	Tuzilish yo‘q
Til va uslub	So‘z boyligi keng, tasviriy vositalar	So‘z boyligi yetarli	Takrorlar ko‘p, so‘z	Nutq g‘arib

[101] Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. // Phi Delta Kappan. – 1998. – Vol. 80, No. 2. – P. 139–148.

Mezon	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
	o‘rinli		boyligi kam	
Savodxonlik	Xatolar yo‘q yoki 1–2 ta	3–4 ta xato	5–7 ta xato	8 tadan ortiq xato

Rubrikaning afzalligi – u baholashni shaffof qiladi: o‘quvchi ish boshlanishidan oldin qanday mezonlar bo‘yicha baholanishini biladi, o‘qituvchi esa turli o‘quvchilarni bir xil mezon bilan baholaydi.

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Ona tili yoki adabiyot darsi uchun texnologik xarita ishlab chiqish.

Maqsad: tinglovchilarda kompetensiyaviy yondashuv asosida dars maqsadini belgilash, dars bosqichlarini loyihalash, metodlarni mavzuga mos tanlash va texnologik xaritani to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** juftlik va guruh ishi, “Galereya” usuli. **Jihozlar:** texnologik xarita shabloni, darsliklar (5–9-sinflar), metodlar kartochkalari, flipchart.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Tinglovchilarga ataylab kamchilik kiritilgan texnologik xarita ko‘rsatiladi (maqsad noaniq, vaqt noreal, 7 ta metod, baholash yo‘q). Ular kamchiliklarni topadi.

2. Nazariy qism (10 daqiqa). Dars ishlanmasi va texnologik xaritaning tarkibi, dars bosqichlari, talablar tushuntiriladi; paragrafdagi namunalar tahlil qilinadi.

3. Juftlikda loyihalash (35 daqiqa). Juftliklar darslikdan bitta mavzu tanlaydi (bir juftlik – ona tili, keyingisi – adabiyot) va texnologik xarita tuzadi: umumiy ma’lumotlar, maqsad, kutilayotgan natijalar, metodlar, jihozlar, bosqichlar jadvali, baholash, uch darajali uy vazifasi.

4. “Galereya” (15 daqiqa). Texnologik xaritalar devorga ilinadi. Tinglovchilar ularni ko‘rib chiqib, stikerlarga “kuchli tomon” va “taklif” yozib qoldiradi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). Juftliklar olgan izohlarni o‘qib, xaritaga kiritadigan bitta o‘zgartirishni belgilaydi.

Kutilayotgan natija: har bir juftlik talablarga mos texnologik xarita yaratadi va uni uslubiy tavsiya yoki qo‘llanmaga ilova sifatida qo‘shish uchun tayyorlaydi.

Baholash: maqsad va natijalarning aniqligi (3 ball), bosqichlar mantiqi va vaqt (3 ball), metodlar mosligi (2 ball), baholash va uy vazifasi (2 ball).

Nazorat savollari

1. Dars ishlanmasi va texnologik xaritaning farqi nimada?
2. Dars ishlanmasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
3. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsning bosqichlarini ayting.
4. Uch darajali uy vazifasi nima uchun kerak?
5. Sifatli dars ishlanmasi qanday talablarga javob beradi?
6. Mashq, topshiriq va testning farqi nimada?
7. Topshiriqni tuzishda qanday tamoyillarga amal qilinadi?
8. Qanday test shakllari mavjud?
9. Yopiq shakldagi test tuzishning asosiy qoidalarini sanab bering.
10. Analitik rubrika qanday tuziladi?

Topshiriqlar

1. 5-sinf ona tili darsligidan bitta mavzu bo‘yicha texnologik xarita tuzing.
2. 8-sinf adabiyot darsligidan bitta asar bo‘yicha batafsil dars ishlanmasi yozing.
3. Bitta mavzu bo‘yicha uch darajali uy vazifasini tuzing.
4. O‘z darslaringizdan birining ishlanmasini paragrafdagi talablar asosida tekshiring va natijani yozing.
5. Paragrafdagi “Ravish” mavzusidagi topshiriqlar tizimiga o‘xshash tizimni “Qo‘shma gap” mavzusi uchun tuzing.
6. Ona tilidan ixtiyoriy mavzu bo‘yicha 10 ta yopiq shakldagi test tuzing va to‘g‘ri javoblar taqsimotini tekshiring.

7. Uchta moslashtirish testi tuzing (masalan, “Asar – muallif”, “Atama – ta’rif”).

8. Quyidagi testni qoidalar asosida tuzating: “Navoiy qaysi asarni yozgan? A) Xamsa B) O‘tkan kunlar C) Kecha va kunduz D) hammasi”.

9. Bayon yoki ijodiy diktant uchun 4 mezonli rubrika ishlab chiqing.

10. Dars davomida qo‘llash mumkin bo‘lgan 5 ta shakllantiruvchi baholash usulini tavsiflang.

Test topshiriqlari

1. Darsning bosqichlari, vaqt, faoliyat turlari va natijalari jadval shaklida ixcham ko‘rsatilgan hujjat qanday ataladi?

A) Dars ishlanmasi (konspekt)
B) Texnologik xarita
C) Kalendar-tematik reja
D) O‘quv dasturi

2. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsda yangi mavzuni o‘rganish bosqichiga taxminan qancha vaqt ajratiladi?

A) 12–15 daqiqa
B) 2–3 daqiqa
C) 30–35 daqiqa
D) 45 daqiqa

3. Bitta 45 daqiqalik darsda nechta interfaol metod qo‘llash yetarli?

A) 1 ta ham kerak emas
B) 8–10 ta
C) 2–4 ta
D) 12 ta

4. Sifatli dars ishlanmasida kimning faoliyati ko‘proq bo‘lishi kerak?

A) O‘quvchining
B) O‘qituvchining
C) Ota-onaning
D) Direktorning

5. Muayyan koʻnikmani shakllantirish uchun bir xil turdagi harakatni koʻp marta takrorlashga asoslangan oʻquv faoliyati qanday ataladi?

A) Mashq
B) Test
C) Loyiha
D) Rubrika

6. Tushirib qoldirilgan harf, qoʻshimcha yoki tinish belgilarini tiklash qanday mashq turi?

A) Tuzish
B) Tahrir
C) Tiklash
D) Tanib olish

7. Yopiq testdagi chalgʻituvchi javoblar qanday ataladi?

A) Kalitlar
B) Distraktorlar
C) Deskriptorlar
D) Indikatorlar

8. Chalgʻituvchi javoblar nimaga asoslanishi kerak?

A) Tasodifiy soʻzlarga
B) Bemaʼni variantlarga
C) Faqat bir xil soʻzga
D) Oʻquvchilarning tipik xatolariga

9. Test tuzish qoidalariga koʻra toʻgʻri javob qanday boʻlmasligi kerak?

A) Ishonarli
B) Muntazam ravishda eng uzun variant
C) Grammatik jihatdan toʻgʻri
D) Bir maʼnoli

10. Rubrikaning asosiy afzalligi nimada?

A) Baholashni shaffof va bir xil mezonli qiladi
B) Oʻqituvchini baholashdan ozod qiladi
C) Faqat test uchun qoʻllanadi
D) Baholash vaqtini cheksiz uzaytiradi

2.4-§. Pedagogik tajriba-sinov va ilg‘or tajribani umumlashtirish

Tajriba-sinovning ishlanmadagi o‘rni. Uslubiy ishlanmaning ishonchliligi, eng avvalo, unda taklif etilgan usulning amalda sinalgani va natija bergani bilan belgilanadi. 1.1-§ da ta’kidlanganidek, sinovdan o‘tmagan usul haqidagi ishlanma faqat taxminga asoslanadi. Ommalashtirish mezonlarida ham ishlanmada kutilayotgan natijalar ko‘rsatilishi va ularga erishish yo‘llari asoslanishi talab etiladi[102]. Shuning uchun maqola yoki uslubiy tavsiya yozishni rejalashtirgan o‘qituvchi o‘z g‘oyasini oldindan pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik tajriba-sinov (eksperiment) – yangi usul, vosita yoki metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida maxsus tashkil etilgan va nazorat qilinadigan sharoitda o‘tkaziladigan tadqiqot. V.Zagvyazinskiy va R.Atahanov pedagogik eksperimentni pedagogik hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija aloqalarini aniqlashning eng ishonchli metodi deb hisoblaydilar[103]. Maktab o‘qituvchisi uchun tajriba-sinov ilmiy-tadqiqot institutlaridagi kabi murakkab bo‘lishi shart emas, biroq u ma’lum ilmiy talablarga javob berishi kerak.

Tajriba-sinov turlari. Maqsadiga ko‘ra tajriba-sinovning uch turi farqlanadi.

Aniqlovchi (konstatatsiya) tajriba – mavjud holatni aniqlash: o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari qay darajada ekanini o‘rganish. Masalan, 7-sinf o‘quvchilarining matndan asosiy fikrni ajrata olish darajasini diagnostik test orqali aniqlash.

Shakllantiruvchi (o‘rgatuvchi) tajriba – yangi usulni qo‘llab, uning ta’sirida o‘zgarishlarni kuzatish. Bu tajriba-sinovning markaziy qismi.

Nazorat (yakuniy) tajriba – shakllantiruvchi tajribadan keyin natijalarni o‘lchash va boshlang‘ich holat bilan qiyoslash.

---

[102] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

[103] Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования.

Tashkil etilishiga koʻra tabiiy (odatdagi dars sharoitida) va laboratoriya (maxsus tashkil etilgan sharoitda) tajribalari farqlanadi. Maktab oʻqituvchisi uchun tabiiy tajriba qulay va ishonchli hisoblanadi, chunki u odatdagi oʻquv jarayonining bir qismi sifatida oʻtadi.

Tajriba-sinov dizaynlari. Maktab sharoitida quyidagi ikki dizayn koʻp qoʻllaniladi.

Bir guruhli dizayn (“oldin – keyin”): bitta sinfda boshlangʻich oʻlchov oʻtkaziladi, soʻngra yangi usul qoʻllaniladi va yakuniy oʻlchov oʻtkaziladi. Bu dizayn sodda, ammo uning kamchiligi bor: natijalardagi oʻsish faqat yangi usul tufayli emas, oʻquvchilarning tabiiy rivojlanishi yoki boshqa omillar tufayli ham boʻlishi mumkin.

Ikki guruhli dizayn (tajriba va nazorat guruhlari): tarkibi va darajasi boʻyicha oʻxshash ikki sinf tanlanadi. Tajriba sinfida yangi usul qoʻllaniladi, nazorat sinfida dars odatdagicha oʻtiladi. Har ikki sinfda boshlangʻich va yakuniy oʻlchov oʻtkaziladi. Natijalar farqi yangi usulning ta’sirini ishonchliroq koʻrsatadi. Bir oʻqituvchi parallel sinflarda dars bersa, bu dizaynni qoʻllash qulay boʻladi.

Tajriba-sinovni rejalashtirish. Tajriba-sinov rejasi quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi:

maqsad va gipoteza – nimani tekshirmoqchimiz va qanday natija kutamiz. Gipoteza “agar …, u holda …” shaklida ifodalanadi: “Agar 6-sinf ona tili darslarida har darsning 7–8 daqiqasi punktuatsion mashqlarga ajratilsa, u holda oʻquvchilarning qoʻshma gaplardagi tinish belgilari xatolari kamida 30 foizga kamayadi”;

baza va ishtirokchilar – qaysi maktab, qaysi sinflar, nechta oʻquvchi;

muddat – tajriba qancha davom etadi (odatda bir chorakdan bir oʻquv yiligacha);

mezon va koʻrsatkichlar – natija qanday oʻlchanadi (xatolar soni, test bali, rubrika boʻyicha baho, soʻrovnoma natijasi);

oʻlchov vositalari – diagnostik test, nazorat ishi, kuzatish varaqasi, soʻrovnoma, rubrika;

bosqichlar – aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat bosqichlarining muddatlari va mazmuni.

Mezon va koʻrsatkichlarni belgilash. Tajriba-sinovdagi eng muhim va qiyin masala – natijani nima bilan va qanday oʻlchashni aniqlash. Mezon – baholash asosi (masalan, “punktuatsion savodxonlik”); koʻrsatkich – mezonning oʻlchanadigan ifodasi (masalan, “100 soʻzli diktantdagi punktuatsion xatolar soni”). Ona tili va adabiyot boʻyicha tajriba-sinovlarda quyidagi mezonlar koʻp qoʻllaniladi.

Mezon	**Koʻrsatkich**	**Oʻlchov vositasi**
Imloviy savodxonlik	Diktantdagi imloviy xatolar soni	Nazorat diktanti
Punktuatsion savodxonlik	Tinish belgilari xatolari soni	Diktant, koʻchirib yozish
Matnni tushunish	Toʻgʻri javoblar foizi	Oʻqish savodxonligi testi
Yozma nutq	Rubrika boʻyicha ball (mazmun, tuzilish, til)	Insho, bayon
Badiiy asarni tahlil qilish	Talqin chuqurligi darajasi	Tahliliy yozma ish, rubrika
Kitobxonlik faolligi	Oyiga oʻqilgan kitoblar soni	Kitobxonlik kundaligi, soʻrovnoma
Oʻquv motivatsiyasi	Fanga qiziqish darajasi	Anketa, kuzatish

Oʻlchov vositalari tajriba va nazorat guruhlari uchun, shuningdek boshlangʻich va yakuniy oʻlchov uchun bir xil murakkablikda boʻlishi kerak. Masalan, boshlangʻich va yakuniy diktantlar soʻzlar soni, imloviy qiyinchiliklar soni va turi boʻyicha teng boʻlishi lozim.

Natijalarni qayta ishlash. Maktab oʻqituvchisi natijalarni qayta ishlashda murakkab statistik usullarni qoʻllashi shart emas. Quyidagi oddiy hisob-kitoblar yetarli hisoblanadi.

Oʻrtacha ball – barcha oʻquvchilar ballari yigʻindisining oʻquvchilar soniga nisbati.

Foiz koʻrsatkichi – muayyan natijaga erishgan oʻquvchilar sonining umumiy songa nisbati, 100 ga koʻpaytirilgan.

Darajalar bo‘yicha taqsimot – o‘quvchilarni past, o‘rta, yuqori darajalarga ajratib, har bir darajadagi o‘quvchilar ulushini ko‘rsatish.

O‘sish dinamikasi – yakuniy va boshlang‘ich ko‘rsatkichlar farqi.

Samaradorlik koeffitsiyenti – tajriba guruhidagi o‘sishning nazorat guruhidagi o‘sishga nisbati. Agar koeffitsiyent 1 dan katta bo‘lsa, yangi usul samaraliroq hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda natijalarni taqdim etish namunasi berilgan (raqamlar shartli).

Ko‘rsatkich	**Tajriba sinfi (n=28)**	**Nazorat sinfi (n=27)**
Boshlang‘ich o‘rtacha ball (10 ballik)	5,4	5,5
Yakuniy o‘rtacha ball	7,6	6,1
O‘sish	+2,2	+0,6
Yuqori daraja (8–10 ball) ulushi: boshida	14%	15%
Yuqori daraja ulushi: oxirida	46%	22%

Bu jadval asosida quyidagicha xulosa yozish mumkin: “Tajriba boshida har ikki sinf natijalari deyarli teng bo‘lgan (5,4 va 5,5 ball). Tajriba yakunida tajriba sinfida o‘rtacha ball 2,2 ga, nazorat sinfida esa 0,6 ga oshdi. Yuqori darajadagi o‘quvchilar ulushi tajriba sinfida 14 foizdan 46 foizga, nazorat sinfida 15 foizdan 22 foizga ko‘tarildi. Samaradorlik koeffitsiyenti 2,2 : 0,6 ≈ 3,7 ni tashkil etdi. Bu taklif etilgan usulning samaradorligini ko‘rsatadi.”

Hisob-kitoblarni bajarish va diagramma chizish uchun Microsoft Excel yoki Google Sheets dasturlaridan foydalanish qulay. Natijalar ustunli yoki chiziqli diagramma shaklida ko‘rsatilsa, ishlanmaning ko‘rgazmaliligi oshadi.

Ilg‘or pedagogik tajriba tushunchasi. Pedagogik tajriba – o‘qituvchining kasbiy faoliyati davomida to‘plagan bilim, ko‘nikma, usul va yondashuvlar majmui. Har bir o‘qituvchining o‘z tajribasi bor, ammo har qanday tajriba ham ilg‘or hisoblanavermaydi. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda an’anaviy amaliyotga nisbatan barqaror yuqori natijalar beradigan, ilmiy

asoslangan, boshqa o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan va ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan pedagogik faoliyat tushuniladi. B.Xodjayev ilg‘or tajribani pedagogika fani va amaliyoti o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in sifatida tavsiflaydi: u, bir tomondan, ilmiy g‘oyalarning amaliyotda sinalishi natijasi, ikkinchi tomondan, yangi ilmiy umumlashmalar uchun manba bo‘ladi[104].

Majmuada ta’kidlanganidek, o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etishning muhim vositalaridan biridir; bu jarayon orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi oshadi, ta’lim tizimida samaradorlik va sifat yuksaladi, o‘qituvchilar o‘rtasida ijobiy raqobat va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhiti shakllanadi[105]. Vazirlikning 32-son buyrug‘i ham aynan shu maqsadga – ilg‘or ish tajribasi va zamonaviy metodikalarni ommalashtirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan[106].

Ilg‘or tajribaning mezonlari. Tajribani ilg‘or deb e’tirof etish uchun u bir qator mezonlarga javob berishi kerak. Pedagogik adabiyotlarda quyidagi mezonlar ko‘p tilga olinadi[107].

Dolzarblik – tajriba ta’lim tizimidagi muhim, hal etilishi zarur bo‘lgan muammoga javob beradi.

Yangilik – tajribada an’anaviy amaliyotdan farq qiluvchi elementlar bor (to‘liq yangi yoki mavjud usullarning yangi uyg‘unligi).

Yuqori samaradorlik – tajriba o‘quvchilar natijalarining (bilim, ko‘nikma, rivojlanish, tarbiyalanganlik) barqaror o‘sishini ta’minlaydi; bu natijalar o‘lchanadi va dalillanadi.

---

[104] Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.

[105] Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.

[106] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-son buyrug‘i.

[107] Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.

Barqarorlik – yuqori natijalar tasodifiy emas, bir necha yil davomida, turli sinflarda takrorlanadi.

Optimallik – natijaga o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqti va kuchini haddan tashqari sarflamasdan erishiladi. Agar natija o‘quvchilarning ortiqcha yuklanishi hisobiga bo‘lsa, tajriba ilg‘or hisoblanmaydi.

Takrorlanuvchanlik (ko‘chiriluvchanlik) – tajribani boshqa o‘qituvchilar boshqa sharoitlarda ham qo‘llay oladi; u faqat muallifning shaxsiy qobiliyatiga bog‘liq emas.

Ilmiy asoslanganlik – tajriba pedagogik va psixologik qonuniyatlarga mos, uning samaradorligi nazariy jihatdan izohlanadi.

Bu mezonlar ommalashtirish mezonlarida ham o‘z aksini topgan: dolzarblik, yangilik, muallif hissasi, innovatsion yondashuv, kutilayotgan natijalar, foydalanishga qulaylik kabi mezonlar aynan ilg‘or tajriba belgilarining baholash shaklidagi ifodasidir[108].

Mezon	**Asosiy savol**	**Dalil manbalari**
Dolzarblik	Tajriba qaysi muhim muammoni hal etadi?	Me’yoriy hujjatlar, monitoring natijalari
Yangilik	Unda nima yangi?	Adabiyotlar va ommalashtirilgan ishlar bilan qiyos
Samaradorlik	Qanday natija beradi?	Nazorat ishlari, test, olimpiada natijalari
Barqarorlik	Natija necha yil, nechta sinfda takrorlangan?	Bir necha yillik natijalar dinamikasi
Optimallik	Natija qanday “narx”da olinadi?	O‘quvchilar yuklamasi, vaqt sarfi tahlili
Takrorlanuvchanlik	Boshqalar qo‘llay oladimi?	Hamkasblar sinovi natijalari
Ilmiy asoslanganlik	Nima uchun ishlaydi?	Nazariy manbalar

[108] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

Ilg‘or tajribani aniqlash usullari. Ilg‘or tajriba o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lib qolmaydi; uni maqsadli ravishda aniqlash, o‘rganish kerak. Bu ish metodik birlashmalar, maktab ma’muriyati, tuman metodika bo‘limlari, pedagogik mahorat markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Quyidagi usullar qo‘llaniladi.

Natijalar tahlili. O‘quvchilarning nazorat ishlari, monitoring, olimpiada, ko‘rik-tanlov, bitiruv imtihonlari natijalari tahlil qilinadi. Agar ma’lum o‘qituvchi sinflarida natijalar o‘xshash sharoitdagi boshqa sinflarga nisbatan bir necha yil davomida barqaror yuqori bo‘lsa, bu ilg‘or tajriba belgisi bo‘lishi mumkin.

Darslarni kuzatish. Turli maqsadlarda (o‘rganish, tahlil, tajriba almashish) o‘qituvchi darslari kuzatiladi. 246-son buyruq asosida tashkil etilgan “Kasbiy rivojlanish soati” dars kuzatish va tahlil qilish uchun muntazam imkoniyat yaratadi[109].

Suhbat va intervyu. O‘qituvchi bilan suhbatda uning metodik g‘oyalari, qo‘llayotgan usullari, ularning kelib chiqishi va rivojlanishi aniqlanadi.

O‘quvchilar va ota-onalar so‘rovi. O‘quvchilarning fanga munosabati, darslardagi faolligi, o‘qituvchi faoliyatiga bahosi o‘rganiladi.

Hujjatlarni o‘rganish. O‘qituvchining dars ishlanmalari, tarqatma materiallari, o‘quvchilar daftarlari va ijodiy ishlari, portfoliosi tahlil qilinadi.

Ochiq darslar va mahorat darslari. O‘qituvchi o‘z tajribasini hamkasblariga namoyish etadi; ularning fikrlari tajribani baholash uchun qo‘shimcha manba bo‘ladi.

Tajriba-sinov. Tajribaning samaradorligini tekshirish uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan tajriba-sinov o‘tkaziladi.

Tavsiflash va umumlashtirishning farqi. Ilg‘or tajriba bilan ishlashda ikki bosqich farqlanadi. Tavsiflash – tajribani to‘liq va aniq bayon etish: o‘qituvchi nima qiladi, qanday tartibda, qanday materiallar bilan, qanday natijaga erishadi. Umumlashtirish – tavsiflangan tajribani tahlil qilib, undagi muhim, takrorlanuvchi,

[109] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

boshqalar uchun qimmatli jihatlarni ajratib olish, ularni nazariy asoslash va boshqa o‘qituvchilar qo‘llay oladigan shaklga – tavsiya, qo‘llanma, model, algoritm shakliga keltirish. Tavsiflash “nima va qanday?” degan savolga, umumlashtirish esa “nima uchun ishlaydi va uni qanday qilib boshqalar ham qo‘llay oladi?” degan savolga javob beradi.

Amaliyotda ko‘plab ishlanmalar faqat tavsiflash darajasida qoladi: o‘qituvchi o‘z darslarini batafsil bayon etadi, ammo ulardan umumiy metodik xulosa chiqarmaydi. Natijada ishlanma “mening darslarim” to‘plamiga aylanib, boshqa o‘qituvchi uni o‘z sharoitiga moslashtira olmaydi. Ommalashtirish mezonlaridagi tizimlilik, foydalanishga qulaylik va “Qanday o‘qitish kerak?” savoliga javob berish mezonlari aynan umumlashtirish sifatini baholaydi[110].

Tajribani umumlashtirish bosqichlari. Pedagogik tajribani umumlashtirishni quyidagi bosqichlar ketma-ketligi sifatida tashkil etish mumkin.

1. Tajribaning g‘oyasini aniqlash. Tajribaning markazida qanday asosiy metodik g‘oya yotadi? Bu g‘oya bir-ikki gapda ifodalanadi. Masalan: “Ona tili qoidalarini o‘quvchilar tayyor holda yodlamasdan, til materialini kuzatish orqali o‘zlari «kashf» etadi”. Bu g‘oya keyinchalik ishlanmaning “yetakchi g‘oyasi”ga aylanadi.

2. Materiallarni to‘plash. Tajribaga oid barcha materiallar yig‘iladi: dars ishlanmalari, tarqatma materiallar, o‘quvchilar ishlari, nazorat natijalari, fotosuratlar, hamkasblar va ma’muriyatning dars kuzatuvi tahlillari, ota-onalar va o‘quvchilar fikrlari. Materiallarni papka yoki elektron portfolio shaklida tartiblash qulay.

3. Tajribani tavsiflash. Tajriba to‘liq bayon etiladi: shart-sharoitlar (maktab, sinflar, o‘quvchilar tarkibi), qo‘llangan usullar va ularning tartibi, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati, natijalar.

4. Tahlil va saralash. Tavsiflangan tajriba ichidan asosiy, samarali va takrorlanuvchi elementlar ajratiladi; ikkinchi darajali yoki faqat muallif sharoitiga bog‘liq elementlar chetga suriladi.

[110] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

5. Nazariy asoslash. Tajriba elementlari pedagogik, psixologik, lingvistik yoki adabiyotshunoslik nazariyalari bilan bogʻlanadi: nima uchun bu usul ishlaydi? Masalan, “kashf etish orqali oʻrganish” gʻoyasini muammoli ta’lim nazariyasi, konstruktivizm va Kolbning tajribaviy oʻqitish modeli bilan asoslash mumkin[111].

6. Modellashtirish. Tajriba umumiy model, algoritm, sxema yoki texnologiya shakliga keltiriladi. Model aniq bosqichlarga, har bir bosqich esa aniq harakatlarga ega boʻladi.

7. Natijalarni dalillash. Tajribaning samaradorligi raqamlar, qiyosiy jadvallar, diagrammalar, oʻquvchilar ishlaridan namunalar bilan koʻrsatiladi.

8. Qoʻllash shartlarini aniqlash. Tajribani boshqa sharoitda qoʻllash uchun nima zarur: oʻqituvchining qanday tayyorgarligi, qanday materiallar, qancha vaqt? Qaysi sinflar va mavzular uchun mos, qaysilari uchun mos emas?

9. Rasmiylashtirish. Umumlashtirilgan tajriba tanlangan ishlanma turi (maqola, tavsiya, qoʻllanma) talablariga muvofiq yoziladi.

Yetakchi pedagogik gʻoyani ifodalash. Yetakchi gʻoya – tajribaning “yuragi”. U tajribani boshqa tajribalardan ajratib turadi va uning barcha elementlarini birlashtiradi. Yetakchi gʻoyani ifodalash qiyin boʻlishi mumkin, chunki oʻqituvchi oʻz tajribasining mohiyatini koʻpincha intuitiv his qiladi. Yetakchi gʻoyani topish uchun oʻqituvchi “Mening darsim boshqalarnikidan aynan nimasi bilan farq qiladi?”, “Agar tajribamni bitta gapda aytsam, u qanday boʻladi?” degan savollarga javob beradi.

Ona tili va adabiyot oʻqituvchilari tajribasidan yetakchi gʻoyalar namunalari:

“Oʻquvchi badiiy asar qahramoni bilan muloqotga kirishsagina asarni chuqur idrok etadi” (adabiyot darslarida qahramonga xat, qahramon bilan “intervyu” usullari);

“Imloviy savodxonlik qoidani yodlash orqali emas, xatoni mustaqil topish va izohlash orqali shakllanadi” (oʻz-oʻzini tekshirish va xatolar daftari tizimi);

[111] Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.

“Har bir ona tili darsi oʻquvchining mustaqil yaratgan matni bilan yakunlanishi kerak” (darsdagi grammatik mavzuni kichik ijodiy matn yozish orqali mustahkamlash);

“Mumtoz she’riyat oʻquvchiga uning bugungi hayoti bilan bogʻlangandagina yaqin boʻladi” (gʻazal va ruboiylarni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bogʻlab oʻrganish).

Modellashtirish. Umumlashtirishning eng yuqori darajasi – tajribani model shakliga keltirish. Pedagogik model – oʻquv jarayonining asosiy tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, natija) va ular oʻrtasidagi bogʻlanishlarni soddalashtirilgan shaklda aks ettiruvchi sxema. Model koʻpincha blok-sxema shaklida beriladi va quyidagi bloklarni oʻz ichiga oladi: maqsadli blok (maqsad va vazifalar); mazmuniy blok (oʻrganiladigan material); jarayon (texnologik) blok (bosqichlar, metodlar, shakllar); natijaviy-baholash bloki (kutilayotgan natijalar, mezonlar, baholash vositalari).

Masalan, “Badiiy asar qahramoni bilan muloqot” tajribasining modeli quyidagi bosqichlardan iborat boʻlishi mumkin: 1) asarni oʻqish va qahramon bilan “tanishish”; 2) qahramonga savollar tuzish; 3) qahramon nomidan javob berish (rolli muloqot); 4) qahramonga xat yozish; 5) qahramon haqida shaxsiy munosabatni bildirish (esse). Har bir bosqich uchun maqsad, topshiriq turi va baholash mezoni belgilanadi. Bunday model boshqa oʻqituvchiga istalgan asar bilan ishlashda qoʻllash imkonini beradi – bu esa takrorlanuvchanlik mezonini ta’minlaydi.

Amaliy mashgʻulot

Mavzu: Oʻz tajribamizni tavsiflash sxemasi asosida umumlashtirish va modellashtirish.

Maqsad: tinglovchilarda oʻz pedagogik tajribasining yetakchi gʻoyasini aniqlash, uni tavsiflash sxemasi asosida bayon etish va pedagogik model shaklida umumlashtirish koʻnikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** yakka ish va “Karusel” usuli. **Jihozlar:** tavsiflash sxemasi shabloni, model bloklari uchun rangli kartochkalar, A3 qogʻozlar.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). Tinglovchilarga ikkita matn beriladi: biri tajribaning faqat tavsifi, ikkinchisi umumlashtirilgan varianti. Ular farqni aniqlaydi.

2. Nazariy qism (10 daqiqa). Umumlashtirish bosqichlari, tavsiflash sxemasi, yetakchi g‘oya va modellashtirish tushuntiriladi.

3. Yetakchi g‘oya (15 daqiqa). Har bir tinglovchi o‘z tajribasining yetakchi g‘oyasini bir gapda ifodalaydi. “Karusel” usulida tinglovchilar varaqlarini qo‘shnisiga uzatadi, har bir varaqqa 3–4 hamkasb qisqa izoh yozadi (“aniqmi?”, “o‘ziga xosmi?”).

4. Tavsiflash va modellashtirish (35 daqiqa). Tinglovchilar tavsiflash sxemasini to‘ldiradi, so‘ngra rangli kartochkalar yordamida A3 qog‘ozda o‘z tajribasining modelini (maqsadli, mazmuniy, jarayon, natijaviy bloklar) tuzadi.

5. Taqdimot va refleksiya (10 daqiqa). 3–4 tinglovchi modelini taqdim etadi; boshqalar takrorlanuvchanlik mezoni bo‘yicha baho beradi.

Kutilayotgan natija: har bir tinglovchi o‘z tajribasining yetakchi g‘oyasi, to‘ldirilgan tavsiflash sxemasi va pedagogik modelini yaratadi.

Baholash: yetakchi g‘oyaning aniqligi (2 ball), tavsiflash sxemasining to‘liqligi (4 ball), modelning mantiqiyligi va takrorlanuvchanligi (4 ball).

Nazorat savollari

1. Pedagogik tajriba-sinov deganda nima tushuniladi?
2. Aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat tajribalarining farqi nimada?
3. Gipoteza qanday shaklda ifodalanadi?
4. Mezon va ko‘rsatkich tushunchalarining farqini misol bilan izohlang.
5. Natijalarni qayta ishlashda qanday oddiy statistik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
6. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda nima tushuniladi?
7. Ilg‘or tajribaning asosiy mezonlarini sanab bering.

8. Ilg‘or tajribani aniqlashning qanday usullari bor?
9. Tajribani tavsiflash va umumlashtirishning farqi nimada?
10. Yetakchi pedagogik g‘oya nima va u qanday aniqlanadi?

Topshiriqlar

1. O‘z ishlanma mavzungiz bo‘yicha “agar …, u holda …” shaklida gipoteza ifodalang.
2. Tajriba-sinov rejasini paragrafdagi elementlar asosida to‘liq tuzing.
3. 7-sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini aniqlash uchun 10 topshiriqli diagnostik test tuzing.
4. Sinfingizdagi so‘nggi nazorat ishi natijalari asosida o‘rtacha ball va darajalar bo‘yicha taqsimotni hisoblang.
5. Paragrafdagi shartli natijalar jadvali asosida Excelda ustunli diagramma chizing.
6. Tajribangizdagi bitta elementni yetti mezon bo‘yicha baholang va har bir mezon uchun dalil keltiring.
7. O‘z tajribangiz uchun tavsiflash sxemasini to‘liq to‘ldiring.
8. Tajribangizning yetakchi g‘oyasini uch xil variantda ifodalang va ulardan eng muvaffaqiyatlisini tanlab, tanlovingizni asoslang.
9. Paragrafdagi yetakchi g‘oyalar namunalariga o‘xshash beshta g‘oya yozing (ona tili va adabiyot bo‘yicha).
10. Tajribangizning pedagogik modelini blok-sxema shaklida chizing.

Test topshiriqlari

1. Mavjud holatni aniqlashga qaratilgan tajriba qanday ataladi?

A) Aniqlovchi (konstatatsiya)
B) Shakllantiruvchi
C) Nazorat
D) Laboratoriya

2. Tajriba-sinovning markaziy, yangi usul qo‘llaniladigan bosqichi qaysi?

A) Aniqlovchi

B) Nazorat
C) Shakllantiruvchi
D) Tashxis

3. Ikki guruhli dizaynda yangi usul qaysi guruhda qo‘llaniladi?
A) Nazorat guruhida
B) Tajriba guruhida
C) Ikkala guruhda
D) Hech bir guruhda

4. Gipoteza qanday shaklda ifodalanadi?
A) “Kim? Nima?”
B) “Qachon? Qayerda?”
C) “Nima uchun? Qanday?”
D) “Agar …, u holda …”

5. “100 so‘zli diktantdagi punktuatsion xatolar soni” nimaga misol?
A) Ko‘rsatkichga
B) Gipotezaga
C) Dizaynga
D) Mezon nomiga

6. Samaradorlik koeffitsiyenti 1 dan katta bo‘lsa, bu nimani anglatadi?
A) Usul samarasiz
B) Yangi usul samaraliroq
C) Natijalar teng
D) Tajriba noto‘g‘ri o‘tkazilgan

7. Natijaga o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqti va kuchini haddan tashqari sarflamasdan erishish qaysi mezon?
A) Optimallik
B) Barqarorlik
C) Dolzarblik
D) Yangilik

8. Tajribani boshqa o‘qituvchilar boshqa sharoitlarda ham qo‘llay olishi qaysi mezonni ifodalaydi?
A) Dolzarblik
B) Samaradorlik

C) Takrorlanuvchanlik
D) Ilmiy asoslanganlik

9. Tajribani to‘liq va aniq bayon etish qanday ataladi?
A) Tavsiflash
B) Umumlashtirish
C) Modellashtirish
D) Ommalashtirish

10. “Nima uchun ishlaydi va boshqalar uni qanday qo‘llay oladi?” savoliga qaysi bosqich javob beradi?
A) Tavsiflash
B) Materiallarni to‘plash
C) Umumlashtirish
D) Rasmiylashtirish

2.5-§. Ilg‘or tajribani ommalashtirish tartibi, baholash mezonlari va tajriba almashish

Ommalashtirishning yangi tizimi. O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish – tajribani boshqa pedagoglar foydalanishi uchun rasmiy ravishda e’tirof etish va tarqatish jarayoni. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi 32-son buyrug‘i bilan bu jarayonning yangi tartibi belgilandi[112]. 2025-yil 1-martdan boshlab metodik ishlar faqat ommalashtirish.uz elektron platformasi orqali qabul qilinmoqda; ishlarni platformaning mobil ilovasi orqali ham yuborish mumkin[113]. Yangi tizimning asosiy afzalliklari – jarayonning shaffofligi, yagona mezonlar asosida baholash, qog‘ozbozlikning kamayishi, sertifikatlarning elektron shaklda berilishi.

Yangi tartibning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat[114]:

ommalashtirish uchun faqat metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya shaklidagi ishlar ko‘rib chiqiladi;

o‘tgan yillarda ommalashtirilgan ishlar qayta o‘rganilmaydi;

ommalashtirish to‘rt bosqichda – maktab, tuman (shahar), viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri) va respublika miqyosida amalga oshiriladi;

har bir bosqichda qarorlar belgilangan muddatlarda platformaga joylanadi;

talabgor qarordan norozi bo‘lsa, apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

Maktab bosqichi. Fan o‘qituvchisining ishi maktab metodik birlashmasida muhokama qilinadi. Ish ilg‘or deb topilsa, metodik birlashma uni pedagogik kengashga tavsiya etadi. Pedagogik kengash ishni buyruqdagi talablar va baholash mezonlari asosida o‘rganadi hamda ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik haqida

---

[112] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-son buyrug‘i.

[113] https://ommalashtirish.uz – O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish platformasi. Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

[114] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025). Ommalashtirishning yangi tartibi belgilandi. // https://talimxabarlari.uz/3699/.

qaror qabul qiladi. Qaror ijobiy bo‘lsa, ish maktab miqyosida ommalashtiriladi va keyingi bosqichga yuboriladi[115].

Platformaga quyidagi hujjatlar joylanadi: pedagogik kengash qarorining PDF nusxasi; metodik ishning PDF nusxasi; ma’lumotnoma (obyektivka); diplom nusxasi. Maktab bosqichida sertifikat berilmaydi; pedagogik kengash qarori asos hujjat hisoblanadi va u ham uch yil amal qiladi[116].

Maktab bosqichida metodik birlashma va pedagogik kengashning roli juda katta. Ular ishni rasmiy ko‘rib chiqish bilan cheklanmasdan, muallifga uni takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar berishi kerak. Chunki keyingi bosqichda ish 80 ballik mezon asosida mustaqil ekspertlar tomonidan baholanadi va maktab bosqichida e’tibordan chetda qolgan kamchiliklar ball yo‘qotilishiga olib keladi.

Tuman (shahar) va viloyat bosqichlari. Bu bosqichlarda ish tuman (shahar) metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining tegishli fan bo‘yicha o‘quv-metodik kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi va 80 ballik tizimda baholanadi[117]:

50–65 ball to‘plagan ish tuman (shahar) miqyosida ommalashtiriladi;

66–80 ball to‘plagan ish viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri) miqyosida ommalashtiriladi;

75–80 ball to‘plagan ish respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Kengash qarorida uch xil xulosadan biri ko‘rsatiladi: maktab miqyosida ommalashtirilib, qayta ishlash uchun qaytarish; tuman yoki viloyat miqyosida ommalashtirish; viloyat miqyosida ommalashtirib, respublika miqyosiga tavsiya qilish. Bosqich uchun zarur ballni to‘play olmagan talabgorlarga asoslantirilgan xulosa platformaga joylanadi. Kengash qarori har yili 15-mayga qadar platformaga joylanishi shart; qarordan norozi talabgor uch

---

[115] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

[116] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

[117] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin[118].

Respublika bosqichi. Respublika miqyosiga tavsiya etilgan ishlarni Respublika ta’lim markazining Ilmiy-metodik kengashi ko‘rib chiqadi. Bu bosqichda talabgor o‘z ishi bo‘yicha taqdimot qiladi; taqdimot maksimal 20 ball bilan baholanadi. Taqdimotni baholash mezonlari bosqich boshlanishidan bir oy oldin platformaga joylanadi. Oldingi bosqichdagi ball va taqdimot bali qo‘shilib, umumiy 86–100 ball to‘plagan ish respublika miqyosida ommalashtiriladi. Qaror har yili 30-mayga qadar platformaga joylanadi; norozi talabgor uch ish kuni ichida apellyatsiya beradi[119].

Sertifikat. Tuman, viloyat va respublika miqyosidagi sertifikatlarni faqat Respublika ta’lim markazi beradi; ular talabgorning platformadagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi va berilgan kundan boshlab uch yil amal qiladi[120].

Quyidagi jadvalda ommalashtirish bosqichlari umumlashtirilgan.

Bosqich	**Ko‘rib chiquvchi tuzilma**	**Baholash**	**Natija**	**Muddat**
Maktab	Metodik birlashma, pedagogik kengash	Talablar va mezonlar asosida	Pedagogik kengash qarori (3 yil)	O‘quv yili davomida
Tuman (shahar)	Metodik xizmat bo‘limi o‘quv-metodik kengashi	50–65 ball (80 dan)	Tuman sertifikati	15-maygacha
Viloyat	Shu kengash	66–80 ball	Viloyat sertifikati	15-maygacha
Respublika	RTM Ilmiy-metodik kengashi	75–80 ball + taqdimot (20 ball), jami 86–100	Respublika sertifikati	30-maygacha

[118] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

[119] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

[120] Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).

Baholash mezonlari. Tuman (shahar) va viloyat bosqichlarida ish 80 ballik mezonlar asosida baholanadi. Mezonlar metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar bilan birga alohida hujjatda tasdiqlangan[121]. Quyidagi jadvalda mezonlar guruhlangan holda keltiriladi. Mezonlarning rasmiy matni va ballari vaqti-vaqti bilan yangilanishi mumkinligi sababli, ishni tayyorlashda ularning amaldagi tahririni ommalashtirish platformasi orqali tekshirish tavsiya etiladi.

№	Mezon	Ball
	I. Tuzilma va rasmiylashtirish	**6**
1	Muqova va sarlavha sahifasining talabga mosligi	1
2	Annotatsiya, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, ilovalarning mavjudligi va mantiqiy tuzilishi	3
3	Texnik rasmiylashtirish (shrift, oraliq, sahifalash, jadvallar)	2
	II. Mazmun	**34**
4	O‘quv dasturi va davlat ta’lim standartiga moslik	4
5	Ishning yangiligi	3
6	Muallifning shaxsiy hissasi	3
7	Innovatsion yondashuv	6
8	O‘quvchilar yoshi va psixologik xususiyatlariga moslik	2
9	Foydalanishga qulaylik	2
10	Materialning ketma-ketligi	2
11	Fanlararo va mavzulararo integratsiya	4
12	Dolzarb muammoni hal etishga yo‘naltirilganlik	6
13	Tizimlilik	2
	III. Metodik ta’minot	**14**
14	“Qanday o‘qitish kerak?” savolining ochib berilishi	4
15	Topshiriq namunalari, sxema va jadvallar bilan izohlanganlik	2
16	Kutilayotgan natijalarning ko‘rsatilishi	2
17	Dastlabki tayyorgarlik bo‘yicha ko‘rsatmalar	2
18	Baholash tartibining aniqligi	4
	IV. Kompetensiyalarni rivojlantirish	**8**
19	4K ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik	4
20	AKT va media vositalaridan foydalanish	2

[121] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

№	Mezon	Ball
21	Tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish	2
	V. Til va uslub	**18**
22	Yangi va xorijiy soʻzlarga izoh berilganligi	4
23	Fikrlarning aniq ifodalanganligi	2
24	Ilmiy uslubga rioya qilinganligi	2
25	Takrorlarning yoʻqligi	2
26	Atamalar va imlo qoidalariga muvofiqlik	2
27	Imloviy xatolar (1–3 ta – 2 ball; 4 va undan ortiq – 0)	2
28	Tinish belgilari xatolari (1–3 ta – 2 ball; 4 va undan ortiq – 0)	2
29	Uslubiy xatolar (1–2 ta – 2 ball; 3 va undan ortiq – 0)	2
	Jami	**80**

Plagiat aniqlangan ish nol ball bilan baholanadi[122].

Mezonlar tahlili: qayerda ball yoʻqotiladi? Jadvaldan koʻrinadiki, eng koʻp ball mazmun (34 ball) va til-uslub (18 ball) bloklariga toʻgʻri keladi. Shu bilan birga, ayrim mezonlarning "ogʻirligi" alohida e'tiborni talab qiladi.

Innovatsion yondashuv (6 ball) va dolzarb muammoni hal etishga yoʻnaltirilganlik (6 ball) – eng yuqori balli alohida mezonlar. Ular ishlanmaning mohiyatini belgilaydi: agar ish aniq muammoni hal etmasa va innovatsion elementga ega boʻlmasa, uni boshqa mezonlar boʻyicha "qutqarib" boʻlmaydi. Bu mezonlar boʻyicha yuqori ball olish uchun 1.3-§ da koʻrib chiqilgan dolzarblik va yangilikni asoslash texnologiyasini qoʻllash zarur.

"Qanday oʻqitish kerak?" savoli (4+2 ball) – ishlanmaning amaliy yadrosini baholaydi. Koʻplab ishlarda nazariy ma'lumotlar koʻp, ammo aniq metodik yoʻriqnoma kam; bu mezon boʻyicha ball yoʻqotishning asosiy sababi shu.

Baholash tartibi (4 ball) – koʻpincha e'tibordan chetda qoladi. Ishlanmada oʻquvchilar natijalarini qanday baholash, qanday mezon va rubrikalardan foydalanish koʻrsatilishi kerak (2.3-§).

Yangi va xorijiy soʻzlarga izoh (4 ball) – oddiy, ammo koʻp ball yoʻqotiladigan mezon. Ishlanmadagi har bir xorijiy atama

[122] Metodik qoʻllanma va metodik tavsiyaga qoʻyiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

(“skaffolding”, “keys-stadi”, “insert”, “klaster” va h.k.) birinchi qo‘llanganda izohlanishi yoki ishlanma oxiriga glossariy qo‘shilishi kerak.

Imloviy, tinish va uslubiy xatolar (2+2+2 ball) – qat’iy mezonlar: imloviy va tinish belgilari xatolari 4 tadan, uslubiy xatolar 3 tadan oshsa, tegishli mezon bo‘yicha ball umuman berilmaydi. Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uchun bu mezonlarda ball yo‘qotish ayniqsa nomaqbul (1.1-§).

“Kasbiy rivojlanish kuni”. Buyruqqa ko‘ra “Kasbiy rivojlanish kuni” fan yo‘nalishlari bo‘yicha haftaning muayyan kuniga belgilanadi; filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili, rus tili) o‘qituvchilari uchun bu kun – seshanba[123]. Boshqa fan o‘qituvchilari uchun ham haftaning alohida kunlari belgilangan: ijtimoiy fanlar – dushanba, tabiiy fanlar – chorshanba, aniq fanlar – payshanba, xorijiy tillar – juma, amaliy fanlar va boshlang‘ich ta’lim – shanba. Shu munosabat bilan maktablarda dars jadvallari tegishlicha moslashtiriladi: belgilangan kunda shu fan o‘qituvchilariga dars mashg‘ulotlari qo‘yilmaydi. Buyruqqa ilova qilingan Tartibda “Kasbiy rivojlanish kuni” o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash, zamonaviy o‘qitish metodikasi va AKTdan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkaziladigan haftaning muayyan kuni sifatida ta’riflangan. Mashg‘ulotlar tayanch maktablarda o‘tkaziladi; tadbirlar o‘quvchilarning ta’til kunlarida ham tashkil etilishi mumkin[124].

“Kasbiy rivojlanish kuni” mashg‘ulotlarini mentor-o‘qituvchilar olib boradi. Mentor-o‘qituvchilar – tajribali, yuqori malakali, o‘z ilg‘or tajribasiga ega pedagoglar bo‘lib, ular ushbu faoliyati uchun

[123] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

[124] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

ish haqiga ustama (20 foiz) oladi[125]. Mashg‘ulotlar mazmuni o‘qituvchilarning ehtiyojlari asosida rejalashtiriladi va quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

seminar-treninglar – zamonaviy metodlar, baholash usullari, raqamli vositalarni o‘rganish;

ochiq darslar va mahorat darslari – mentor yoki ilg‘or o‘qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish;

amaliy ustaxonalar – dars ishlanmasi, topshiriqlar, baholash materiallarini birgalikda ishlab chiqish;

tajriba almashish davralari – o‘qituvchilar o‘z muvaffaqiyatli usullari bilan o‘rtoqlashadi;

metodik muammolarni muhokama qilish – “keys” shaklida real vaziyatlarni tahlil qilish;

mustaqil ta’lim – onlayn kurslar, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish.

“Kasbiy rivojlanish soati”. Tartibga ko‘ra “Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘qituvchilar o‘z maktablarida qo‘llashini tahlil qilish, ularga metodik yordam ko‘rsatish, tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar. Tadbirlarning vazifalari qatorida o‘qituvchilarga o‘zaro tajriba almashish, shu jumladan “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish ham belgilangan[126]. Shunday qilib, uning asosiy shakllari – dars kuzatish, refleksiv amaliyot va ustoz-shogird faoliyati.

Dars kuzatish. O‘qituvchilar bir-birining darslarini oldindan kelishilgan maqsad va mezonlar asosida kuzatadi. Bunday kuzatuv nazorat yoki baholash uchun emas, balki o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash uchun o‘tkaziladi. Kuzatuvchi darsga “kuzatuv fokusi” bilan keladi (masalan, “o‘quvchilarning matn bilan

[125] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

[126] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.

mustaqil ishlashi”, “savol berish usullari”, “differensiatsiya”) va aynan shu jihat bo‘yicha ma’lumot to‘playdi.

Refleksiv amaliyot. Dars kuzatuvidan keyin o‘qituvchilar birgalikda darsni tahlil qiladi: nima yaxshi chiqdi, nima kutilganidek bo‘lmadi, nima uchun, keyingi safar nimani o‘zgartirish mumkin. D.Shyon tavsiflagan “harakatdagi refleksiya” va “harakatdan keyingi refleksiya” g‘oyalari bu amaliyotning nazariy asosini tashkil etadi[127].

Ustoz-shogird faoliyati. Tajribali o‘qituvchi yosh yoki yangi kelgan hamkasbiga muntazam yordam beradi: darsga tayyorlanish, dars o‘tish, baholash, sinf rahbarligi, hujjatlar yuritish masalalarida maslahat beradi, darslarini kuzatadi va o‘z darslariga taklif qiladi.

“Dars tadqiqi” (lesson study) modeli. Yaponiyada shakllangan va dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqalgan “dars tadqiqi” modeli “Kasbiy rivojlanish soati” uchun ayniqsa mos. Bu modelda bir guruh o‘qituvchi birgalikda bitta “tadqiqot darsi”ni loyihalaydi; guruhdan biri uni o‘tadi, qolganlari esa o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini kuzatadi; so‘ngra guruh darsni tahlil qiladi, uni takomillashtiradi va boshqa sinfda qayta o‘tkazadi. Sikl 2–3 marta takrorlanishi mumkin. Natijada sinalgan va takomillashtirilgan dars ishlanmasi hosil bo‘ladi – bu esa jamoaviy uslubiy tavsiya yoki qo‘llanma uchun tayyor material.

Ona tili va adabiyot metodik birlashmasida “dars tadqiqi” quyidagicha tashkil etilishi mumkin. 1-hafta: guruh umumiy muammoni tanlaydi (masalan, “7-sinf o‘quvchilari she’riy matnni tahlil qilishda badiiy tasvir vositalarini topadi, ammo ularning vazifasini izohlay olmaydi”) va tadqiqot darsini loyihalaydi. 2-hafta: bir o‘qituvchi darsni o‘tadi, uch hamkasb kuzatadi; har bir kuzatuvchi 3–4 o‘quvchining ishini yaqindan kuzatib boradi. Shu hafta ichida refleksiv muhokama o‘tkaziladi. 3-hafta: takomillashtirilgan dars boshqa sinfda boshqa o‘qituvchi tomonidan o‘tiladi. 4-hafta: yakuniy tahlil, natijalar va xulosalar yozib olinadi.

[127] Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action.

Ona tili va adabiyot oʻqituvchilari tajribasidan namunalar. Quyida maktab amaliyotida uchraydigan va ommalashtirishga tayyorlash mumkin boʻlgan ilgʻor tajribaning ikki namunasi umumlashtirilgan holda keltiriladi. Ular muayyan oʻqituvchilar ishining aynan nusxasi emas, balki samarali yondashuvlarning metodik umumlashmasidir; keltirilgan raqamlar shartli boʻlib, natijalarni qanday taqdim etish mumkinligini koʻrsatish uchun berilgan.

1-namuna. “Xatolar daftari” orqali imloviy savodxonlikni rivojlantirish (5–7-sinflar).

Muammo. Oʻquvchilar diktant va yozma ishlarda bir xil turdagi imloviy xatolarni qayta-qayta takrorlaydi; xatolar ustida ishlash koʻpincha xatoni toʻgʻri yozib, uch marta koʻchirish bilan cheklanadi va samara bermaydi.

Yetakchi gʻoya. Imloviy savodxonlik qoidani yodlash orqali emas, oʻz xatosini mustaqil topish, tasniflash va qoidaga tayanib izohlash orqali shakllanadi.

Texnologiya. Har bir oʻquvchi “Xatolar daftari” yuritadi. Daftar toʻrt ustunli jadvaldan iborat: xato yozilgan soʻz; toʻgʻri yozilishi; tegishli qoida (oʻquvchi oʻz soʻzi bilan); shu qoidaga 3 ta yangi misol. Har bir yozma ishdan keyin oʻquvchi xatolarini daftarga kiritadi. Oyda bir marta “Mening xatolarim xaritasi” tuziladi: oʻquvchi xatolarini turlarga ajratadi va eng koʻp uchraydigan turini aniqlaydi. Oʻqituvchi sinf boʻyicha umumiy xaritani tuzib, eng koʻp uchraydigan xato turlari boʻyicha 5–7 daqiqalik “imlo daqiqalari”ni rejalashtiradi. Chorak oxirida oʻquvchilar juftlikda bir-birining daftari boʻyicha “imlo diktanti” oʻtkazadi.

Natija. Bir oʻquv yili davomida 6-sinflarda diktantlardagi imloviy xatolarning oʻrtacha soni 7,8 tadan 3,1 taga kamaydi; oʻquvchilar xatoni qoidaga tayanib izohlash koʻnikmasini egalladi.

Ishlanma turi. Uslubiy tavsiya (12–16 bet): nazariy asos (imloviy savodxonlik va oʻz-oʻzini nazorat), daftar yuritish yoʻriqnomasi, “xatolar xaritasi” namunasi, “imlo daqiqalari” uchun mashqlar toʻplami, natijalar.

2-namuna. O‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi matn bilan ishlash strategiyalari (5–6-sinflar).

Muammo. Monitoring natijalari o‘quvchilar matndan aniq ma’lumotni topa olishini, ammo matndan xulosa chiqarish, uni talqin qilish va baholashda qiynalishini ko‘rsatadi.

Yetakchi g‘oya. Matnni tushunish – o‘rgatiladigan ko‘nikma; uni xalqaro baholash dasturlaridagi o‘qish jarayonlariga mos strategiyalar orqali bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin[128].

Texnologiya. Ona tili va adabiyot darslarida har hafta bitta matn “to‘rt qadam” asosida o‘rganiladi: 1) ma’lumot topish (“Matnda … qayerda aytilgan?”); 2) xulosa chiqarish (“Nima uchun qahramon … qildi?”); 3) talqin qilish (“Muallif bu bilan nima demoqchi?”); 4) baholash (“Siz muallif fikriga qo‘shilasizmi? Nega?”). Har bir qadam uchun “savol kartochkalari” va “Iz-dalil” jadvali (javob – matndagi dalil) ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan bir qatorda ilmiy-ommabop matnlar, e’lonlar, jadvallar, yo‘riqnomalar kabi “uzluksiz bo‘lmagan” matnlar ham qo‘llanadi.

Natija. Xulosa chiqarish va talqin qilish topshiriqlarini to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar ulushi 27 foizdan 58 foizga oshdi.

Ishlanma turi. Uslubiy tavsiya yoki qo‘llanma (topshiriqlar to‘plami hajmiga qarab).

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Uslubiy ishlanmani 80 ballik mezonlar asosida ekspertiza qilish.

Maqsad: tinglovchilarda ommalashtirish tartibi va baholash mezonlarini amalda qo‘llash, ishlanmani ekspert ko‘zi bilan baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar berish ko‘nikmasini shakllantirish.

Vaqt: 80 daqiqa. **Shakl:** “Ekspert kengashi” rolli o‘yini. **Jihozlar:** ikkita namunaviy uslubiy tavsiya (biri yuqori, biri o‘rta sifatli), 80 ballik baholash varaqasi, ommalashtirish bosqichlari sxemasi.

[128] Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) PIRLS 2021 Assessment Frameworks. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (10 daqiqa). “Ommalashtirish yo‘li” sxemasi bo‘yicha viktorina: tinglovchilar bosqichlar, ball chegaralari, muddatlar, hujjatlar haqidagi savollarga javob beradi.

2. Nazariy qism (10 daqiqa). Mezonlar jadvali tahlil qilinadi, eng ko‘p ball yo‘qotiladigan mezonlarga e’tibor qaratiladi.

3. “Ekspert kengashi” (35 daqiqa). Tinglovchilar 4–5 kishilik “kengash”larga bo‘linadi. Har bir kengash namunaviy ishlanmani o‘qib, uni 80 ballik varaqa asosida baholaydi: avval har bir a’zo yakka baholaydi, so‘ngra kengash yagona ballga kelishadi va qaror loyihasini tayyorlaydi (qaysi miqyosda ommalashtirish yoki qayta ishlashga qaytarish).

4. Qarorlarni taqdim etish (15 daqiqa). Kengashlar qarorini e’lon qiladi va eng ko‘p ball yo‘qotilgan uchta mezonni ko‘rsatadi. Turli kengashlar ballari solishtirilib, tafovutlar sabablari muhokama qilinadi.

5. Refleksiya (10 daqiqa). Tinglovchilar “O‘z ishlanmamda birinchi navbatda … mezon bo‘yicha ishlashim kerak” gapini yakunlaydi.

Kutilayotgan natija: tinglovchilar ommalashtirish tartibini o‘zlashtiradi, mezonlarni amalda qo‘llaydi va o‘z ishlanmasidagi zaif tomonlarni aniqlaydi.

Baholash: viktorina natijasi (2 ball), ekspertiza sifati va asosliligi (6 ball), refleksiya (2 ball).

Nazorat savollari

1. Ommalashtirishning yangi tartibi qaysi buyruq bilan belgilangan va qachondan amalga kiritilgan?
2. Ommalashtirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
3. Maktab bosqichida platformaga qanday hujjatlar joylanadi?
4. Tuman va viloyat bosqichlarida ball chegaralari qanday?
5. Kengash qarorlari qaysi muddatlarda platformaga joylanadi?
6. Sertifikatlarni kim beradi va ular qancha muddat amal qiladi?
7. Qaysi mezonlar bo‘yicha ko‘p ball yo‘qotiladi va buning oldini qanday olish mumkin?

8. “Kasbiy rivojlanish kuni” filologiya oʻqituvchilari uchun qaysi kunga belgilangan?

9. “Kasbiy rivojlanish soati”ning asosiy shakllarini sanab bering.

10. “Dars tadqiqi” modeli qanday bosqichlardan iborat?

Topshiriqlar

1. Ommalashtirish bosqichlarini sxema shaklida chizing: tuzilma, ball, hujjat, muddat.

2. Oʻz ishlanmangizni 80 ballik mezonlar asosida baholang va har bir mezon uchun ishlanmaning tegishli sahifasini koʻrsating.

3. Baholash natijasida eng kam ball olgan uchta mezon boʻyicha ishlanmangizni takomillashtirish rejasini tuzing.

4. Ishlanmangizdagi barcha xorijiy va yangi atamalarni aniqlab, ularga izoh yozing yoki glossariy tuzing.

5. Ishlanmangizni imloviy, tinish va uslubiy xatolar boʻyicha alohida-alohida tekshirib, xatolar sonini yozing.

6. “Oʻquvchilarning ogʻzaki nutq faolligi” fokusi boʻyicha dars kuzatish varaqasini tuzing.

7. Metodik birlashmangiz uchun toʻrt haftalik “dars tadqiqi” rejasini tuzing.

8. Oʻz tajribangizni namunalar sxemasida (1–1,5 bet) tavsiflang.

9. Ona tili darsi uchun “toʻrt qadam” strategiyasi asosida bitta matn va 8 ta savol tuzing.

10. Dramatik asardan bitta sahna uchun “rejissyorlik daftari” sahifasini tayyorlang.

Test topshiriqlari

1. Ommalashtirishning yangi tartibi qachondan ommalashtirish.uz platformasi orqali amalga oshirilmoqda?

A) 2023-yil 1-sentabrdan
B) 2024-yil 7-fevraldan
C) 2025-yil 1-martdan
D) 2026-yil 16-martdan

2. Maktab bosqichida ishni dastlab kim muhokama qiladi?

A) Metodik birlashma

B) Respublika ta’lim markazi

C) Tuman hokimligi

D) Ota-onalar qo‘mitasi

3. Viloyat miqyosida ommalashtirish uchun necha ball kerak?

A) 50–65

B) 30–49

C) 86–100

D) 66–80

4. Respublika miqyosiga tavsiya etish uchun tuman/viloyat bosqichida necha ball to‘plash kerak?

A) 75–80

B) 50–65

C) 60–70

D) 40–50

5. Tuman va viloyat kengashlari qarori har yili qaysi sanagacha platformaga joylanadi?

A) 1-aprel

B) 30-iyun

C) 15-may

D) 1-sentabr

6. Apellyatsiya uchun murojaat qilish muddati qancha?

A) 1 oy

B) 3 ish kuni

C) 10 kun

D) Muddatsiz

7. Imloviy xatolar soni nechta bo‘lsa, ushbu mezon bo‘yicha 2 ball saqlanadi?

A) 1–3 ta

B) 4–6 ta

C) 7–10 ta

D) Faqat 10 tadan ortiq

8. Maktab bosqichida nima beriladi?

A) Respublika sertifikati

B) Tuman sertifikati

C) Sertifikat berilmaydi, pedagogik kengash qarori asos bo‘ladi

D) Diplom

9. Filologiya yo‘nalishidagi o‘qituvchilar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” qaysi kun?

A) Seshanba

B) Dushanba

C) Juma

D) Shanba

10. Bir guruh o‘qituvchi birgalikda darsni loyihalab, kuzatib, tahlil qilib, takomillashtirib qayta o‘tkazadigan model qanday ataladi?

A) “Aqliy hujum”

B) “Dars tadqiqi” (lesson study)

C) “Keys-stadi”

D) “Zig-zag”

XULOSA

Mazkur uslubiy qoʻllanmada ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisining uslubiy ishlanma yaratish texnologiyasi nazariy, me'yoriy va amaliy jihatlardan yaxlit tizim sifatida yoritildi. Qoʻllanma ustida olib borilgan ish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, uslubiy ishlanma – oʻqituvchining "qanday oʻqitish kerak?" degan savolga bergan, yozma shaklda rasmiylashtirilgan, amalda sinalgan va boshqa pedagoglar foydalana oladigan javobidir. U oʻqituvchi uchun refleksiya, kasbiy hamkorlik, kasbiy rivojlanish va ta'lim sifatini oshirish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Tezis, ilmiy-metodik maqola, uslubiy koʻrsatma, uslubiy tavsiya, uslubiy qoʻllanma va dars ishlanmasi vazifasi, qamrovi va hajmiga koʻra farqlanadi; ishlanma turini toʻgʻri tanlash uning muvaffaqiyatini oldindan belgilaydi.

Ikkinchidan, uslubiy ishlanma yaratish mustahkam me'yoriy-huquqiy asosga ega. "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonun pedagogning ijodkorlik huquqini kafolatlaydi; "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi va PQ-231-son qaror kasbiy rivojlanishning uzluksizligini belgilaydi; 32-son buyruq ilgʻor tajribani ommalashtirishning shaffof elektron tizimini joriy etgan; 246-son buyruq esa "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" orqali tajriba almashishning muntazam maydonini yaratgan; 101-son buyruq bilan tasdiqlangan malaka oshirish oʻquv rejasidagi 3.7-modul ishlanma yaratish koʻnikmalarini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning majburiy qismiga aylantirgan.

Uchinchidan, sifatli ishlanma yaratish oʻqituvchidan ilmiy-metodik kompetentlikni – muammoni koʻra bilish, tadqiqot metodlarini qoʻllash, natijalarni tahlil qilish va ilmiy uslubda yozish koʻnikmalarini talab etadi. Bu kompetentlik harakatdagi tadqiqot, pedagogik kundalik yuritish, hamkasblar darslarini kuzatish va refleksiv amaliyot orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi. Oʻzbek metodika ilmining jadid ma'rifatparvarlaridan boshlab bugungi kungacha boʻlgan boy merosi har bir yangi ishlanma uchun tayanch va qiyos manbai boʻlib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, ishlanmaning muvaffaqiyati mavzu tanlash bosqichidayoq belgilanadi. Aniq, tor va dolzarb mavzu, me’yoriy hujjatlar va raqamli dalillar bilan asoslangan dolzarblik, avvalgi tajriba bilan qiyoslash orqali aniqlangan yangilik, o‘lchanadigan shaklda ifodalangan maqsad va natijalar – ishlanmaning “skeleti”ni tashkil etadi.

Beshinchidan, tezis va ilmiy-metodik maqola yozish o‘qituvchi uchun ilmiy-metodik yozuvning dastlabki va zarur bosqichidir. Ilmiy uslub me’yorlariga rioya qilish, maqolani IMRaD tuzilmasi asosida qurish, manbalardan to‘g‘ri foydalanish va havola berish, pedagogik tajriba-sinov natijalarini ishonchli tahlil qilish, sifatli annotatsiya va kalit so‘zlar yozish ishlanma sifatining kafolatidir. Akademik halollik va sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish bugungi kunda ishlanma muallifining kasbiy odob-axloq me’yoriga aylanmoqda.

Oltinchidan, uslubiy tavsiya va uslubiy qo‘llanma tayyorlash aniq bosqichlarga ega texnologik jarayondir: tajriba inventarizatsiyasi, muammo va mavzuni aniqlash, adabiyotlarni o‘rganish, usulni tizimlashtirish, amalda sinash, tuzilmani loyihalash, matnni yozish, tahrir va taqriz, rasmiylashtirish. Dars ishlanmasi va texnologik xarita, ko‘p darajali topshiriqlar tizimi, test va baholash rubrikalari ishlanmaning amaliy yadrosini tashkil etadi; to‘g‘ri texnik rasmiylashtirish va ilovalar uning foydalanishga qulayligini ta’minlaydi.

Yettinchidan, ilg‘or pedagogik tajriba dolzarblik, yangilik, samaradorlik, barqarorlik, optimallik, takrorlanuvchanlik va ilmiy asoslanganlik mezonlariga javob beradi. Tajribani ommalashtirishga tayyorlash uchun uni tavsiflashning o‘zi yetarli emas: uni umumlashtirish, yetakchi g‘oyasini aniqlash, model shakliga keltirish va dalillar bilan asoslash zarur. Ommalashtirishning 80 ballik mezonlari ishlanmaning tuzilmasi, mazmuni, metodik ta’minoti, kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi va tili-uslubini kompleks baholaydi; ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uchun imloviy, tinish va uslubiy xatolarsiz yozish alohida mas’uliyatdir.

Qo‘llanma asosida quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi:

1. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga – har o‘quv yilida kamida bitta kichik harakatdagi tadqiqot o‘tkazish, pedagogik kundalik va elektron portfolio yuritish, natijalarni avval tezis yoki maqola, keyin uslubiy tavsiya, so‘ngra uslubiy qo‘llanma shaklida umumlashtirish.

2. Metodik birlashma rahbarlariga – o‘quv yili boshida a’zolarning ishlanma mavzularini “Mavzu pasporti” shaklida muhokama qilish, “Hashar asar” va “Dars tadqiqi” usullarida jamoaviy ishlanmalar yaratishni tashkil etish, ishlanmalarni maktab bosqichida 80 ballik mezonlar asosida oldindan ekspertiza qilish.

3. Mentor-o‘qituvchilarga – “Kasbiy rivojlanish kuni” mashg‘ulotlariga uslubiy ishlanma yaratish bo‘yicha amaliy ustaxonalarni kiritish, yosh o‘qituvchilarga tezis va maqola yozishda ustozlik qilish.

4. Pedagogik mahorat markazlariga – malaka oshirish kurslarining 3.7-moduli mashg‘ulotlarida ushbu qo‘llanmadagi amaliy mashg‘ulot ishlanmalaridan foydalanish, tinglovchilarning ishlanma loyihalarini kurs yakunida taqdimot qilish amaliyotini joriy etish, ommalashtirilgan ishlarning elektron namunalar bazasini shakllantirish.

Qo‘llanmadagi har bir paragraf amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, nazorat savollari, topshiriqlar va test topshiriqlari bilan ta’minlangani uni malaka oshirish kurslarida, kasbiy rivojlanish tadbirlarida, metodik birlashma mashg‘ulotlarida va o‘qituvchining mustaqil ta’limida samarali qo‘llash imkonini beradi. Muallif qo‘llanmani takomillashtirish bo‘yicha hamkasblarning fikr va takliflarini mamnuniyat bilan qabul qiladi.

GLOSSARIY

“Ag‘darilgan sinf” (ingl. flipped classroom) – yangi material bilan o‘quvchilar uyda mustaqil tanishib, sinfda asosan amaliy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ta’lim modeli.

Akademik halollik – ta’lim va ilmiy faoliyatda rostgo‘ylik, adolat, mas’uliyat, boshqalar intellektual mehnatiga hurmat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilish.

Aniqlovchi (konstatatsiya) tajriba – pedagogik tajriba-sinovning o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining mavjud holatini aniqlashga qaratilgan dastlabki bosqichi.

Annotatsiya (lot. annotatio – izoh) – ilmiy yoki uslubiy ish mazmunining qisqa tavsifi; ommalashtirish talablariga ko‘ra 4–8 gapdan iborat bo‘ladi.

Aralash ta’lim – an’anaviy sinf mashg‘ulotlari va elektron (onlayn) ta’lim shakllarining maqsadli uyg‘unligi.

Baholash rubrikasi – baholash mezonlari va har bir mezon bo‘yicha darajalar tavsifi berilgan jadval; ijodiy va yozma ishlarni obyektiv baholash vositasi.

Blum taksonomiyasi – o‘quv maqsadlarini kognitiv jarayonlar darajalari bo‘yicha (eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish) tasniflash tizimi.

CARS modeli (ingl. Create a Research Space – tadqiqot maydonini yaratish) – J.Svels tomonidan taklif etilgan, ilmiy maqola kirishini uch harakat (hududni belgilash, bo‘shliqni aniqlash, bo‘shliqni egallash) asosida qurish modeli.

Dars ishlanmasi (dars loyihasi) – darsning maqsadi, turi, metodlari, jihozlari va bosqichlardagi o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyati matn shaklida batafsil yoritilgan hujjat.

“Dars tadqiqi” (ingl. lesson study) – bir guruh o‘qituvchi birgalikda darsni loyihalab, uni kuzatib, tahlil qilib, takomillashtirib qayta o‘tkazishiga asoslangan hamkorlikdagi kasbiy rivojlanish modeli.

Didaktika – ta’lim nazariyasi; o‘qitishning maqsad, mazmun, prinsip, metod, vosita va shakllarini o‘rganuvchi pedagogika sohasi.

Differensiatsiya – o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olib, ularga turli darajadagi topshiriq va yordam berish.

Dolzarblik – mavzuning hozirgi kunda ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligi, uni tez hal etish zarurligi.

Formativ (shakllantiruvchi) baholash – o‘quv jarayonida o‘quvchiga muntazam qayta aloqa berish orqali uning rivojlanishiga yordam beruvchi baholash.

Funksional savodxonlik – egallangan bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati.

Geymifikatsiya – o‘yin elementlarini o‘yin bo‘lmagan o‘quv jarayoniga kiritish orqali motivatsiyani oshirish.

Gipoteza – tadqiqot natijasi haqidagi ilmiy taxmin; “agar …, u holda …” shaklida ifodalanadi.

Grafik organayzer – ma’lumotni vizual tartibga soluvchi sxema (klaster, Venn diagrammasi, “Baliq skeleti”, T-jadval va boshqalar).

Harakatdagi tadqiqot (ingl. action research) – o‘qituvchining o‘z amaliyotini rejalashtirish – harakat – kuzatish – refleksiya sikli asosida muntazam o‘rganib, takomillashtirib borishi.

“Hashar asar” – guruh a’zolari ishlanma tuzilmasining qismlarini taqsimlab yozib, so‘ngra ularni birgalikda yaxlit qoralamaga birlashtiradigan jamoaviy yozish usuli.

Ilg‘or pedagogik tajriba – an’anaviy amaliyotga nisbatan barqaror yuqori natija beruvchi, ilmiy asoslangan va boshqa o‘qituvchilar qo‘llay oladigan pedagogik faoliyat.

Ilmiy uslub – fan va ta’lim sohasida qo‘llaniladigan, mantiqiylik, aniqlik, obyektivlik, dalillanganlik va ixchamlik bilan tavsiflanadigan vazifaviy uslub.

Ilmiy-metodik kompetentlik – o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, muammoni aniqlab hal etish yo‘llarini izlash, natijalarni baholash va yozma shaklda boshqalarga yetkaza olish qobiliyati.

Ilmiy-metodik maqola – muayyan metodik muammoni tahlil qiluvchi, uni hal etish yo‘llarini bayon etuvchi va ularning samaradorligini dalillovchi ilmiy asar.

Ilova – asosiy matnni to‘ldiruvchi, uni chalg‘itmaslik uchun alohida berilgan materiallar (dars ishlanmalari, tarqatmalar, testlar, so‘rovnomalar, fotosuratlar).

IMRaD (ingl. Introduction, Methods, Results and Discussion) – ilmiy maqolaning kirish, metodlar, natijalar va muhokama qismlaridan iborat xalqaro tuzilmasi.

Innovatsion yondashuv – ta’lim jarayoniga yangi g‘oya, usul, vosita yoki ularning yangi uyg‘unligini joriy etish.

Integratsiya (fanlararo, mavzulararo) – turli fanlar yoki mavzular mazmunini o‘zaro bog‘lab o‘rgatish.

Kalit so‘zlar – ishning asosiy mazmunini ifodalovchi va uni axborot tizimlarida izlashni osonlashtiruvchi so‘z va so‘z birikmalari (ommalashtirish talablariga ko‘ra 6–8 ta).

“Kasbiy rivojlanish kuni” – 246-son buyruqqa ko‘ra fan yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan, o‘qituvchilar tayanch maktablarda o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’limda qatnashadigan haftaning muayyan kuni (filologiya fanlari o‘qituvchilari uchun – seshanba).

“Kasbiy rivojlanish soati” – o‘qituvchilar kasbiy rivojlanish kunida o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni o‘z maktabida qo‘llashini tahlil qilish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot va maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar.

Keys-stadi (ingl. case study – vaziyatni o‘rganish) – real yoki real hayotga yaqin vaziyatni tahlil qilib, uning yechimini topishga asoslangan interfaol metod.

Klaster (ingl. cluster – to‘plam, tutam) – markaziy tushunchadan tarmoqlanib boruvchi bog‘liq tushunchalar sxemasi.

Kompetensiya – muayyan sohada bilim, ko‘nikma va qadriyatlarga tayanib amaliy masalalarni hal eta olish uchun zarur bo‘lgan sifatlar majmui; kompetentlik – shu sifatlarning shaxsda namoyon bo‘lish darajasi.

Konsepsiya varag‘i – qo‘llanmani yozishdan oldin tuziladigan, uning nomi, foydalanuvchisi, maqsadi, tuzilmasi, hajmi va muddatlari ko‘rsatilgan 1–2 sahifalik loyiha hujjati.

Mental xarita – markaziy g‘oyadan tarmoqlanuvchi kalit so‘zlar, ranglar va tasvirlar yordamida ma’lumotni vizual tartibga solish usuli.

Mentor-o‘qituvchi – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “soati” tadbirlarini tashkil etish uchun fanlar kesimida tanlab olingan yuqori malakali o‘qituvchi.

Metakognitsiya – shaxsning o‘z bilishi va o‘rganish jarayonini anglashi, nazorat qilishi va boshqarishi.

Modulli o‘qitish – o‘quv mazmunini nisbatan mustaqil, har biri o‘z maqsadi va nazorat materialiga ega modullarga bo‘lib o‘rgatish.

Monografiya – muayyan ilmiy muammoni chuqur tadqiq etuvchi va yangi ilmiy bilim yaratuvchi ilmiy asar.

Novatorlik tajribasi – o‘qituvchining yangi metodik g‘oya, usul yoki tizimni yaratib, uni amalda samarali qo‘llashi.

Ommalashtirish – ilg‘or ish tajribasini rasmiy ravishda e’tirof etish va boshqa pedagoglar foydalanishi uchun tarqatish jarayoni; 32-son buyruqqa ko‘ra ommalashtirish.uz platformasi orqali maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlarida amalga oshiriladi.

O‘qish savodxonligi – yozma matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular haqida mulohaza yuritish va ularni baholash qobiliyati.

Parafraz (bayon) – boshqa muallif fikrini o‘z so‘zlari bilan, havola berilgan holda qayta ifodalash.

Pedagogik mahorat tajribasi – o‘qituvchining ma’lum usullardan yuqori mahorat bilan foydalanib, barqaror yuqori natijaga erishishi.

Pedagogik model – o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni soddalashtirilgan shaklda aks ettiruvchi sxema.

Pedagogik tajriba-sinov (eksperiment) – yangi usul yoki metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida maxsus tashkil etilgan va nazorat qilinadigan sharoitda o‘tkaziladigan tadqiqot.

Pedagogik texnologiya – oldindan loyihalangan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va kafolatlangan natija beruvchi o‘quv jarayonini tashkil etish tizimi.

PIRLS (ingl. Progress in International Reading Literacy Study) – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholovchi xalqaro tadqiqot.

PISA (ingl. Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini baholovchi xalqaro dastur.

Plagiat – boshqa muallif matni, g‘oyasi yoki natijalarini havola bermasdan o‘ziniki sifatida taqdim etish.

Refleksiv amaliyot – mutaxassisning o‘z harakatlari haqida muntazam o‘ylash va tahlil qilish orqali kasbiy o‘sishga erishishi (D.Shyon).

Refleksiya – shaxsning o‘z faoliyati, fikrlari va his-tuyg‘ularini tahlil qilishi va baholashi.

Sertifikat – ilg‘or tajribaning tuman, viloyat yoki respublika miqyosida ommalashtirilganini tasdiqlovchi, Respublika ta’lim markazi tomonidan beriladigan va uch yil amal qiladigan hujjat.

Skaffolding (ingl. scaffolding – havoza) – o‘quvchiga topshiriqni mustaqil bajara olguniga qadar bosqichma-bosqich beriladigan va asta-sekin kamaytiriladigan yordam.

Sun’iy intellekt (SI) – inson intellektiga xos vazifalarni (matn yaratish, tarjima, tahlil) bajaruvchi kompyuter tizimlari; ishlanma yaratishda mas’uliyatli, shaffof va tekshirilgan holda foydalanilishi lozim.

Taqriz – ishlanmaning ilmiy-metodik saviyasi, dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyati haqida mutaxassis tomonidan yozilgan baho.

Teskari loyihalash (ingl. backward design) – avval kutilayotgan natijalar, so‘ngra ularni tasdiqlovchi baholash dalillari va faqat shundan keyin o‘quv faoliyati rejalashtiriladigan loyihalash yondashuvi (G.Viggins, J.Maktay).

Texnologik xarita – dars bosqichlari, vaqt, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, metod va vositalar hamda kutilayotgan natijalar jadval shaklida ixcham ko‘rsatilgan hujjat.

Tezis (yun. thesis – qo‘yilgan fikr) – tadqiqotning asosiy g‘oyalari, natijalari va xulosalarini qisqa (1–3 sahifa) bayon etuvchi ilmiy matn.

Uslubiy ishlanma – o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qitish mazmuni, metod va vositalarini tanlash hamda qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchiga yo‘l ko‘rsatuvchi, muayyan pedagogik muammoni hal etishga qaratilgan, yozma shaklda rasmiylashtirilgan material.

Uslubiy ko‘rsatma – muayyan ishni bajarish tartibini qisqa, aniq va ko‘pincha majburiy shaklda belgilovchi ishlanma.

Uslubiy qo‘llanma – o‘qitishning muayyan bo‘limi yoki yo‘nalishi bo‘yicha nazariy asoslar, metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, topshiriqlar va baholash materiallarini tizimli o‘z ichiga olgan ishlanma (kamida 24 bet).

Uslubiy tavsiya – dolzarb metodik muammoni hal etish bo‘yicha asoslangan takliflar va ularni amalga oshirish yo‘llari bayon etilgan ishlanma (kamida 10 bet).

Uzluksiz kasbiy rivojlanish – o‘qituvchining kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini butun faoliyati davomida muntazam, ehtiyojga asoslangan holda oshirib borishi.

Venn diagrammasi – ikki yoki undan ortiq tushunchaning umumiy va farqli jihatlarini kesishuvchi doiralar yordamida ko‘rsatuvchi grafik organayzer.

Yangilik – ishlanmada ilk bor taklif etilayotgan yoki avvalgilardan farq qiluvchi jihat; mutlaq, nisbiy, kombinatsion, mahalliy va texnologik turlari farqlanadi.

Yetakchi o‘qituvchi – maktabda fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga mas’ul tajribali faol o‘qituvchi yoki fan metodik birlashmasi rahbari.

Yetakchi pedagogik g‘oya – tajribaning markazida turgan, uning barcha elementlarini birlashtiruvchi va uni boshqa tajribalardan ajratib turuvchi asosiy g‘oya.

4K ko‘nikmalari – XXI asr ko‘nikmalari: kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiya (hamkorlik).

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODLAR

Ushbu bo‘limda ona tili va adabiyot o‘qituvchisi uslubiy ishlanma yaratishda tayanishi mumkin bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar majmui keltiriladi. Ular uslubiy tavsiya va qo‘llanmalarda “Qanday o‘qitish kerak?” savoliga javob berishning asosiy vositasidir. Har bir texnologiya va metod uchun uning mohiyati, maqsadi, qo‘llash bosqichlari, ona tili va adabiyot darslaridan misollar hamda o‘qituvchi uchun eslatmalar berilgan. Bo‘limni tayyorlashda o‘zbek olimlari N.Saidahmedov, J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov, N.Azizxo‘jayeva, O’.Tolipov, M.Usmonboyeva, R.Ishmuhamedov, N.Muslimov va boshqalarning ishlari hamda xorijiy manbalarga tayanildi[129].

Bo‘lim ikki qismdan iborat. Birinchi qismda yaxlit o‘quv jarayonini tashkil etishga oid ta’lim texnologiyalari, ikkinchi qismda dars davomida qo‘llaniladigan interfaol metodlar va grafik organayzerlar yoritilgan. Shuni yodda tutish kerakki, texnologiya va metod o‘z-o‘zidan maqsad emas: ular mavzu mazmuni, o‘quvchilar yoshi va dars maqsadiga mos tanlangandagina samara beradi.

I. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari

1. Muammoli ta’lim texnologiyasi

Mohiyati. Muammoli ta’lim – o‘qituvchi tomonidan muammoli vaziyat yaratilib, o‘quvchilar uni mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallaydigan ta’lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat – o‘quvchining mavjud bilimi bilan yangi topshiriq talabi o‘rtasidagi ziddiyat; u

[129] Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.

oʻquvchida “nega?”, “qanday qilib?” degan savollarni uygʻotadi va izlanishga undaydi.

Maqsadi. Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash, gipoteza ilgari surish, uni dalillash va xulosa chiqarish koʻnikmalarini rivojlantirish; bilimlarni tayyor holda emas, “kashf etish” orqali oʻzlashtirish.

Bosqichlari. 1) Muammoli vaziyat yaratish. 2) Muammoni ifodalash. 3) Gipotezalar ilgari surish. 4) Gipotezalarni tekshirish (matn, misollar, lugʻatlar bilan ishlash). 5) Xulosa chiqarish va qoidani ifodalash. 6) Yangi bilimni qoʻllash.

Ona tili darsidan misol. “Qoʻshma soʻzlar imlosi” mavzusida oʻqituvchi doskaga “temiryoʻl”, “Toshkent”, “sotib oldi”, “kungaboqar”, “koʻzoynak”, “ishlab chiqarish” soʻzlarini yozadi va savol beradi: “Nima uchun ayrim qoʻshma soʻzlar qoʻshib, ayrimlari ajratib yoziladi?” Oʻquvchilar guruhlarda soʻzlarni kuzatib, qoʻshib va ajratib yozilish sabablarini taxmin qiladi, imlo lugʻati va qoidalar bilan solishtiradi, soʻngra qoidani oʻz soʻzlari bilan ifodalaydi.

Adabiyot darsidan misol. Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanini oʻrganishda savol qoʻyiladi: “Otabek – baxtli qahramonmi yoki baxtsiz?” Oʻquvchilar romandagi epizodlar asosida ikki xil pozitsiyani asoslaydi, soʻngra qahramon taqdirini belgilagan ijtimoiy va shaxsiy omillar haqida xulosa chiqaradi.

Eslatma. Muammoli vaziyat oʻquvchilar uchun hal qilsa boʻladigan darajada boʻlishi kerak; haddan tashqari qiyin muammo qiziqishni soʻndiradi. Muammoli ta’lim koʻproq vaqt talab qiladi, shuning uchun uni har bir darsda emas, mavzuning tayanch tushunchalarini oʻrgatishda qoʻllash maqsadga muvofiq.

2. Loyiha asosida oʻqitish texnologiyasi

Mohiyati. Loyiha asosida oʻqitish – oʻquvchilar muayyan muddat davomida real hayotiy muammo yoki savol ustida ishlab, aniq mahsulot (taqdimot, buklet, video, gazeta, spektakl, toʻplam) yaratishi orqali bilim va koʻnikmalarni egallaydigan texnologiya. Loyiha yakka, juftlik yoki guruh shaklida, qisqa (1–2 dars) yoki uzoq muddatli (chorak) boʻlishi mumkin.

Maqsadi. O‘quvchilarda mustaqil izlanish, rejalashtirish, hamkorlik, axborot bilan ishlash, taqdimot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash.

Bosqichlari. 1) Muammo va loyiha mavzusini tanlash. 2) Maqsad va kutilayotgan mahsulotni belgilash. 3) Rejalashtirish: vazifalar, rollar, muddatlar. 4) Ma’lumot to‘plash va tadqiq qilish. 5) Mahsulotni yaratish. 6) Taqdimot. 7) Baholash va refleksiya.

Ona tili darsidan misol. “Mahallamiz so‘zlari” loyihasi: 6-sinf o‘quvchilari o‘z mahallasi, qishlog‘idagi joy nomlari (toponimlar), kasb-hunar atamalari, keksalar nutqidagi qadimiy so‘zlarni to‘playdi, ularning ma’nosi va kelib chiqishini lug‘atlar yordamida izohlaydi va “Mahallamizning kichik lug‘ati” bukletini tayyorlaydi.

Adabiyot darsidan misol. “Tog‘ay Murod qahramonlari izidan” loyihasi: 10–11-sinf o‘quvchilari yozuvchi asarlaridagi xalq hayoti, urf-odatlar, til xususiyatlarini o‘rganib, asar parchalari, fotosuratlar va o‘z mulohazalaridan iborat elektron taqdimot yoki kichik hujjatli film tayyorlaydi.

Eslatma. Loyihani baholash uchun oldindan rubrika ishlab chiqiladi va o‘quvchilarga e’lon qilinadi; baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, jarayon (rejalashtirish, hamkorlik, mustaqillik) ham hisobga olinadi. Guruhda har bir o‘quvchining aniq roli va hissasi bo‘lishi kerak.

3. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi

Mohiyati. Hamkorlikda o‘qitish – o‘quvchilar kichik guruhlarda umumiy maqsad sari birgalikda ishlab, bir-biriga o‘rgatadigan va guruh muvaffaqiyati uchun har bir a’zo mas’ul bo‘ladigan texnologiya. Uning asosiy tamoyillari: ijobiy o‘zaro bog‘liqlik (guruh muvaffaqiyati har bir a’zoga bog‘liq), shaxsiy javobgarlik, bevosita muloqot, hamkorlik ko‘nikmalari va guruh faoliyatini tahlil qilish.

Maqsadi. O‘quvchilarda kommunikatsiya va kooperatsiya (4K) ko‘nikmalarini, o‘zaro yordam va mas’uliyat hissini rivojlantirish; bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish (o‘rgatish orqali o‘rganish).

Turlari. “Birgalikda o‘qiymiz” (guruh bitta topshiriqni bajaradi, har bir a’zo o‘z qismiga javob beradi); “Zig-zag” (Arra); kichik guruhlarda o‘qitish; “Kichik guruhlar musobaqasi”.

Ona tili darsidan misol. “Gap bo‘laklari” mavzusini takrorlashda 4 kishilik guruhlarga matn beriladi. Har bir a’zo bitta gap bo‘lagini (ega, kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar) topish uchun mas’ul. So‘ngra guruh birgalikda har bir gapni to‘liq tahlil qiladi. Nazorat individual o‘tkaziladi, guruh bali a’zolar ballari yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Adabiyot darsidan misol. Hikoyani o‘rganishda guruh a’zolari rollarni taqsimlaydi: “savolchi” (matn bo‘yicha savollar tuzadi), “lug‘atchi” (tushunarsiz so‘zlarni izohlaydi), “bog‘lovchi” (asarni hayot bilan bog‘laydi), “rassom” (asosiy epizodni chizadi), “xulosachi” (guruh fikrini umumlashtiradi). Bu “o‘quvchilar adabiy doirasi” modeli kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda samarali.

Eslatma. Guruhlar turli darajadagi o‘quvchilardan aralash tuziladi. Har bir guruh ishining oxirida “biz qanday hamkorlik qildik?” degan savol bo‘yicha qisqa refleksiya o‘tkaziladi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi

Mohiyati. Mazkur texnologiya o‘quv jarayonini uch bosqichli sikl – chaqiriq (da’vat), anglash (ma’noni anglash) va refleksiya (fikrlash) – asosida tashkil etishga tayanadi. Chaqiriq bosqichida o‘quvchining mavzu bo‘yicha mavjud bilimi faollashtiriladi va qiziqish uyg‘otiladi; anglash bosqichida yangi ma’lumot bilan faol ishlanadi; refleksiya bosqichida yangi bilim eski bilim bilan bog‘lanadi, umumlashtiriladi va baholanadi.

Maqsadi. O‘quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, dalil va fikrni farqlash, o‘z pozitsiyasini asoslash, muqobil qarashlarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Har bir bosqich uchun usullar. Chaqiriq: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB jadvali”, “To‘g‘ri va noto‘g‘ri fikrlar”. Anglash: “Insert”, “To‘xtab o‘qish”, “Juftlikda o‘qish va izohlash”, “Konseptual jadval”. Refleksiya: “Sinkveyn”, “Esse”, “Venn diagrammasi”, “3-2-1”.

Ona tili darsidan misol. “Ilmiy uslub” mavzusida chaqiriq bosqichida oʻquvchilar “Ilmiy matnni qanday tanib olamiz?” savoliga taxminlarini klasterga yozadi; anglash bosqichida darslikdagi matnni “Insert” usulida oʻqiydi; refleksiya bosqichida klasterni yangi ma’lumotlar bilan toʻldiradi va bir xil voqeani ilmiy va soʻzlashuv uslubida yozib, farqni koʻrsatadi.

Adabiyot darsidan misol. Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanini oʻrganishda chaqiriq bosqichida asar nomining ramziy ma’nosi haqida taxminlar aytiladi; anglash bosqichida tanlangan boblar “Toʻxtab oʻqish” usulida oʻqiladi (har bir toʻxtashda “keyin nima boʻladi?”, “nega qahramon shunday qildi?” savollari); refleksiya bosqichida oʻquvchilar Zebi obrazi haqida sinkveyn va kichik esse yozadi.

Eslatma. Texnologiya oʻqituvchidan savol berish madaniyatini talab qiladi: yopiq (“ha – yoʻq”) savollardan koʻra ochiq, tahlil va baholashga undovchi savollar koʻproq beriladi.

5. Differensial va individuallashtirilgan ta’lim texnologiyasi

Mohiyati. Differensial ta’lim – oʻquvchilarning tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, qiziqishi va oʻrganish uslubini hisobga olib, ularga turli mazmun, murakkablik va yordam darajasidagi topshiriqlar berish. Differensiatsiya mazmun (nima oʻrganiladi), jarayon (qanday oʻrganiladi), mahsulot (natija qanday koʻrsatiladi) va muhit boʻyicha amalga oshirilishi mumkin.

Maqsadi. Har bir oʻquvchining “yaqin rivojlanish zonasi”da ishlashini ta’minlash; kuchli oʻquvchilarning zerikishi va zaif oʻquvchilarning ortda qolishining oldini olish.

Usullari. Uch darajali topshiriqlar (asosiy, murakkablashtirilgan, ijodiy); tanlov asosidagi topshiriqlar (“tanlov menyusi”); “skaffolding” – yordamchi kartochkalar, namunalar, tayanch sxemalar; moslashuvchan guruhlar; individual ta’lim yoʻnalishi.

Ona tili darsidan misol. “Sifatdosh” mavzusida: 1-daraja – matndan sifatdoshlarni topib, ostiga chizish (tayanch sxema bilan); 2-daraja – sifatdoshli birikmalarni gapga aylantirish; 3-

daraja – sifatdosh oborotlaridan foydalanib, “Mening orzuyimdagi maktab” mavzusida matn yozish.

Adabiyot darsidan misol. She’r tahlilida o‘quvchilar “tanlov menyusi”dan bitta topshiriqni tanlaydi: she’rni ifodali o‘qib, audio yozib olish; she’rdagi tasvir vositalarini jadvalga yozib izohlash; she’r asosida rasm chizib, uning ma’nosini tushuntirish; she’rga javob she’r yozish.

Eslatma. Differensiatsiya o‘quvchilarni “kuchli” va “kuchsiz”ga doimiy ajratish degani emas; guruhlar mavzuga qarab o‘zgarib turadi, har bir o‘quvchiga keyingi darajaga o‘tish imkoniyati beriladi.

6. “Ag‘darilgan sinf” (flipped classroom) texnologiyasi

Mohiyati. “Ag‘darilgan sinf” – an’anaviy dars tuzilmasini “ag‘darish”: yangi nazariy material bilan o‘quvchilar uyda (videodars, matn, taqdimot orqali) mustaqil tanishadi, sinfda esa vaqt asosan amaliy mashqlar, muhokama, savollarga javob va murakkab topshiriqlarga sarflanadi.

Maqsadi. Dars vaqtidan samarali foydalanish, o‘quvchilarning faol amaliy faoliyati ulushini oshirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Bosqichlari. 1) O‘qituvchi 5–10 daqiqalik videodars yoki qisqa matn tayyorlaydi. 2) O‘quvchilar uyda material bilan tanishadi va 2–3 savolga javob yozadi yoki onlayn test bajaradi. 3) Darsning boshida o‘qituvchi tushunarsiz qolgan joylarni aniqlaydi. 4) Darsning asosiy qismi amaliy ishlarga bag‘ishlanadi. 5) Yakunda natijalar umumlashtiriladi.

Ona tili darsidan misol. “Undalma va kirish so‘zlar” mavzusida o‘quvchilar uyda o‘qituvchi tayyorlagan 7 daqiqalik videodarsni ko‘radi va 5 ta onlayn test bajaradi. Sinfda ular guruhlarda badiiy matnlardagi undalma va kirish so‘zlarni topib, tinish belgilarini tiklaydi va muloqot vaziyatlari asosida dialoglar tuzadi.

Adabiyot darsidan misol. Yozuvchi biografiyasi bilan o‘quvchilar uyda qisqa video yoki ma’lumot varaqasi orqali tanishadi; sinfda esa asar tahliliga ko‘proq vaqt ajratiladi.

Eslatma. Texnologiyani qo‘llashda o‘quvchilarning uyda internet va qurilmaga ega bo‘lishi hisobga olinadi; imkoniyati yo‘q o‘quvchilar uchun bosma material yoki maktab kutubxonasidagi kompyuterdan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

7. Geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi

Mohiyati. Geymifikatsiya – o‘yin elementlarini (ball, daraja, nishon, reyting, musobaqa, topshiriqlar zanjiri, “kvest”) o‘yin bo‘lmagan o‘quv jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish. Didaktik o‘yinlar esa o‘quv mazmunini bevosita o‘yin shaklida o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Maqsadi. O‘quvchilarning darsga qiziqishini, faolligini va o‘quv faoliyatiga ichki motivatsiyasini oshirish; ayniqsa quyi va o‘rta sinflarda o‘rganishni quvonchli jarayonga aylantirish.

Ona tili darsidan misollar. “So‘z zanjiri” (oldingi so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan so‘z aytish); “Imlo kvesti” (har bir to‘g‘ri bajarilgan topshiriq keyingi “xona” kalitini beradi); “Sifatlar savati”; “Kim ko‘p? Kim tez?” musobaqasi; onlayn viktorinalar (Kahoot, Quizizz).

Adabiyot darsidan misollar. “Adabiy detektiv” (o‘quvchilar asar parchasidan muallif va asarni aniqlaydi); “Qahramonni top” (qahramon tavsifi asosida); “Adabiy kvest” (yozuvchi hayoti va ijodiga oid topshiriqlar zanjiri); “Mo‘’jizalar maydoni” shaklidagi takrorlash o‘yini.

Eslatma. O‘yin maqsad emas, vosita: o‘yin yakunida albatta o‘rganilgan bilimlar umumlashtiriladi. Musobaqa elementlari o‘quvchilar o‘rtasida salbiy raqobat keltirib chiqarmasligi kerak; guruhli musobaqalar afzal.

8. Keys texnologiyasi (keys-stadi)

Mohiyati. Keys texnologiyasi – real yoki real hayotga yaqin vaziyatni (keysni) tahlil qilish, undagi muammoni aniqlash va asosli yechim topishga asoslangan texnologiya. Keys vaziyat tavsifi, unga oid ma’lumotlar va savollardan iborat bo‘ladi.

Maqsadi. O‘quvchilarda tahliliy tafakkur, qaror qabul qilish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, o‘z pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bosqichlari. 1) Keys bilan tanishish (yakka). 2) Muammoni aniqlash. 3) Guruhda yechim variantlarini ishlab chiqish. 4) Yechimlarni taqdim etish va muhokama. 5) Eng maqbul yechimni tanlash va asoslash. 6) Xulosa.

Ona tili darsidan misol. Keys: “Maktab gazetasi uchun yozilgan e’londa 12 ta xato bor va u o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri tushunilgan. Muharrir sifatida e’lonni tahrir qiling va nima uchun noto‘g‘ri tushunilganini tushuntiring”. O‘quvchilar imlo, tinish belgilari va uslubiy xatolarni topib, matnni tahrir qiladi.

Adabiyot darsidan misol. Keys: “Siz – Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasidagi Sotiboldi qo‘shnisisiz. Uning oilasiga qanday yordam bergan bo‘lardingiz? Hikoyadagi qaysi detallar jamiyatdagi qaysi muammoni ko‘rsatadi?” O‘quvchilar matnga tayanib vaziyatni tahlil qiladi va asar g‘oyasini hayotiy muammolar bilan bog‘laydi.

Eslatma. Keys o‘quvchilar yoshiga mos, aniq va yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Keysning “yagona to‘g‘ri javobi” bo‘lmasligi mumkin; asosiy narsa – yechimning asoslanganligi.

9. Integratsiyalashgan ta’lim va STEAM yondashuvi

Mohiyati. Integratsiyalashgan ta’lim – bir necha fan mazmunini umumiy mavzu yoki muammo atrofida birlashtirib o‘rgatish. STEAM (ingl. Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani amaliy loyihalar orqali uyg‘unlashtiradi. Ona tili va adabiyot bu yondashuvda nutq, matn yaratish, taqdimot va badiiy-estetik komponent orqali ishtirok etadi.

Maqsadi. O‘quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish, bilimlarni turli sohalarda qo‘llash, fanlararo aloqalarni ko‘rish ko‘nikmasini rivojlantirish. Ommalashtirish

mezonlarida fanlararo va mavzulararo integratsiya uchun 4 ball ajratilgan[130].

Ona tili darsidan misol. Ona tili va biologiya: “Bahor” mavzusidagi ilmiy-ommabop matn asosida ilmiy uslub xususiyatlarini o‘rganish va o‘quvchilarning o‘zlari kuzatgan o‘simlik haqida ilmiy tavsif yozishi. Ona tili va informatika: elektron hujjatda matnni rasmiylashtirish va imloni avtomatik tekshirish.

Adabiyot darsidan misol. Adabiyot va tarix: Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini XIX asr Turkiston tarixi bilan bog‘lab o‘rganish. Adabiyot va tasviriy san’at: asar qahramonlari portretini chizish va ularni matndagi tasvir bilan qiyoslash. Adabiyot va musiqa: g‘azallarga bastalangan qo‘shiqlarni tinglab, she’r ritmi va kayfiyatini tahlil qilish.

Eslatma. Integratsiya sun’iy bo‘lmasligi, har ikki fanning maqsadlariga xizmat qilishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni boshqa fan o‘qituvchisi bilan hamkorlikda loyihalash samarali.

10. Formativ baholash texnologiyasi

Mohiyati. Formativ (shakllantiruvchi) baholash – o‘quv jarayonida o‘quvchining rivojlanishini muntazam kuzatib, unga va o‘qituvchiga keyingi harakatlar uchun qayta aloqa beruvchi baholash. P.Blek va D.Viliam tadqiqotlari formativ baholashning o‘quv natijalarini sezilarli oshirishini ko‘rsatgan[131]. Uning asosiy elementlari: o‘quv maqsadi va muvaffaqiyat mezonlarini o‘quvchilar bilan bo‘lishish; samarali savollar; tavsifiy qayta aloqa; o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash; natijalar asosida o‘qitishni moslashtirish.

Maqsadi. Baholashni “jazo yoki mukofot”dan o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi vositaga aylantirish; o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat va mas’uliyat ko‘nikmasini rivojlantirish.

Usullari. “Chiqish kartochkasi” (dars oxirida bitta savolga javob); “Svetofor” (yashil, sariq, qizil kartochkalar bilan tushunish darajasini ko‘rsatish); “Ikki yulduz va bitta tilak” (ikki yutuq va

[130] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.
[131] Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment.

bitta taklif); “Oldin – keyin” jadvali; o‘z-o‘zini baholash varaqalari; rubrika asosida o‘zaro baholash; “Bosh barmoq” (yuqoriga, yon tomonga, pastga).

Ona tili darsidan misol. Insho yozishdan oldin o‘quvchilar bilan birgalikda muvaffaqiyat mezonlari ishlab chiqiladi (“inshoda kirish, asosiy qism va xulosa bor”, “har bir fikr misol bilan asoslangan”, “kamida 3 ta tasviriy vosita qo‘llangan”). Qoralama yozilgach, juftliklar bir-birining ishini mezonlar asosida “Ikki yulduz va bitta tilak” usulida baholaydi, so‘ngra o‘quvchilar ishini tahrir qiladi.

Adabiyot darsidan misol. Dars oxirida “chiqish kartochkasi”da o‘quvchilar “Bugungi asardagi eng muhim detal qaysi va nima uchun?” savoliga bir-ikki gap bilan javob yozadi. O‘qituvchi kartochkalar asosida keyingi darsni rejalashtiradi.

Eslatma. Formativ baholash natijalari jurnal bahosiga aylantirilishi shart emas; uning asosiy vazifasi – qayta aloqa. Ishlanmada baholash tartibi aniq ko‘rsatilishi ommalashtirish mezonlarida 4 ball bilan baholanadi[132].

11. Raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellektdan foydalanish texnologiyasi

Mohiyati. Raqamli ta’lim vositalari – o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan elektron resurslar, platformalar va dasturlar: interaktiv mashq yaratish platformalari, onlayn test tizimlari, elektron lug‘atlar va kutubxonalar, umumiy foydalanishdagi onlayn hujjatlar, taqdimot va video yaratish dasturlari, QR-kodlar, sun’iy intellekt vositalari.

Maqsadi. O‘quv jarayonini ko‘rgazmali, interaktiv va individuallashgan qilish; o‘quvchilarning raqamli va media savodxonligini rivojlantirish.

Ona tili va adabiyot darslarida qo‘llash yo‘nalishlari. Interaktiv mashqlar (moslashtirish, bo‘sh joyni to‘ldirish, guruhlash); onlayn viktorina va testlar; elektron lug‘atlar va imlo tekshiruvchi xizmatlar bilan ishlash; elektron kutubxonalardan badiiy asarlarni o‘qish; audiokitoblar va ifodali o‘qish yozuvlari;

[132] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

oʻquvchilar ijodiy ishlarining elektron toʻplami (blog, onlayn jurnal); onlayn hujjatda hamkorlikda matn yozish va tahrir qilish; SI yaratgan matnni tanqidiy tahlil qilish va tahrir qilish.

Misol. 9-sinf ona tili darsida oʻquvchilarga SI vositasi tomonidan yaratilgan “Bahor” mavzusidagi matn beriladi. Oʻquvchilar guruhlarda matndagi uslubiy gʻayritabiiyliklar, kalka iboralar, takrorlar va mantiqiy xatolarni topadi, matnni tahrir qiladi va “inson yozgan matn”ning afzalliklari haqida xulosa chiqaradi. Bu topshiriq tanqidiy fikrlash, tahrir koʻnikmasi va media savodxonlikni birgalikda rivojlantiradi.

Eslatma. Raqamli vositalar dars maqsadiga xizmat qilishi, oʻquvchilarning shaxsiy ma’lumotlari himoyalanishi, SIdan foydalanish shaffof va mas’uliyatli boʻlishi kerak (1.4-§). Texnik imkoniyat boʻlmagan holatlar uchun muqobil variant oldindan tayyorlanadi.

II. Interfaol metodlar va grafik organayzerlar

Interfaol metodlar – oʻquvchilarning oʻqituvchi va bir-biri bilan faol muloqoti, hamkorligi va mustaqil fikrlashiga asoslangan oʻqitish usullari. Grafik organayzerlar esa ma’lumotni vizual tartibga solish, tushunchalar oʻrtasidagi aloqalarni koʻrsatish vositalaridir[133]. Quyida ona tili va adabiyot darslarida keng qoʻllaniladigan metodlar dars bosqichlariga koʻra emas, alifbo tartibiga yaqin holda, har biri uchun qisqa tavsif, bosqichlar va misollar bilan berilgan.

12. “Aqliy hujum” metodi

Mohiyati. Muayyan muammo yoki savol boʻyicha qisqa vaqt ichida iloji boricha koʻp gʻoyalarni tanqidsiz toʻplash va keyin ularni tahlil qilishga asoslangan metod.

Qoidalari va bosqichlari. 1) Savol yoki muammo aniq qoʻyiladi. 2) Belgilangan vaqtda (3–7 daqiqa) barcha gʻoyalar tanqidsiz qabul qilinadi va doskaga yoziladi. 3) Gʻoyalar

[133] Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻrayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari.

guruhlanadi. 4) Eng asosli g‘oyalar tanlanadi va muhokama qilinadi.

Misol. Ona tili: “So‘z boyligini oshirishning qanday yo‘llari bor?” Adabiyot: “Agar «Shum bola» qissasi qahramoni bugungi kunda yashaganida, qanday sarguzashtlarga duch kelardi?”

Eslatma. G‘oyalarni to‘plash bosqichida baho berish va tanqid qilish taqiqlanadi; aks holda o‘quvchilar fikr bildirishdan tortinadi.

13. “BBB” (Bilaman – Bilishni xohlayman – Bilib oldim) jadvali

Mohiyati. Uch ustunli jadval yordamida o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimi, qiziqishlari va dars davomida o‘rgangan narsalarini qayd etish usuli.

Bosqichlari. 1) Dars boshida “Bilaman” ustuni to‘ldiriladi. 2) “Bilishni xohlayman” ustuniga savollar yoziladi. 3) Mavzu o‘rganiladi. 4) Dars oxirida “Bilib oldim” ustuni to‘ldiriladi va savollarga javob topilgani tekshiriladi.

Misol. Ona tili: “Frazeologizmlar” mavzusi. Adabiyot: “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida o‘quvchilar Navoiy haqida bilganlari va bilmoqchi bo‘lganlarini yozadi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Eslatma. Jadval o‘quvchining o‘z bilimini anglashi (metakognitsiya) uchun foydali; “Bilishni xohlayman” ustunidagi javobsiz qolgan savollar uy vazifasi yoki keyingi dars uchun asos bo‘ladi.

14. “Baliq skeleti” (Fishbone) sxemasi

Mohiyati. Muammoning sabablari va oqibatlarini baliq skeletiga o‘xshash sxemada tahlil qilish usuli: “boshi”ga muammo, yuqori “suyaklar”ga sabablar, pastki “suyaklar”ga dalillar yoki oqibatlar yoziladi.

Bosqichlari. 1) Muammo ifodalanadi. 2) Guruhlar sabablarni aniqlaydi. 3) Har bir sabab uchun dalil keltiriladi. 4) Xulosa va yechim taklif etiladi.

Misol. Ona tili: “Nima uchun yozma ishlarda tinish belgilari xatolari koʻp?” Adabiyot: “Nima uchun Kumush fojiaga uchradi?” (Abdulla Qodiriy, “Oʻtkan kunlar”) – sabablar: ijtimoiy muhit, koʻpxotinlik an’anasi, Zaynabning hasadi, Otabekning qat’iyatsizligi va boshqalar, har biri matndan dalillar bilan.

Eslatma. Sxema sabab-natija munosabatlarini koʻrishga oʻrgatadi va tahliliy insho rejasi sifatida ham qoʻllanadi.

15. “Debat” (munozara) metodi

Mohiyati. Ikki jamoa ma’lum qoidalar asosida bahsli masala boʻyicha qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qiladigan tuzilmalashgan munozara.

Bosqichlari. 1) Bahsli tezis e’lon qilinadi. 2) Jamoalar (“tarafdorlar” va “raqiblar”) tuziladi va tayyorlanadi. 3) Jamoalar navbat bilan dalillarini bayon qiladi. 4) Savol-javob va raddiyalar. 5) Yakuniy soʻz. 6) Hakamlar yoki sinf baholaydi.

Misol. Adabiyot: “Otabekning Zaynabga uylanishi – qahramonning zaifligimi yoki vaziyat taqozosimi?”; “Badiiy adabiyot bugungi kunda ham hayot darsligi boʻla oladimi?” Ona tili: “Ijtimoiy tarmoqlardagi yozuv madaniyati ona tilining rivojiga xavf soladimi?”

Eslatma. Debatda shaxsga emas, fikrga qarshi chiqiladi; har bir da’vo matndan yoki hayotdan dalil bilan asoslanadi. Debat argumentativ nutq va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

16. “Esse” va “Besh daqiqalik esse”

Mohiyati. Esse – muallifning muayyan masala boʻyicha shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin shaklda ifodalovchi kichik hajmli asar. “Besh daqiqalik esse” – dars oxirida 5 daqiqa ichida yoziladigan qisqa refleksiv matn.

Bosqichlari (“besh daqiqalik esse”). 1) Oʻqituvchi savol beradi (“Bugungi darsda nimani oʻrgandim va hali nimani tushunmadim?”). 2) Oʻquvchilar 5 daqiqa davomida toʻxtamasdan yozadi. 3) Bir necha esse oʻqiladi yoki oʻqituvchi ularni yigʻib oladi.

Misol. Adabiyot: “Men Qobil boboning oʻrnida boʻlganimda…” Ona tili: “Ona tilim – mening faxrim” mavzusida esse.

Eslatma. Esse oʻquvchining yozma nutqini, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi; uni baholashda rubrikadan foydalaniladi (2.3-§).

17. “Galereya” metodi

Mohiyati. Guruhlar ish natijalarini (plakat, sxema, chizma) devorga ilib, “galereya” boʻylab yurgan holda bir-birining ishi bilan tanishadi va izoh qoldiradi.

Bosqichlari. 1) Guruhlar topshiriqni bajarib, natijani plakatga tushiradi. 2) Plakatlar devorga ilinadi. 3) Guruhlar navbat bilan har bir plakat oldiga kelib, uni oʻrganadi va stikerga savol yoki taklif yozib qoldiradi. 4) Guruhlar oʻz plakatiga qaytib, izohlarni tahlil qiladi.

Misol. Adabiyot: har bir guruh bitta qahramon haqida “obraz xaritasi” tayyorlaydi. Ona tili: har bir guruh bitta tinish belgisining qoʻllanish qoidalari boʻyicha infografika tayyorlaydi.

Eslatma. Metod oʻquvchilarning harakatlanishiga imkon beradi va oʻzaro baholashni tashkil etishning qulay shakli hisoblanadi.

18. “Insert” metodi

Mohiyati. Matnni oʻqish jarayonida oʻquvchilar maxsus belgilar qoʻyib, ma’lumotni oʻz bilimi bilan solishtirib boradigan faol oʻqish usuli.

Belgilar. “V” – avvaldan bilaman; “+” – yangi ma’lumot; “–” – men bilganimga zid; “?” – tushunarsiz, savol bor. Ba’zan “!” – juda muhim belgisi ham qoʻllanadi.

Bosqichlari. 1) Belgilar tushuntiriladi. 2) Oʻquvchilar matnni oʻqib, belgilar qoʻyadi. 3) Natijalar jadvalga tushiriladi. 4) “?” belgili joylar birgalikda muhokama qilinadi.

Misol. Ona tili: darslikdagi yangi qoida matni. Adabiyot: yozuvchi tarjimai holi yoki adabiyotshunoslik maqolasi.

Eslatma. Insert oʻquvchini matnni passiv oʻqishdan faol oʻqishga oʻtkazadi; oʻqish savodxonligini rivojlantirishning samarali vositasi.

19. “Klaster” metodi

Mohiyati. Markazga tayanch tushuncha yozilib, undan tarmoqlanib boruvchi bog‘liq tushunchalar, belgilar, misollar joylashtiriladigan grafik organayzer.

Bosqichlari. 1) Doska yoki varaq markaziga tayanch so‘z yoziladi. 2) O‘quvchilar u bilan bog‘liq so‘z va iboralarni atrofiga yozib, chiziqlar bilan bog‘laydi. 3) Har bir tarmoq yana kichik tarmoqlarga bo‘linishi mumkin. 4) Klaster tahlil qilinadi va to‘ldiriladi.

Misol. Ona tili: markazda “Ot” – tarmoqlar: ma’nosi, so‘roqlari, turlari (atoqli, turdosh, aniq, mavhum), grammatik belgilari (son, egalik, kelishik), gapdagi vazifasi. Adabiyot: markazda “Kumush” – tarmoqlar: tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, xatti-harakatlari, boshqa qahramonlar bilan munosabati, muallif munosabati.

Eslatma. Klaster mavzu boshida (bilimlarni faollashtirish) va oxirida (umumlashtirish) qo‘llanishi mumkin; ikki klasterni qiyoslash o‘quvchining rivojlanishini ko‘rsatadi.

20. “Konseptual jadval” va “T-jadval”

Mohiyati. Konseptual jadval – ikki yoki undan ortiq obyektni bir necha mezon bo‘yicha qiyoslash uchun jadval. T-jadval – bir masalaning ikki tomonini (afzallik – kamchilik, “ha” – “yo‘q”, o‘xshashlik – farq) qarama-qarshi qo‘yish uchun ikki ustunli jadval.

Misol (konseptual jadval). Adabiyot: “Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod hikoyalarida xalq hayoti tasviri” – mezonlar: qahramon, muhit, til xususiyatlari, badiiy detal, muallif pozitsiyasi. Ona tili: “Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi” – mezonlar: ma’nosi, yasalishi, so‘roqlari, gapdagi vazifasi.

Misol (T-jadval). “Elektron kitob va qog‘oz kitob: afzalliklari va kamchiliklari”.

Eslatma. Jadvallar qiyosiy tahlil ko‘nikmasini rivojlantiradi va insho rejasini tuzishda yordam beradi.

21. “Rolli o‘yin” va “Rolli o‘qish”

Mohiyati. Rolli o‘yin – o‘quvchilar muayyan vaziyatda ma’lum rollarni ijro etib, shu orqali bilim va ko‘nikmalarni egallaydigan metod. Rolli o‘qish – badiiy asarni rollarga bo‘lib, qahramonlar nutqini ifodali o‘qish.

Bosqichlari. 1) Vaziyat yoki matn tanlanadi. 2) Rollar taqsimlanadi va tayyorgarlik ko‘riladi. 3) Ijro. 4) Muhokama: qahramon nima his qildi, nima uchun shunday gapirdi?

Misol. Ona tili: “Kutubxonada”, “Do‘konda”, “Telefon orqali muloqot” vaziyatlarida nutq odobi qoidalarini qo‘llash. Adabiyot: Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini rollarga bo‘lib o‘qish; “Sud jarayoni” rolli o‘yinida asar qahramonini “ayblash” va “himoya qilish”.

Eslatma. Rolli o‘qish va o‘yin o‘quvchining qahramon ichki dunyosini his qilishiga yordam beradi, ayniqsa dramatik asarlarni o‘rganishda samarali.

22. “Sinkveyn” metodi

Mohiyati. Sinkveyn (fr. “besh qator”) – o‘rganilgan tushuncha yoki obraz haqidagi ma’lumotni besh qatorli qisqa she’riy shaklda umumlashtirish usuli.

Tuzilishi. 1-qator – mavzu (bitta ot). 2-qator – uni tavsiflovchi ikkita sifat. 3-qator – u bilan bog‘liq uchta fe’l. 4-qator – mavzuga munosabatni ifodalovchi to‘rt so‘zli gap. 5-qator – mavzuning mohiyatini ifodalovchi bitta so‘z (sinonim).

Misol. Adabiyot:

Kumush.

Pokiza, vafodor.

Sevadi, kutadi, kechiradi.

Muhabbat yo‘lida o‘zini fido qildi.

Sadoqat.

Ona tili: “Fe’l” tushunchasi bo‘yicha sinkveyn.

Eslatma. Sinkveyn bir vaqtning o‘zida grammatik bilimlarni (so‘z turkumlari) mustahkamlaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi; refleksiya bosqichida qo‘llash qulay.

23. “Venn diagrammasi”

Mohiyati. Ikki yoki uch tushunchaning umumiy va farqli jihatlarini kesishuvchi doiralar yordamida koʻrsatuvchi grafik organayzer. Majmuada uslubiy tavsiya va uslubiy qoʻllanmaning farqini tushuntirish uchun ham aynan shu metod taklif etilgan[134].

Bosqichlari. 1) Ikki doira chiziladi va har biriga tushuncha nomi yoziladi. 2) Doiralarning kesishmaydigan qismlariga faqat shu tushunchaga xos belgilar yoziladi. 3) Kesishgan qismga umumiy belgilar yoziladi. 4) Xulosa chiqariladi.

Misol. Ona tili: “Sifat va ravish”, “Sodda gap va qoʻshma gap”. Adabiyot: “Ertak va hikoya”, “Otabek va Anvar obrazlari”, “Gʻazal va ruboiy”.

Eslatma. Venn diagrammasi qiyosiy tahlilning eng sodda va koʻrgazmali vositasi; uni insho rejasi sifatida ham qoʻllash mumkin.

24. “Zig-zag” (Arra) metodi

Mohiyati. Oʻquvchilar “uy guruhlari”dan “ekspert guruhlari”ga oʻtib, matnning bir qismini chuqur oʻrganadi va uy guruhiga qaytib, uni boshqa a’zolarga oʻrgatadi. Har bir a’zo umumiy natija uchun mas’ul boʻladi.

Bosqichlari. 1) Uy guruhlari tuziladi, har bir a’zoga matnning bir qismi beriladi. 2) Bir xil qismni olganlar ekspert guruhiga yigʻiladi va uni oʻrganadi. 3) Ekspertlar uy guruhiga qaytib, oʻrganganini tushuntiradi. 4) Umumiy nazorat yoki topshiriq bajariladi.

Misol. Adabiyot: jadid adabiyoti namoyandalari (Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Choʻlpon, Hamza) haqidagi matnlar. Ona tili: qoʻshma gap turlari (bogʻlangan, ergash gapli, bogʻlovchisiz).

Eslatma. Metod katta hajmdagi materialni qisqa vaqtda oʻrganish va har bir oʻquvchining faolligini ta’minlash imkonini beradi.

---

[134] Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining oʻquv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar.

25. “Oltita fikrlash shlyapasi” metodi

Mohiyati. E.de Bono tomonidan taklif etilgan[135], muammoni olti xil nuqtai nazardan koʻrib chiqishga asoslangan metod. Har bir “shlyapa” rangi muayyan fikrlash turini bildiradi: oq – faktlar va ma’lumotlar; qizil – his-tuygʻular; qora – xavf va kamchiliklar; sariq – afzalliklar va ijobiy tomonlar; yashil – yangi gʻoyalar va ijod; koʻk – jarayonni boshqarish va xulosa.

Bosqichlari. 1) Muammo e’lon qilinadi. 2) Guruhlarga “shlyapalar” taqsimlanadi yoki butun sinf navbat bilan har bir “shlyapa”da fikrlaydi. 3) Har bir nuqtai nazardan fikrlar bildiriladi. 4) “Koʻk shlyapa” xulosa chiqaradi.

Misol. Adabiyot: “Otabekning ikkinchi marta uylanishi” epizodini olti nuqtai nazardan tahlil qilish. Ona tili: “Maktabda faqat elektron darsliklardan foydalanish kerakmi?” mavzusida munozara oldidan fikrlarni tizimlashtirish.

Eslatma. Metod oʻquvchilarni bir tomonlama fikrlashdan saqlaydi va masalani har tomonlama koʻrishga oʻrgatadi.

26. “3-2-1” refleksiya usuli

Mohiyati. Dars yoki mashgʻulot yakunida oʻquvchi (tinglovchi) uchta yangi bilgan narsasini, ikkita qiziqarli yoki tushunarsiz qolgan jihatni va bitta amaliy qaror yoki savolni yozadigan refleksiya usuli. Majmuada bu usul tinglovchilarning oʻz-oʻzini baholashi uchun tavsiya etilgan[136].

Shakli. 3 – Bugun bilib olgan uchta narsa. 2 – Meni qiziqtirgan (yoki tushunarsiz qolgan) ikkita jihat. 1 – Amalda qoʻllaydigan bitta narsa (yoki bitta savol).

Misol. Ona tili darsida “Undalma” mavzusidan keyin; adabiyot darsida asar tahlilidan keyin; malaka oshirish mashgʻulotida modul yakunida.

Eslatma. Usul tez bajariladi (3–5 daqiqa) va oʻqituvchiga keyingi darsni rejalashtirish uchun qimmatli ma’lumot beradi.

---

[135] De Bono E. Six Thinking Hats. – Boston: Little, Brown and Company, 1985. – 207 p.

[136] Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining oʻquv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar.

27. “Kitob davrasi” (o‘quvchilar adabiy doirasi)

Mohiyati. O‘quvchilar kichik guruhlarda bitta kitobni o‘qib, belgilangan rollar asosida uni muhokama qiladigan, kitobxonlikni ijtimoiy muloqotga aylantiruvchi metod.

Rollar. “Muhokama rahbari” (savollar tuzadi va suhbatni boshqaradi); “So‘z ustasi” (qiziqarli yoki tushunarsiz so‘zlarni topib izohlaydi); “Parcha tanlovchi” (eng ta’sirli parchani o‘qib beradi va tanlovini asoslaydi); “Bog‘lovchi” (kitobni hayot, boshqa asarlar bilan bog‘laydi); “Rassom” (asosiy epizodni chizadi); “Xulosachi” (qismning qisqa mazmuni va g‘oyasini aytadi). Har bir uchrashuvda rollar almashib turadi.

Bosqichlari. 1) Guruhlar kitob tanlaydi va o‘qish rejasini tuzadi. 2) Har bir qism o‘qilgach, a’zolar o‘z roli bo‘yicha tayyorlanadi. 3) Guruh 20–30 daqiqa davomida muhokama o‘tkazadi. 4) Kitob tugagach, guruh sinfga kitobni “tavsiya” (taqdimot, buklet, reklama roligi) qiladi.

Misol. 6–7-sinflarda sarguzasht va ertak-qissalar, 8–9-sinflarda hikoyalar to‘plamlari asosida.

Eslatma. Metod sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etishning samarali shakli bo‘lib, o‘quvchilarning kitobga ichki motivatsiyasini oshiradi.

Metod tanlash bo‘yicha umumiy tavsiyalar. Quyidagi jadvalda yuqorida tavsiflangan metodlar dars bosqichlari va rivojlantiriladigan ko‘nikmalar bo‘yicha guruhlangan.

Dars bosqichi	**Tavsiya etiladigan metodlar**	**Asosiy rivojlantiriladigan ko‘nikma**
Motivatsiya va bilimlarni faollashtirish	“Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB”	Qiziqish, oldingi bilimni yangilash
Yangi mavzuni o‘rganish	“Insert”, “Zig-zag”, muammoli savol	Faol o‘qish, mustaqil o‘rganish
Tahlil va mustahkamlash	“Baliq skeleti”, “Venn diagrammasi”, konseptual jadval	Tahlil, qiyoslash, tizimlashtirish
Muhokama va baholash	“Debat”, “Oltita fikrlash shlyapasi”, keys	Tanqidiy fikrlash, argumentatsiya

Dars bosqichi	Tavsiya etiladigan metodlar	Asosiy rivojlantiriladigan ko‘nikma
Ijodiy qo‘llash	“Rolli o‘yin”, “Sinkveyn”, “Esse”, “Kitob davrasi”, loyiha	Kreativlik, nutq
Refleksiya	“3-2-1”, “Chiqish kartochkasi”, “Svetofor”, “Galereya”	O‘z-o‘zini baholash

Metodni tanlashda uchta savolga javob berish tavsiya etiladi: “Bu metod dars maqsadiga xizmat qiladimi?”, “U o‘quvchilar yoshi va tayyorgarligiga mosmi?”, “Uni belgilangan vaqtda sifatli o‘tkazish mumkinmi?”. Uchta savolga ham ijobiy javob olinsagina metod darsga kiritiladi. Uslubiy ishlanmada esa har bir metodning aynan shu mavzuda qanday qo‘llanishi aniq misol bilan ko‘rsatiladi – bu ommalashtirish mezonlaridagi “Qanday o‘qitish kerak?” savoliga eng yaxshi javobdir[137].

[137] Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari.

TEST TOPSHIRIQLARINING KALITLARI

1.1-§. 1–B, 2–C, 3–A, 4–D, 5–B, 6–D, 7–C, 8–C, 9–A, 10–B
1.2-§. 1–B, 2–A, 3–C, 4–D, 5–B, 6–C, 7–A, 8–B, 9–D, 10–A
1.3-§. 1–C, 2–A, 3–D, 4–B, 5–D, 6–A, 7–B, 8–D, 9–A, 10–C
1.4-§. 1–C, 2–B, 3–A, 4–C, 5–B, 6–A, 7–B, 8–B, 9–D, 10–A
2.1-§. 1–C, 2–B, 3–A, 4–D, 5–A, 6–C, 7–A, 8–D, 9–A, 10–C
2.2-§. 1–C, 2–B, 3–D, 4–A, 5–B, 6–A, 7–C, 8–B, 9–A, 10–C
2.3-§. 1–B, 2–A, 3–C, 4–A, 5–A, 6–C, 7–B, 8–D, 9–B, 10–A
2.4-§. 1–A, 2–C, 3–B, 4–D, 5–A, 6–B, 7–A, 8–C, 9–A, 10–C
2.5-§. 1–C, 2–A, 3–D, 4–A, 5–C, 6–B, 7–A, 8–C, 9–A, 10–B

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. // lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-son buyrug‘i.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun «Kasbiy rivojlanish kuni» va «Kasbiy rivojlanish soati» tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi 101-son buyrug‘i (10-ilova: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv rejasi).
8. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o‘quv dasturi (2-toifali va mutaxassis o‘qituvchilar

uchun) / Tuzuvchilar: D.O‘rinbayeva, L.Mirzoxidova, G.Raximova, G.Niyozova, N.Hamroyeva. – Toshkent: A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2026.
9. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv-uslubiy majmuasi. 3-blok: Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2026.
10. Metodik qo‘llanma va metodik tavsiyaga qo‘yiladigan talablar hamda baholash mezonlari. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. // xalqtaliminfo.uz.

II. Darslik, monografiya, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar

11. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
12. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 112 b.
13. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Ikromova R. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
14. Hoshimov K., Ochil S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
15. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. – 352 b.
16. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
17. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 278 b.
18. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 512 b.
19. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.
20. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.

21. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
22. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
23. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
24. Saidova R.M. Adabiy ta’sir muammolari tadqiqi (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod ijodi misolida): monografiya. – Toshkent, 2026. – 106 b.
25. Tashpulatov S.Sh., Botirova R.X., Cherunova I.V. Ilmiy maqola yozish asoslari. Ilmiy maqola qanday yoziladi? – Toshkent, 2017.
26. Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
27. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
28. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.
29. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
30. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 360 b.
31. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 256 b.

III. Xorijiy adabiyotlar

32. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
33. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
34. Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. // Phi Delta Kappan. – 1998. – Vol. 80, No. 2. – P. 139–148.

35. Bloom B.S. (ed.) Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956.
36. De Bono E. Six Thinking Hats. – Boston: Little, Brown and Company, 1985. – 207 p.
37. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
38. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.
39. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.) PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston College: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019.
40. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
41. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.
42. Swales J.M., Feak C.B. Academic Writing for Graduate Students. 3rd ed. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2012.
43. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.

IV. Internet manbalari

44. https://lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
45. https://ommalashtirish.uz – O’qituvchilarning ilg’or ish tajribalarini ommalashtirish platformasi.
46. Yangi tartib bo‘yicha ommalashtirish jarayoni qay tartibda amalga oshiriladi? // https://talimxabarlari.uz/23465/ (03.03.2025).
47. Ommalashtirishning yangi tartibi belgilandi. // https://talimxabarlari.uz/3699/.
48. https://uzedu.uz – O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy sayti.

ILOVALAR

1-ilova. Uslubiy tavsiyaning muqova va ichki muqova sahifalari namunasi

Muqova (birinchi sahifa)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI … TUMANI …-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI

Familiyasi Ismi Otasining ismi

5-SINF ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MATNDAN XULOSA CHIQARISH KO‘NIKMASINI «IZ-DALIL» USULI ORQALI RIVOJLANTIRISH

(uslubiy tavsiya)

Jizzax – 2026

Ichki muqova (ikkinchi sahifa)

Tuzuvchi: Familiya I.O. – Jizzax viloyati … tumani …-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, oliy toifali.

Taqrizchilar:

Familiya I.O. – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Familiya I.O. – … tumani metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti.

Uslubiy tavsiya …-umumiy o‘rta ta’lim maktabi pedagogik kengashining 2026-yil “” **__dagi** -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va ommalashtirishga tavsiya etilgan.

Annotatsiya. Uslubiy tavsiyada 5-sinf ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning matndan xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Xalqaro o‘qish savodxonligi baholash yondashuvlari asosida “Iz-dalil” usulining mazmuni va qo‘llash bosqichlari bayon etilgan. Usul uchun darslik matnlariga asoslangan topshiriqlar va baholash rubrikasi ishlab chiqilgan. Ikki sinfda o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari usulning samaradorligini ko‘rsatgan. Tavsiya ona tili va adabiyot fani

oʻqituvchilari va metodik birlashma rahbarlari uchun moʻljallangan.

Kalit soʻzlar: oʻqish savodxonligi, matnni tushunish, xulosa chiqarish, “Iz-dalil” usuli, matndagi dalil, baholash rubrikasi, 5-sinf.

2-ilova. Amaliy mashgʻulotlar uchun tarqatma materiallar (shablonlar)

Quyidagi shablonlar qoʻllanmadagi amaliy mashgʻulotlarda qoʻllaniladi. Ularni A4 formatda chop etib yoki elektron shaklda tarqatish mumkin.

1-shablon. “Mavzu pasporti” (1.3-§)

Element	**Mazmuni**
Ishlanma mavzusi	
Ishlanma turi (tavsiya / qoʻllanma / maqola)	
Sinf(lar) va oʻquv dasturidagi boʻlim	
Umumiy kontekst (me’yoriy hujjat, vazifa)	
Amaliy muammo (raqamli dalil bilan)	
Ziddiyat	
Adabiyotlardagi boʻshliq	
Dolzarblik xulosasi	
Yangilik turi va ifodasi	
Maqsad	
Vazifalar (3–5 ta)	
Kutilayotgan natija va uni oʻlchash usuli	

2-shablon. “Harakatdagi tadqiqot rejasi” (1.2-§)

Band	**Mazmuni**
Muammo	
Muammoni tasdiqlovchi dastlabki dalillar	
Taxminiy yechim (gipoteza: “agar …, u holda …”)	
Ishtirokchilar (sinf, oʻquvchilar soni)	
Muddat	
Qoʻllaniladigan tadqiqot metodlari	
Oʻlchov vositalari	
Kutilayotgan natija	
Refleksiya sanalari	

3-shablon. “Tajriba-sinov rejasi” (2.4-§)

Element	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
Sinf, o‘quvchilar soni		
Boshlang‘ich o‘lchov (sana, vosita)		
Qo‘llaniladigan usul	Yangi usul	An’anaviy dars
Muddat		
Yakuniy o‘lchov (sana, vosita)		
Mezon va ko‘rsatkichlar		
Natijalarni qayta ishlash usuli		

4-shablon. Uslubiy qo‘llanma “Konsepsiya varag‘i”

Element	Mazmuni
Nomi	
Foydalanuvchi	
Muammo	
Maqsad	
Tuzilmaviy model (chiziqli / nazariya – amaliyot / modulli)	
Boblar va paragraflar (har biri uchun 1–2 gap va hajm)	
Dars ishlanmalari soni	
Topshiriqlar va baholash materiallari	
Ilovalar	
Taxminiy hajm	
Muddatlar	

3-ilova. Ishlanmani ommalashtirishga taqdim etishdan oldin o‘z-o‘zini tekshirish varaqasi

№	Savol	Ishlanmadagi sahifa	Belgi
1	Muqova va ichki muqova talab asosida rasmiylashtirilganmi?		
2	Annotatsiya (4–8 gap) va kalit so‘zlar (6–8 ta) bormi?		
3	Dolzarblik me’yoriy hujjat va raqamli dalil bilan asoslanganmi?		
4	Yangilik va muallifning shaxsiy hissasi aniq ifodalanganmi?		
5	Ishlanma o‘quv dasturiga mosligi ko‘rsatilganmi?		
6	“Qanday o‘qitish kerak?” savoliga topshiriq namunalari, sxema va jadvallar bilan javob berilganmi?		
7	Kutilayotgan natijalar va dastlabki tayyorgarlik ko‘rsatilganmi?		
8	Baholash tartibi va mezonlari (rubrika) berilganmi?		
9	Fanlararo integratsiya, 4K ko‘nikmalari, AKT, tadqiqotchilik elementlari bormi?		
10	Yangi va xorijiy so‘zlarga izoh berilganmi?		
11	Matn imloviy, tinish va uslubiy xatolardan xolimi?		
12	Manbalar kamida 5 ta, havolalar kvadrat qavsda va ro‘yxatga mosmi?		
13	Ilovalar raqamlangan va matnda havola qilinganmi?		
14	Metodik birlashma va pedagogik kengash qarorlari, taqrizlar tayyormi?		
15	PDF nusxa, obyektivka va diplom nusxasi platformaga yuklashga tayyormi?		

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I BOB. USLUBIY ISHLANMA YARATISHNING NAZARIY VA ME'YORIY ASOSLARI..... 7

1.1-§. Uslubiy ishlanma tushunchasi, turlari va me'yoriy-huquqiy asoslari.....7

1.2-§. O'qituvchining ilmiy-metodik kompetentligi va o'zbek metodika merosi.....21

1.3-§. Uslubiy ishlanmaga qo'yiladigan talablar: mavzu, dolzarblik va yangilikni asoslash.....34

1.4-§. Ilmiy uslub, manbalar bilan ishlash va akademik halollik...46

II BOB. USLUBIY ISHLANMA YARATISH VA OMMALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....58

2.1-§. Tezis va ilmiy-metodik maqola yozish texnologiyasi 58

2.2-§. Uslubiy tavsiya va uslubiy qo'llanma tayyorlash texnologiyasi.....71

2.3-§. Dars ishlanmasi, topshiriq va baholash materiallarini ishlab chiqish.....84

2.4-§. Pedagogik tajriba-sinov va ilg'or tajribani umumlashtirish.....96

2.5-§. Ilg'or tajribani ommalashtirish tartibi, baholash mezonlari va tajriba almashish 110

XULOSA.....124

GLOSSARIY.....127

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODLAR.....133

I. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari 133

II. Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.....143

TEST TOPSHIRIQLARINING KALITLARI.....153

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....154

ILOVALAR 158

1-ilova. Uslubiy tavsiyaning muqova va ichki muqova sahifalari namunasi 158

2-ilova. Amaliy mashg‘ulotlar uchun tarqatma materiallar (shablonlar) 159

3-ilova. Ishlanmani ommalashtirishga taqdim etishdan oldin o‘z-o‘zini tekshirish varaqasi 161

Saidova Rizvon Mustofo qizi

ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITUVCHISINING USLUBIY ISHLANMA YARATISH TEXNOLOGIYASI

O‘quv qo‘llanma

O‘quv qo‘llanma muallifning tahririda taqdim etilgan.
O‘quv qo‘llanmada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.

Nashr uchun mas’ul: I.Ashurmatov
Texnik muharrir: O.Umarov
Musahhih: A.Xotamov
Dizayner-sahifalovchi: J.Usmonov

3615

“Bookmany print” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Buyurtma raqami №107. Bosishga ruxsat etildi: 4.11.2026.
“Cambria” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 9,2. Shartli bosma taboq 9,6.
Adadi 50 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10